

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«MUXANDISLIK PEDAGOGIKASI VA PSIXOLOGIYASI» KAFEDRASI

«TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI» fanidan

MA‘RUZALAR MATNI

ANDIJON-2019

Fanning ma'ruzalar matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2016 yil "6" aprelda tasdiqlangan va "137" raqam bilan ro'yxatga olingan «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanining o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

N. Atakulova - Andijon mashinasozlik instituti «Muhandislik pedagogikasi va psixologiyasi» kafedrasida dotsenti

Fanning ma'ruzalar matni Andijon mashinasozlik institutining o'quv uslubiy kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va ishlatishga tavsiya etilgan (2019 yil "10"07.12-sonli bayonnoma)

Institut o'quv-uslubiy kengashi raisi:



Q.M.Ermatov

1-Mavzu: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsad va vazifalari.

1.1. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining predmeti va uning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'ri.

1.2. Barkamol inson tarbiyasining metodologik asoslari. Ularning mazmuni va milliy qadriyatlar bilan boyitilishi.

1.3. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Tarbiyaviy ish metodikasi faniga qo'yilgan talablar.

1.4. "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Respublikamiz birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash, milliy istiqbol g'oyasiga sadoqat, vatanpravarlik fazilatlarini ular ongiga singdirish, iqtisodiy tafakkur va yangicha, mustaqil fikrlashga o'rgatish muammolarining qo'yilishi va bu fanning davrga mos dolzarb muammolarni yechishdagi ilmiy salohiyati to'g'risida.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, tarbiya tushunchasi, tarbiyaning mazmun-mohiyati, tarbiya funktsiyasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, tarbiya metodlari, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy munosabat.

1.1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti va uning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'ri.

Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqildi. Birgina "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"ning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilganligini keltirish kifoya.

Tarbiya - yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir.

Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan

mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. SHu jihatdan tarbiya ta'lim olish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim – tarbiya orqali shaxda ezgu ma'naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. SHu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Albatta, ta'lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi...”

Har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim ...”¹

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma'naviy – tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak qilib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liq.

1. 2. Barkamol inson tarbiyasining metodologik asoslari. Ularning mazmuni va milliy qadriyatlar bilan boyitilishi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq. Ular quyidagi omillarni qo'llash asosida vujudga keladi:

- tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir;

- tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta'sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo'yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqat va munosabatda bo'lishlari, ruhiy

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., Маънавият, 2008, 61-бет.

shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.

- O'quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o'quvchi yoshlarning faolligi ko'p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog'liq;

- Tarbiyaviy ishlar ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oyani singdirishda har tamonlama ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Kontstitutsiyasida har bir fuqoroning ilm olishi, o'z qobiliyatlarini har tamonlama rivojlantirish ta'kidlanadi. Ta'lim to'g'risida qabul qilingan qonunda maktabning, unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaning vazifalari belgilab berildi.

Ma'lumki yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O'qish va tarbiya jarayonining uzviyligi ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. SHuning uchun sinfdan, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir.

Har bir fanning predmeti, o'rganish ob'ekti, amalga oshirishi lozim vazifalari mavjud bo'lganidek, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ham predmeti, o'rganish ob'ekti va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalari bor. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti sinfdan va maktabda, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish, har tamonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashning eng zamonaviy va eng qulay yo'nalishlarini belgilash, vositalarini izlab topishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san'atining qirralari, shakl va yo'llari hamda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining o'rganish ob'ektini esa ta'lim muassalaridagi uzluksiz ta'lim –tarbiya jarayoni tashkil etadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilarning tarbiyaviy ish va tadbirlarning mazmunli bo'lishini ta'minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyat va urf-odatlardan keng foydalanishga, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilishga qaratilgandir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi, milliy istiqlol talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, ayni paytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. SHu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh masalalaridan biri ham yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdan iborat etib belgilangan. SHu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaviy ishlar shaxs kamolatining uzluksizligini va uzviyligini muvaffaqiyatli ta'minlaydi. SHu jihatdan har tarbiyaviy ishlar tizimi shaxs kamolotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi. Albatta, bunda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir. O'zbekiston mustaqilligi tufayli shaxsni tarbiyalashga, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Uning mazmunida yoshlar tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2008 yilni "Yoshlar yili" va 2010 yilni "Barkamol avlod yili" 2012 yilni "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinishi va ushbu yillar bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoyishning qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama yetuk, jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib belgilab berdi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiya barkamol avlodning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Tarbiyaviy ishlar sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik kabilarning asosiga aylanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o'rin egallaydi. SHu sababli bugunga yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona Vatan kabilar turli xil tarbiyaviy tadbirlar, boy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalar bilan tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida, millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy g'oya, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni sindirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayoning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi, ulug' olim Arastu. SHunga asosan tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyaviy ishlar jarayonida va tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bimir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish;

- milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;

- o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, mehnat, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va an'analarga tayanib, ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish ;

- tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish ;

- ilg'or tajribalarni tahlil qilish va uni o'z faoliyatida ijodiy foydalanish ;

- tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish ;

- tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan birga DTS lariga mosligiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba'zi bir talablarga ta'sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi.

2. Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihati barkamol avlodni har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. SHuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda mahoratlilikka, metodikaga tayanish maqsadga muvofiqdir.

1.3. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Tarbiyaviy ish metodikasi faniga qo'yilgan talablar.

Yosh avlodni tarbiyalashda turli xil metod va vositalardan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

Metod (lotincha-metodos-yo'l so'zidan olingan bo'lib) tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilingan.

Metodika (yunoncha-metodika) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish tarbiyalash usullari va vositalari degan tushunchani anglatadi.

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir.

Tarbiya metodlari tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ishlarini to'g'ri tashkil etishda muhim vosita bo'lib, bola shaxsining har tamonlama kamol topishi bilan belgilanadi va tarbiyaviy ishlar jarayoniga ta'luqli bo'lgan ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tamonidan ta'lim muassalari oldiga har tamonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o'z ichiga oladi.

Tarbiya metodlari o'qituvchi va jamoa tamonidan tarbiyalanuvchilarning g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his tuyg'u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo'llanadigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini anglatadi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borganda turli xil usul va vositalarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, ta'sir qilish zarurligini ko'rsatadi. SHuning uchun tarbiyaviy ishlar metodikasi fanida ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar.
2. Odatlantirish va faoliyatga mashqlantirish metodlari.
3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy ongiga hayot, ahloq, mehnat qilish munosabatlari to'g'risida qoida va me'yorlarini hosil qilishdan iborat.


Tarbiya jarayonida ushbu metod shaxsning e'tiqodi va ishonchiga aylanib boradi.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchilarda ma'naviy mazmuniga oid odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi. Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy hulq -atvor va odatlarni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita

ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruh metodlariga rag'batlantirish va jazo berish kabilar kiradi.

Tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan metodlarni quydagicha ifodalash mumkin:



Tarbiyaviy **Баркамол авлодни тарбиялаш** mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlikka yuz tutadi va oqibatda inqirozi mahkam bo'ladi. Negaki, har qanday jamiyatning o'sib, rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni, ajdodlardan yaxshiroq darajaga ko'tara bilishi kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlar shakllantirishi uchun jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy institutlar tizimiga ega bo'lishni taqozo etadi.


Tarbiyaviy ishlar metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'rganishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga mos ravishda bir qancha ta'lim-tarbiyaga oid fanlarga bog'liq holda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har qanday fanlarni o'qitishning maqsadi yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, ularning dunyoqarashini shakllantirishni bilish nazariyasining umumiy qonuniyatlari asosida hosil bo'lib, har qanday shaxs faoliyatida metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan falsafa fanining roli beqiyosdir. SHuning uchun shaxs tarbiyasi jarayoni bilan shug'ullanadigan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani falsafa fani bilan bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish shug'ullanganligi sababli pedagogika fani bilan uzviy bog'liqdir. Chunki pedagogika fani bola tarbiyasi va ularni o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan muassalarni amalga oshiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasi shaxsning qanday tarbiya topganligiga bog'liq. SHuning uchun tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar bilan bog'liq holda rivojlanganligi tufayli pedagogikaning qonuniyatlariga tayanadi.

Tarbiyaviy ishlar jarayoni tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatlarida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatini bilmasdan turib, tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi. SHaxsning ruhiy holati va yosh xususiyatlarini o'rganadigan fan psixologiya fani hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lganligi uchun psixologiya fanining yutuqlariga tayanib ish olib boradi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasining fanlar bilan bog'liqligini quydagicha chizmada ifodalash mumkin:



O'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash, ularga ta'lim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga e'tiborni qaratish tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. CHunki o'quvchi organizmining rivojlanishini bilmasdan unga ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Anatomiya, fiziologiya fanlari odam organizmi, uning rivojlanishi, tuzilishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. SHuning uchun ham tarbiyaviy ishlar fani anatomiya, fiziologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq ish ko'radi.

1.4. "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Respublikamiz birinchi Prezid enti I. A. Karimov asarlarida yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat, vatanpravarlik fazilatlarini ular ongiga singdirish, iqtisodiy tafakkur va yangicha, mustaqil fikrlashga o'rgatish muammolarining qo'yilishi va bu fanning davrga mos dolzarb muammolarni yechishdagi ilmiy salohiyati to'g'risida.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning yaratilishi ta'limni tubdan halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qancha nutq va risolalarida istiqbolga erishishning yo'llari, tamoyillarini aniq va ravshan ko'rsatib bergan. Ayniqsa, "Istiqlol va ma'naviyat", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida", "Barkamol avlod orzusi" kabi asarlarida jamiyatning ma'naviy jihatdan yangilanishi va rivojlanishi, tarbiya masalalari, ijtimoiy tarbiyaning asosiy negizlari bayon etilgan.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil tarzda izohlanib kelindi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliylikiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta'lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o'rganadi. SHaxsga kasb-hunar o'rgatish, kishining ma'naviy va g'oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya o'quvchilar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta'sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. SHuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin. Dunyo tabiyashunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab berdi.

Tarbiya va tarbiyaviy ishlar har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahasiyat kab etadi, Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha

shug'ullanmagan g'alq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimi bo'lishini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil izohlandi. SHuning uchun ham turli sinf va ijtimoiy tabaqalarning tarbiyasi o'zgacha bo'ladi va bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash hukmronlik qilgan. Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyaning sinfiy xarakterga ega emasligi isbotlanadi. Chunki chindan ham bunyodkorlik va vayronkorlikning mohiyati har qanday ijtimoiy sinf vakili uchun ham bir xildadir. Ijtimoiy tarbiya maxsus muassasalar tamonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Xalqning o'zi yaratgan tarbiyachilik sa'natiga va boy merosiga asoslanishi ijobiy ahamiyatni kasb etadi. Tarbiya jarayonida ijtimoiy tarbiya bilan birgalikda oila tarbiyasining uzviyligi va ustivorligi muhim hisoblanadi.

Ta'lim muassalaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonining samaradorlik darajasi ko'p jihatdan tarbiyaviy ishlar tizimining tashkil etilishiga bog'liq. Tarbiyaviy ishlar tizimi mazmunan boy bo'lishi, umumiy maqsad va o'quvchilar imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bevosita mamlakat hayoti, xalq tarbiya tizimi bilan mustahkam bog'langandir.

Tarbiya jarayoni va tarbiya ishlarini olib borish murakkab bo'lgan bir butun jarayondir, binobarin, bola shaxsining har tamonlama rivojlanib borishida turli xil sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassalarining vazifasi tarbiyaviy ishlar tizimini to'g'ri tashkil etib va ba'zi sharoitlarning rolini faollashtirib bola shaxsini kamol topishini ta'minlashdir.

Har qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning gigienik qoidalariga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Ko'rinib turibdiki, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani gigiena fani bilan ham bog'langan.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning ahloqiy sifatlari tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ahloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur. Ahloq normalari va ahloqshunoslik bilan etika fani shug'ullanadi. SHunday ekan, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani etika bilan ham uzviy bog'liqdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mazmun mohiyati nimadan iborat?
3. Tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalarinimalardan iborat?
5. Tarbiya metodlarini aytib bering.
6. Tarbiya metodlari qanday turlarga bo'linadi?
7. Tarbiyaviy ishlarning samaradorlik darajasi deganda nimani tushunasiz ?
8. Ijtimoiy tarbiyani izohlab bering.

9. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini izohlab bering.

2- Mavzu: Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar tizimida guruh rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi.

2.1. Guruh rahbari faoliyatini ilmiy va metodologik asosda tashkil qilinishi.

2.2. Guruh rahbari ishining asosiy qismlari.

2.3. O'quvchilar sifatini oshirish hamda ularni tartib intizomini mustahkamlash.

2.4. Tarbiyaviy ish faoliyatini tashkil etish.

Tayanch tushunchalar: pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat, guruh rahbari ish faoliyati, faoliyatning tarkibiy qismlari, o'quvchilar intizomi, faoliyatni tashkil etish.

2.1. Guruh rahbari faoliyatini ilmiy va metodologik asosda tashkil qilinishi.

Hozirgi davr kollej va uydagi o'quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo'ymoqda. Kollej yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, g'oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirish, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilish, mehnatiga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda gurux rahbari muhim rol o'ynaydi. Chunki, u bir gurux sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Gurux rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan gurux dagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz emas, shu gurux da dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etadi va gurux jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini o'stirish har bir o'quvchining individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish gurux rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.

3. Gurux rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning yuqori darsda

o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishida voqif bo'lib turadi. Orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Gurux dagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi, ular ishtirokida gurux jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, kollej miqiyosida uyushtirilayochtan muhim tadbirlarda o'z gurux ining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Gurux o'quvchilarining ota-onalari, o'quv kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqaga o'rnatadi.

6. Gurux rahbari shu gurux da dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan kollej o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Gurux rahbari o'z gurux idagi turli hujjatlarini; gurux jurnali, o'quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish gurux rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Gurux rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin, gurux rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o'ynaydi.

2.2.Guruh rahbari ishining asosiy qismlari.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiyligining darajasiga bog'liq. Buning uchun gurux rahbari fan yangiliklarini muntazam, egallab borishi bilan o'zining bilimini, ongini oshiradi.

Gurux rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Gurux rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Gurux rahbari uchun malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlarini, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlarini bilan ham ta'sir o'gkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobiliyati juda ko'p sifatlarini: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz, muhabbat muomala nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat sipolik va vazminlik kabi fazilatlarining bo'lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo'shimcha ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi gurux rahbarining asosiy qurolidir.

Gurux rahbarlaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmazlik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z muomolasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, gurux rahbarining o'zi bolalarni tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy barkamollikka mos bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pchiligiga asogiy sabab, bolaning oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi harakterida hamisha ham namoyon bo'lavermasligidadir.

Gurux rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqta u kommunikativ qobilyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan voqea va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishni sababiga qarab hukm ham chiqarishni, ijod qilish qobilyatiga ega bo'lishi kerak.; Gurux rahbari kollej dagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatining o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo'lmaydi. SHu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydp. Gurux rahbari pedagoglar, ota onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirish, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazish va ayni vaqtda o'zining o'rnini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar gurux rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Gurux rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularni fikrlash qobilyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan gurux larda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur.

Ayrim kollej larda yuqori o'zlashtirishga erishishga o'quv, didaktik masala sifatida kollej da ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

2.3.O'quvchilar sifatini oshirish hamda ularni tartib intizomini mustahkamlash.

Kollejda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar sistemasi to'g'ri va bevosita gurux da o'zlashtirishni ko'tarishga ta'sir etadi. Gurux rahbari o'qituvchilar bilan hamkorlikda bolalarni o'qishga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'quvchilarning o'qishlarini nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi va o'z gurux idagi o'quvchilar bilan birgalikda gurux da o'quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Yuqori gurux larda yuqori o'zlashtirish uchun ko'rish susaymaydi, aksincha u yana ko'proq ahamiyat kasb etib boradi.

1. O'quv mehnatiga ongli munosabatda va unga ma'lumot bilan yondashish hissini tarbiyalash bilimning sifatli bo'lishi bolaning o'qishga bo'lgan intilishiga qiziqishiga ularning harakatchangligiga, diqqatiga faoliyatiga tashabbuskorligiga, mustaqilligiga bog'liqdir. Bunday sifatlarni o'quvchilarda shakllantirishni ularga

o'quv mehnatining ijodiy ahamiyati tushuntirish va o'quv mashg'ulotlariga mas'uliyat bilan yondashish o'quvchilardan talab etish gurux rahbarining faoliyatiga muhim o'rin egallaydi. Gurux rahbari ular oldida o'qish bolalarini ochib berishga ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lanish o'qish bilan hayot o'rtasidagi mehnat faoliyati o'rtasidagi aloqali ko'rsatish, vatanni himoya qilish hissini tarbiyalash orqali erishiladi.

2. Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uyg'otish.

Bola bilimga qiziqmay turib, o'qishga intilmay turib, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Birinchi navbatda qiyinchilik bilan o'zlashtirilgan fanlariga nisbatan bolaning qiziqishini uyg'otish kerak. Boladagi o'qish, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o'qishidagi qiyinchiliklarni yengishga, bilim faoliyatini oshirishga qiziquvchanlik va mustaqilligini kamol topishiga olib keladi.

3. O'quv mehnati madaniyatini oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat, o'quv mehnatini sistemali va rejali olib borish iqtidorli bolalarda shakllanadigan kelib chiqadi.

2.4.Tarbiyaviy ish faoliyatini tashkil etish.

Gurux rahbarining va o'qituvchining asosiy vazifasi har bir o'quvchining fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa bolalarda o'qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash uy vazifalarini bajarishda rioya qilishni olgan bilimlarini, amalda qo'llash kabi bilim olish uchun zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarning aqliy va jismoniy taraqqiy etishga madaniyatli bo'lib harakat qilish va hamisha bu haqda gamxo'rlik qilish lozim.

4. O'quvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish.

O'quv mehnati bilan dam olishni to'g'ri tashkil etish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchilar rejimga itoat etishlarini o'qituvchi, gurux rahbari va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. SHu yul bilan ularni muvaffaqiyatli o'qishga, o'quv mehnatida saramjonlikka o'rgatish mumkin.

5. O'qish jarayonida o'rtoqlariga yordam berishni uyushtirish.

O'rtoqlariga o'zaro yordam, gurux da ulgurmovchilikni, ikki yillikni va kollej ni tashlab ketish hollarining oldini olishga yordam beradi. SHu bilan birga gurux da o'rtoqlik do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishiga olib keladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Guruh rahbari faoliyatini ilmiy va metodologik asosda tashkil qilinishi nima?
2. Guruh rahbari ishining asosiy qismlarini gapirib bering .
3. O'quvchilar sifatini oshirish hamda ularni tartib intizomini mustahkamlash ishlari qanday bosqichlardan iborat?
4. Tarbiyaviy ish faoliyatini tashkil etish metodikasini izohlang..

3- Mavzu: Guruh rahbarining tarbiyaviy ish faoliyati samaradorligini oshirish shart-sharoitlari.

- 3.1. Guruh rahbarining obro'si, odobi, yuksak ongligigi.
- 3.2. Tashkilotchilik malakasining mavjudligi.
- 3.3. O'quvchilarga tarbiya berish metodlari va usullarining xilma-xilligi.
- 3.4. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash. O'quvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatish.

Tayanch tushunchalar: Komil inson, mutafakkirlar, shaxs, uzluksiz ta'lim, pokiza, hulq-atvor, tarbiya faoliyat o'z-o'zini tarbiyalash, qadriyatlar, g'oya, tarbiya vositalari, tushuntirish.

3.1. Guruh rahbarining obro'si, odobi, yuksak ongligigi.

Gurux rahbari kollej o'qituvchilar jamoasi va pedagogika kengashining a'zosi. Gurux rahbarining burchi juda keng va ko'p tomonlamadir.

Gurux rahbari ishining asosiy qismi o'quvchilarni o'rganish. O'quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib intizomini mustahkamlash. Darsdan va gurux dan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish. O'quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ishlar ham gurux rahbarining asosiy vazifalaridan biridir.

O'quvchilar jamoasi – gurux rahbarining tayanchi. O'quvchilarni tarbiyalashda gurux jamoasidagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega. Ularni bir-biriga ko'rsatadigan o'rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini hosil qiladi.

Gurux rahbari bolalarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul hrakat qilishni o'rgatishi lozim.

Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, ahloq-odob talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon kollej larining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, kollej dorlar va ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jaaryonini sevishi kerak deydi. O'ziga xos o'quvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. SHogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga o'zlik qiladi, muallim esa bir nechta bola-gurux jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda gurux rahbari ko'p mashaqqatlarga duch keladi. SHuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. SHogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Xak yulida senga bir harf o'qitish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

3.2.Tashkilotchilik malakasining mavjudligi.

Gurux rahbari o'quvchilarni ma'naviy - ahloqiy tarbiyalar ekan, u o'z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- gurux rahbari o'quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.

- gurux rahbari bolalarga ahloqiy normalarni o'rgatishi kerak.

- gerdayishi, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi ahloqiga yod sifatlardir.

- xalq nazarida olim hisoblanadigan o'qituvchilar yomon ishlardan, fisku-fasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.

Gurux rahbarining ota-onalar bilan to'g'ri muomila qila olishi murakkab, nozik ish. CHunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqqli matbuot, televidinie, radio orqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. SHunday vaziyatlar ham bo'ladiki, o'g'il yoki qiz bola kollej da o'zboshimchalik qiladi, lekin oilada xushyor va gapga quloq soladi, yoki aksincha. Oilada muomalasi qo'pol, o'zboshimcha, kollej da esa o'zini xushmuamola, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to'g'ri javobni topish amri mahol. CHunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Demak, gurux rahbari va ota-onalarning maqsadlari bir hil bo'lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo'lmaydi.

Gurux rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtni to'ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to'la qimmatli tarbiya yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi

va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy ahloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Yoshlarni ma'naviy - ahloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang'ich kollej muhim o'rin egallaydi.

Ma'naviy ahloqiy tarbiya-ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, ahloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Gurux rahbari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning quyidagi vazifalarini hal etishi kerak.

1) Tug'ilib o'sgan joyiga, O'zbekiston Respublikasiga yuksak muhabbat tuyg'ularini, uning tabiati va kishilar haqida, Vatanning himoyachilari va mehnat qahramonlari to'g'risida, ota-bobolarimiz, ularni dunyo tsivilizitsiyasiga qo'shgan hissalarini to'g'risida ko'proq bilishga intilishni tarbiyalash.

2) O'quvchilarda Vatanimizning boy tarixi, shuningdek boshqa mamlakatlar to'g'risida, tinchlik uchun kurash haqida chet ellardagi bolalar tashkilotlari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish.

3) Bolalarda o'rtoqlik tuyg'usini, boshqalarga yordam ko'rsatish ishtiyoqini, umumiy foyda yo'lida birgalikda faoliyat ko'rsatishga intilishni tarkib toptirish. Bolalar o'rtasida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rag'batlantirish, sohta o'rtoqlik ko'rinishlariga qarshi kurash olib borish lozim.

4) O'z so'zi va va'dasi uchun, o'qituvchi va kollektiv topshiriqlarining bajarilishi uchun ma'suliyat tuyg'usini tarbiyalash.

5) Bolalarda kishilarga to'g'ri munosabatni, keksalar, bemorlar, invalidlarga nisbatan e'tibor va g'amhurlikni, xushfe'l va betartib, kamtar va haqo'y bulishini tarbiyalash.

3.3.O'quvchilarga tarbiya berish metodlari va usullarining xilma-xilligi.

O'quvchilarni barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatiga adolatli baho berishga o'rgatishi hamda o'z kuch g'ayratini o'quvchilarda nopoklik, adolatsizlik, kishilarga raxm-shafqatsiz bo'lishga nisbatan salbiy munosabatni tarkib topshtirishga qaratishi kerak.

O'quvchilarni tarbiyalash o'qitishga qaraganda ancha qiyin degan fikrni o'qituvchilar orasida tez-tez eshitish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda, o'zining xususiyatlariga ega. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashni barcha protsesslarini bilim berish va o'rgatish bilan birga qamrab oladi. Bunday ikkita o'zaro bog'langan tomon: hyotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish protsesslari ajralib turadi.

Hayotni bilish ma'lumot olishning asosiy funksiyasi, unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish tarbiyaning asosi, vazifasini tashkil etadi.

Gurux rahbari faqat ta'lim-tarbiyaning birligini emas, balki ularning xususiyatlarini ham ko'ra bilishi muhimdir. Kollej dagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan olib boriladigan ulkan ishining bir qismi xolos, u bolaning ilgarigi tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, undagi barcha yaxshi sifatlarni o'stirib, noto'g'ri tasavvurlar, odatlarni tuzatib borishi va bo'lajak sifatga zamin tayyorlashi kerak. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya o'quvchi kollej ni tamomlagandan keyin ham tugallanmaydi, u butun umr bo'yi davom etadi.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiya-ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning forma va metodlariga ega bo'lib, maxsus ravishda o'rganilishi lozim.

O'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim sharti sifatida ularning o'quv va o'qishdan tashqi xilma-xil faoliyatlarining birligi to'g'risidagi tushunchalar bilan bog'liqdir.

O'quv va ma'naviy-ahloqiy tarbiya faoliyati bir-birlarini to'ldirish lozim: Gurux rahbari tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir sistemaning bo'lishi mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish protsessiga rahbarlik qilishni takozo etadi.

Biror maqsadga qaratilgan tarbiya protsessida tarbiyalanuvchilarning jismoniy hamda ma'naviy-ahloqiy yetukligi o'sib borishiga qarab ularning mustaqilligi va ijodiy aktivligi ortib boradi. O'quvchilar kollektivining ongliligi ortib borishi bilan tarbiyachining vazifalari o'zgaradi. Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topadi.

3.4. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash.

O'quvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatish.

Rag'batlantirish metodlari - o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga ma'suliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilma xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi. Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketma ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida manmanlik, xudbinlik

sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Jazo berish metodlari — bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'llab quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham xilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatdan chetlatish va boshqalar kiradi. Jazo berish ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning aybiga, salbiy xattiharakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish chog'ida salbiy xattiharakatning sabablari uning jamoaga yetkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim. Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o'quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak. Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtni, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular birbiridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi. O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. CHunonchi, ko'rgazmali o'quv qurollari, badiiy-ilmiiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televidenie, kompyuter, magnitofon, slayd, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, histuyg'u, xulqatvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyati uyushtiriladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlod-ni. har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'hshash jihatlariga ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlar ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

4-Mavzu: Pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro

muomala madaniyati

Reja:

- 4.1. Tarbiya pedagogik kategoriya sifatida.
- 4.2. Muloqot tarbiya vositasi sifatida, muloqotning ijtimoiy asoslari.
- 4.3. Pedagogik muloqot vazifalarini amalga oshirish vositalari.
- 4.4. Bugungi kun pedagoglarining o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi

Tayanch so'zlar: Komil inson, milliy model, shaxs, davlat, jamiyat, uzluksiz ta'lim, pokiza, hulq-atvor, tarbiya faoliyat o'z-o'zini tarbiyalash qadriyatlar g'oya tarbiya vositalari tushuntirish va hokazo.

4.1. Tarbiya - pedagogik kategoriya sifatida.

Ma'lumki, tarbiya tushunchasi o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va ma'suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. SHu ma'noda tarbiya deb tarbiyachi o'zi xoxlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishga aytiladi. Tarbiya o'quvchi tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. SHu tufayli tarbiya so'zi ko'p vaqtlarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi. Tarbiya ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonining mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'lig' jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqazo etmokda.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi Ta'lim va tarbiyaning milliy shakllarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, kollezhshunoslik bilan uzviy bog'langandir.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Xozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning

aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-kuvvatlari mustahkamlanadi.

O'quvchi kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi: bu o'zlashtirishda uning ongli xarakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar. O'quvchining yoshi ulg'aygani sari bu faollik tobora ko'proq mustaqil xususiyatlarga ega bo'lib boradi; tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o'z-o'zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan xodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradilar.

Xamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari vamutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Xamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb biladilar.

4.2.Muloqot tarbiya vositasi sifatida, muloqotning ijtimoiy asoslari.

Xar bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy qobiliyati rivojlanganligi darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farxlanadi.

Odamning ijtimoiy mavjudod sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy –iqtisodiy hayot va tarbiya kerak.

SHaxsing kamolot topishi va uning hulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. CHunki uning hulqiga, munosabatlariga, aloqalariga yoshi, bilishi, odatlari, tajribasi va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi.

Pedagogika shaxsning kamolga etishini murakkab ziddiyatli jarayon deb biladi. SHaxsning kamolga etishida nasl - irsiyat, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

SHaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun qoidalarga asosan kamol topadi. SHu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligidan baxramand bo'ladi. Moddiy va ma'naviy boylklarni yaratishda ishtrok etadi. Agar shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligi yuksak bo'lsa, u shaxsga shu qadar katta ta'sir ko'rsatadi.

R.Maxmudov Koshifiyning ahloqiy g'oyalariga insonni kamolga etkazish maqsadida uni tarkib topdirish uchun zarur bo'lgan hislatlarni unga bo'lib turkumlashtiradi.

1. Komil inson etuk ahloqli haqidagi fikrlarni an'anaga ko'ra buyuk donishmandlar - xakimlar, sarkardalar, shoxlar tilidan bayon etadi va ularni adolatli, dono, oqil va kamtar inson sifatida ta'riflab, o'zining komil inson haqidagi kontsepsiyasini ilgari suradi.

2. Koshifiy faqat podsholarnigina emas, xar bir oddiy insonda ham eng oliyjanob hislatlar tarkib topishini istaydi.

3. U o'zining ijtimoiy ahloqiy idealini yuzaga chiqarishda asosiy vosita deb ilm ma'rifat va ahloqiy tarbiyani tushunadi.

4. Koshifiy odobli insonni ahloqli deb tushunadi. Inson faqat odobli, sahovatli, to'g'ri, halol, pok bo'lgandagina xaqiqiy inson bo'lishi mumkin deydi.

5. Voiz Koshifiy insonparvarlik va xalollikni eng yuksak insoniy fazilatlardan deb biladi.

6. Koshifiy insonning eng yuksak hulqatvor egasi bo'lishi uchun un qoidaga amal qilish zarurligini ilgari suradi.

a) elga teskari ish qilmaslik;

b) o'z nafsiga insof tilash;

v) kishi aybini ochmaslik;

g) kishilarda uchraydigan yomon xulq atvorni yaxshilikka tomon burish;

d) o'z aybiga iqrar bo'lib, uzr so'ragan kishining uzrini qabul qilish;

e) och-yupunlarning xojatini chiqarish;

yo) inson uchun mashaqqat tortish;

j) o'z nafsini tiyish;

z) xalqqa toza yuz bilan ko'rinish;

i) kishilarga yaxshi so'z aytish;

7. Kishilarni inoqlikka, tinch-totuv yashashga chaqirish.

8. Xalqlar o'rtasidagi do'stlikni targ'ib etadi.

9. Kasb-hunar, ilm-ma'rifatni egallashga chaqiradi.

10. Ilmli kishilarning jamiyatda tutgan o'rnini ta'kidlab, olimlarni, umuman ilm ahlini e'zozlash kerak, deydi.

Hammamizga ma'lumki o'zbek oilasidagi tarbiyada islom dininig xissasi katta. Islom dininig boshqa dinlardan farqli tomonlari bo'lgani kabi, o'zbek oilasida tarbiya o'zining sezish qiyin bo'lgan xususiyatlari mavjud.

Islom aqidalarining, uning ahloqiy-huquqiy tamoyillarining asosiy manbai «Kur'on»dir.

G'arb va SHarq tadqiqotchilari «Qur'on»ni jahon madaniyatining eng nodir asarlaridan deb xisoblaydilar.

Islom odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi.

«Kur'on»da insonda imonning o'ziga xos mezoni xisoblangan sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan.

«Kur'oni Karimda» ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-ona kiritiladi va ota-ona haqqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23-24-oyatlarida ota-onaga yaxshilik - Alloh taolaga ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-ona qanday inson bo'lishidan qat'i nazar, farzand ularga nisbatan xurmat saqlashi, ularning so'zlarini qaytarmasligi; ota-ona ham o'quvchini dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, haqqiga doimo tayer turish ta'kidlanadi.

Mazkur oyatlarda eng oliy insoniy muomala qoidalari sifatida quyidagilar belgilangan:

-ota-ona xatti-harakatining farzandga malol kelmasligi;

- ota-ona bilan g'aplashganda ularga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
- ota-onaga rahm-shavqat qilish;
- ularning haqqiga duo qilish.

SHuningdek, tarbiya haqida ko'pgina faylasuflarning yozib qoldirgan asarlari mavjud.

quyida shu faylasuflarning asarlaridan parchalar keltirilgan.

O'quvchilar agarda ota-onalariga muhabbat bilan xizmat qilsalar, o'z o'quvchilaridan ham xizmat ko'rarlar. Agar ularning hurmatini o'rniga qo'ymasalar, o'z o'quvchilaridan ham hurmat ko'rmaslar. Bu esa, tajribadan ko'rilgan bir ishdir.

Ota-ona bu dunyodan o'tganlarida ularga xayri duo qilmoq, sadaqa-yu ehson va boshqa yaxshi ishlar bilan ruhlarini shodlantirmoq o'quvchilarning ulug' burchlaridandir. Mollari qolgan bo'lsa maslahat bilan «Qur'on»da taqsimlanishiga ko'ra bo'lmoq kerak.

Ota-onalari vafot etganda meros bo'lmoq to'g'risida tug'ishgan-u boshqa yaqinlari bilan da'volashib qarindoshlik iplarini uzuvchi, bir-biri haqida yomon

so'zu axmoqona gumonlar qilib, vaxshiy jonivorlar qilmagan yovuzliklar natijasida mollarning ko'p qismini da'vo vakillariga berib, molni nobud qiluvchi o'quvchilar xam bular. Bunday o'quvchilar ota-onalariga nisbatan bo'lgan vazifalarini oyoq osti qiluvchilardir. Ular ota-ona nomini xor qilib o'zlari ham baxtsiz bo'lurlar.

Oilaning sharofatini, ota-onaning xurmatini joyiga qo'yishni niyat qiluvchilar insof yo'lidan chiqmasliklari zarur. Insofli kimsa jonini fido etar, ammo dunyosi uchun qarindoshidan voz kechmas va boshqalarni ham xurmatsiz etmas.

Qiz o'quvchilar quyidagi adablarga ko'proq rioyat etishlari kerak: ota-ona xuzurida adab uzra o'tirmoq, qo'l, oyoq, yuz, quloq, burun, og'iz kabi a'zolarni, kiyimlarini pok tutmoq va tishlarini xar vaqt misvok (tish tozalagich) bilan yuvmoq, sochni xar kuni taramoq va boshqa yaxshi amallar».

Bundan tashqari mazkur asarda yaxshi tarbiya va yomon tarbiya xaq-qida quyidagilar bayon etilgan:

«O'quvchi besh-olti yoshidan oshganida so'zlashishga, ko'ziga ko'ringan aqli etgan narsalarni so'rashga va ularni sinchiklab tekshirishishga boshlaydi. YOsh o'quvchilarning xar narsani kuzatib, aslini bilishga intilishlari ko'pincha go'zal va kerakli narsalar xaqida bo'ladi. YAqin qarindoshlarimiz, do'st mehmonlarimiz uzoq bir safardan kelganlarida hol ahvolimizni juda mexribonlik bilan so'raganlari kabi, yosh o'quvchilarning bu xil xar narsani so'rashlari bularga qaraganda ham ma'noli bo'lur.

Nafas oladigan havo, ichadigan suvimizning foydalarini, eydigan non, kiygan kiyimlarimizning qanday amallar bilan vujudga kelganini, qoru-muz, yomg'iru qirov, shudringu o'simliklar, yashinu kamalaklarning nimadan hosil bo'lganini, xayvonlarning zararli va foydalilarini, qog'ozni nimadan yasalganini, kitoblar qanday ravishda bosilib dunyoga tarqalganini, kechayu kunduzlarning uzayib, qisqarganini, kema-yu poezdlarning, aloqa vositalariyu telegrafning qanday qilib odamlarga etib kelishini, shamolu bulutlarning yurishlarini va boshqa shu kabi hollarni o'quvchilarga o'yin orasida ham, o'yin o'ynayotgan paytida ham o'rgatish mumkin. Agarda bu narsalarni o'z onalaridan o'rgansalar, tamom ko'ngillarida qoladi va shunday narsalarni bilishga muhabbatlari ortadi.

Tarbiya ilmini biluvchi onalar fazilatlarga muxabbat bilan karamoq, razolatlardan nafrat qilmoq yo'llarini o'quvchilarning zehnlariга soladilar. Buyuk odamlarning kamolotlarini bayon lurlar, odil hokimlar, imonli savdogarlar hamda zoxod, hunarmandlar, dindor kasbchilarni suyukli qilib ko'rsaturlar, xastalik va salomatlik sabablarini, majlis-u suxbat adablarini anglatadilar. Xayvonlar og'izlaridan so'zlatilmish hikoyatlar tarbiya ilmini biluvchi xotunlar uchun bitmas tunganmas xazinadir. Ular bu hikoyatlarni so'zlaydilar, ammo shu hikoyatlar vositasida fazilat va razolatni butunlay o'quvchilarning ko'ngillariga singdirib, avvalgisiga muhabbat qo'yish, so'nggisidan nafrat qilish yo'llarini aniq ko'rsatadilar» - deydi.

O'quvchi tarbiyasi xifz-i sixxatu ilm-i ahloq ilm-i ruhu shariat qoidalaridan ko'p narsalar bilishga va ko'p tajribalar xosil qilishga zarurat bo'lganidan qisqacha bo'lsa ham bu narsalar haqida bir qadar ma'lumot berish va shu ma'lumotni kundan kunga orttirib borishga tirishmoqlik xotunlar zimmasidagi vazifalardandir. O'quvchini vaqtli uxlatish zaruratga qarab yuvintirish, kiyimlari va tanasini pok tutish, go'zal hulqlarga odatlantirish, atak-chechak qilishidan boshlab, to tili chiqqanga qadar alohida e'tibor berish lozim.

4.3.Pedagogik muloqot vazifalarini amalga oshirish vositalari.

O'quvchi tarbiyasi xifz-i sixxatu ilm-i axloq ilm-i ruhu shariat qoidalaridan ko'p narsalar bilishga va ko'p tajribalar hosil qilishga zarurat bo'lganidan qisqacha bo'lsa ham bu narsalar haqida bir qadar ma'lumot berish va shu ma'lumotni kundan kunga orttirib borishga tirishmoqlik xotunlar zimmasidagi vazifalardandir. O'quvchini vaqtli uxlatish, zaruratga qarab yuvintirish .kiyimlari va tanasini pok tutish, go'zal xulqlarga odatlantirish, atak-chechak qilishidan boshlab, to tili chiqqanga qadar alohida e'tibor berish lozim.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni - jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi, shuning uchun ham xar bir inson uchun uning ahamiyati katta.

Ta'lim jarayonida faqat induktiv analiz, ya'ni ayrim-ayrim olingan bilimlarning umumlashgan bilimlarga aylanishi yoki, boshqacha qilib aytganda, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga o'tishi printsipida kechishi bilan cheklanmay, xususiy o'ziga xosliklarni deduktiv ravishda ajratib chiqarish jarayonini to'laligicha ko'rsatkichlari bilan birgalikda ko'rish, xollari ham uchraydi.

O'quvchilar amalga oshiradigan ta'lim jarayonini ikki tomonlama tasavvur etish mumkin. Birinchidan, dars davomida o'qituvchi axborot vositasi sifatida ta'lim shaklini amalga oshiradi. Ikkinchidan, o'quvchilarning dars paytida va darsdan tashqarida amlga oshiradigan o'quv ishlari tarzida yuz beradi.

Ta'lim jarayoni bevosita o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv vazifalarini oydinlashtiradilar, o'quv faoliyati davomida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, nazorat natijariga asoslanib, o'quv faoliyatlarini kuchlari etganicha to'g'rilaydilar, o'quv faoliyatlari natijalarini o'zlari va o'quvchilararo tahlil etadilar.

Ta'lim jarayonida o'qituvchining raxbarlik, ta'lim berish faoliyati bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatlari chambarchas bog'lanib ketadi. Agar o'qituvchi o'quv xarakterlarini nazorat qilish bilan biga o'z faoliyatini xam uning ta'sirida o'z xarakterlarini to'g'rilab borishadi. Faqat o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatlari mana shunday uyg'unlashgandagina ta'lim jarayoni yaklid, o'qituvchi

butun vujudi bilan faoliyat ko'rsatsayu, o'quvchilar o'z ortidan ergashtira olmasa, ta'lim jarayonining vazifalari amalga oshmay qoladi.

4.4. Bugungi kun pedagoglarining o'quvchilar bilan o'zaro muomalasi

O'qituvchi go'zallik soxibidir. Bu oliyjanob, sharaflil kasb egalari haqida ne-ne Aziz odamlar qo'llariga kalam olib jo'shqin hislarini, eng yaxshi ezgu tilaklarini oq qog'ozlarga bitmagan deysiz. hayot abdiy. Ammo u yosh avlod bilan barhayot. Avlod bor ekan, unga ta'lim tarbiya beradigan mehri daryo o'qituvchilar ham abdiy barhayot yashayveradi. O'qituvchi bamisoli bog'bon, u yoshlik gulshanining raxnamosi. U o'z bog'idagi mevalarini rang-rang va sog'lom bo'lishini umid qiladi. Kasblar ichida alohida faxr va iftixor bilan tarona etiladigan kasb, o'qituvchilik kasbidir. CHunki, biror soxa yo'qki, unga o'qituvchining bevosita va bilvosita qo'shgan hissasi bo'lmasin. O'qituvchining bilimidan, aql zakovatidan, mexr-muhabbatidan baxramand bo'lmagan kishi yo'q.

«Jahonda bo'lmasa muallim agar, hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar», - deb yozadi, SHarq mutafakkirlaridan biri Abduraxmon Jomiy. SHu o'rinda quyidagi o'qituvchi hikmatlari alohida ahamiyatga ega.

Haqiqiy ustozlakning mohiyati ulug' hayot taqazo etayotgan, ahloqiy fazilatlarini yosh avlodning ongiga, e'tiqodiga, eng muhimi, kundalik xatti-xarakatiga aylantira bilishidadir. Iqtisodchi pedagog talaba yonida xar doim katta ma'suliyat sezmoq'i lozim. Uning talaba qoshidagi obro'si ana shu hissiyot bilan mutanosibdir. Iste'dodli iqtisodchi tarbiyachi tarbiyalanuvchini hayotdagi xilma-xil va murakkab vaziyatlarga yuzma-yuz qo'yadi va maqbul echim topishga o'rgatadi.

Tarbiya ob'ektizm - o'quvchini aktiv sub'ektga aylantira olishimiz kerak. CHunki ta'lim-tarbiya ikki tomonlama jarayondir. Dunyo xalqlarining ilg'or pedogagik tajribalarini kuzatmay va o'rganmay, o'zining bilim doirasi bilan chegaralanib qolgan o'qituvchi fan-texnika yutuqlaridan bebaxra qolgan kosibni eslatadi.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, ahloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unga qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. SHu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir.

Odob - odobning chiki tuyiq ko'nikmaga aylangan ko'rinishi.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq - odob normalari majmui.

Ma'naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. SHu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani o'zida gavdalandirgan iqtisodiy ta'lim pedagogikasi fani bizga, ya'ni O'zbekistonga mustaqilligimizning birinchi yillaridan kirib keldi. CHunki ko'zlanayotgan tajribalar iqtisodiy ta'lim pedagogikasining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy ta'lim pedagogikasining predmeti – iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiya pedagogikasining maqsadi xar tomonlama rivojlangan barkamol shaxsiy tarbiyalashdir. Iqtisodiyot ta'lim pedagogikasi yoki iqtisodiy pedagogika iqtisodiy muammolarni o'qitish, iqtisodiy tamoyillar bilan o'quvchilardan tanishtirish ularda iqtisodiy malaka va iqtisodiy ko'nikmalarni hosil qilishni o'rganadi.

Iqtisodiy ta'lim pedagogikasining asosiy tushunchalari iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy ma'lumotdir.

Iqtisodiy ta'lim - ma'lum maxsus tayyorlangan kishilar raxbarligida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, ya'ni iqtisodiy iqtisodiyotdan ma'lum soxasi xaqidagi bilimlarini o'qitishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiya - shaxsdan iqtisodiy asoslari bilan tanishtirish. Tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy xisob-kitob va shu kabi haqida fikr lay olish kabi qobiliyatni kamol toptirishdir. Iqtisodiy ta'lim pedagogikasining manbalari asosi «Allomalarimizning iqtisodiy merosi» xisoblanadi. Jumladan, Qur'oni Karim xadislarida iqtisodiy g'oyalar, Farobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa allomalarimiz yaratgan g'oyalar va fikrlar va shu bilan birga bozor iqtisodiyoti davri vujudga kelayotgan zamonaviy bilimlar ham iqtisodiy ta'lim pedagogikasining manbai, o'rganish ob'ekti bo'la oladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tarbiya pedagogik kategoriya sifatida.
2. Muloqot tarbiya vositasi sifatida, muloqotning ijtimoiy asoslari.
3. Pedagogik muloqot vazifalarini amalga oshirish vositalari.
4. Pedagogik muloqot turlari.
5. Muloqot vositalari to'g'risida tushuncha.
6. Pedagogik muloqot vazifalarini to'la tushuntirib bering.

5- Mavzu: Guruh rahbarining o'quvchilarni o'rganish metodikasi.

5.1.O'quvchilarga qo'yiladigan umumiy talablar.

5.2.O'quvchilarni o'rganishning usul va yo'riqlari.

5.3.O'quvchilarni o'rganish va ularga individual yondashishning zarur shartlari.

5.4. O'quvchilarni o'rganishga qo'yiladigan asosiy talablar.

5.5.O'quvchilarni o'rganishni rejali va muntazam tarzda olib borish.

Tayanch tushunchalar: Maqsadga erishish,qiziqib mehnat qilish, komil inson, milliy model, shaxs, davlat, jamiyat, uzluksiz ta'lim, pokiza, hulq-atvor, tarbiya faoliyat o'z-o'zini tarbiyalash qadriyatlar g'oya tarbiya vositalari tushuntirish.

5.1.O'quvchilarga qo'yiladigan umumiy talablar.

Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazzundur. U o'zi rahbarlik qilayotgan guruh o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi o'quvchilar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni echadi. Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi.

Tarbiyaga kompleks yondoshishi biror o'quvchini ham e'tibordan qochirmaslik guruh rahbari uchun alohida masaladir. Tarbiyalash uchun guruh rahbari tarbiya ob'ekti bo'lgan o'quvchini yaxshi bilish, uni yaxlit idrok etishi kerak. Ko'pchilik guruh rahbarlari o'quvchini darsda o'quvchi, musobaqada sprotchi sifatida, ya'ni har bir aniq ish sharoitidan kelib chiqib idrok etadi va shunga ko'ra muomola qiladi, o'quvchi shaxsining boshqa tomonlari esa hozircha hisobga olinmaydi. Ammo har bir o'quvchining o'z tajribasi, o'z emotsional madaniyat darajasi, qadrlaydigan narsalar, ehtiyotlari, talablari, umidlari, aloqalari, munosabatlari kabi butun bir dunyosi bor. Tarbiyada ana shular hisobga olinishi kerak. Guruh rahbari o'z o'quvchisining ichki dunyosini, kechinmalarini, hulqida vujudga kelayotgan holatlarning sababini, irodasini yaxshi bilsagina uning qalbiga yo'l topa oladi va o'quvchiga ta'sir etishining to'g'ri yo'lini aniqlaydi. Ana shunday sifatlarga e'tibor bergan guruh rahbari tarbiyada etakchi o'rinni egallaydi.

SHuni ham unitmaslik kerakki, o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g'oyat darajada ko'paydi: oila, keng jamoatchilik, radio, televideniya kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Guruh rahbarining o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir etishdagi etakchilik, birdamlik rolni tarbiyaviy ta'sirining bu qadar ko'p tarmoqlari orasida saqlab qolish g'oyat qiyinlashib boryapti. Ba'zan o'quvchiga tarbiyachidan ko'ra o'rtog'i, qo'shnisi, ko'chadagi do'stlari kuchliroq ta'sir etishi hollariga duch kelamiz. Ammo buning aksi bo'lgan taqdirdagina tarbiyada muvaffiqiyatga erishiladi. Bunga esa tarbiyachining nutqi nazari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, har bir o'quvchida ma'lum kurtaklar: yaxshilik va poklik bilan bir qatorda salbiy, aktivlik va passivlik sifatlari mavjud. U munosabatlarga e'tibori jihatidan ham har xil sifatlarga ega.

Agar tarbiyachi unga optimistik nuqtai nazardan yondashsa, o'quvchi yaxshilikka intilib, uning umidini oklaydi va aksincha o'quvchiga oldindan noshud, yalqov, tartibsiz deb qaralsa hamda, o'jarlik va terslik o'quvchining sifati hukum chiqarilsa u holda tarbiyalanuvchi o'zining xuddi shunday qilib ko'rsatadi. Natijada u bu borada ham tarbiyachining «umidini oqlaydi».

Guruh rahbari o'quvchilarni yaxshi bila olishi uchun ularni o'rganish darsda, darsdan tashqari vaqtlarda umuman o'quvchining hayoti o'tadigan barcha sharoitlarda amalga oshiriladi. O'quvchini o'rganish bilan guruh rahbari uning individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi.

O'quvchining individual xususiyati uning xulqiga, o'zlashtirishiga munosabatlariga jamoadagi o'rniga ta'sir etadi. SHu boisdan ham jamoadagi individlar tarbiyalanayotganda alohida o'quvchini unitish yaramaydi. CHunki, guruh rahbari ko'pgina tashkiliy ishlarni uyushtirishda kimga suyanish, kimga qanday vazifa yuklash, kimga mustaqillik berish va kimga muntazam yordam berish kerakligini faqat ularning individual xususiyatlarini yaxshi bilish tufayligina bexato aniqlaydi. Demak, individual munosabat o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir etishning eng samarali yo'lini topish imkoniyatini beradi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini ham o'rganishi kerak.

Guruh rahbari o'ziga berilgan guruhni qabul qilib olish bilan o'quvchilar haqida ko'pgina ma'lumotlarni aniqlaydi. Bu ma'lumotlar o'quvchining oilasidan o'qituvchilardan, o'rtoqlaridan olinadi va tarbiyaga yagona ta'sir birligi ham shu asosda vujudga keladi.

Mana shu o'rinda o'quvchilar ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga alohida e'tibor berish lozim. Bu uchlik markazida o'quvchi, ya'ni o'quvchi turadi, ta'lim tizimi va oila esa unga ikki tomondan ta'sir etadi. Ayni vaqtda o'quvchi ta'lim tizimi bilan oilasidagi aloqani ta'minlovchi vosita rolini ham bajaradi. Lekin uning ta'lim tizimi haqidagi oilaga etkazadigan ma'lumotlari hamisha ham haqiqatga to'g'ri kelavermaydi va u hatto kundalik orqali beriladigan axborotlarni ham o'ziga talqin etib boradi. Ko'pincha oila bilan ta'lim tizimi o'rtasida vujudga keladigan anglashinmovchilik ham mana shu tufayli ro'y beradi. O'quvchi kattalarning o'zi bilan muomola qilayotgan vaqtdagi pozitsiyasini solishtirib ko'rish orqali ma'lum xulosaga keladi va o'ziga hukum chiqaradi. Xuddi shu hol uning xulqida o'z aksini topadi va u bir gal o'qituvchining, boshqa vaqt ota-onasining tarbiyasini oladi. Xatto eng vijdonli o'quvchida ham bu holni ro'y berishi tabiiydir.

5.2.O'quvchilarni o'rganishning usul va yo'riqlari.

Guruh rahbari tarbiyaviy ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning o'quvchilar ichki dunyosiga chuqur singib kirishiga, ularning kechinmalari hamda xulq-atvorini tushunishiga bog'liqdir. O'quvchining nima bilan yashayotganligini, uning qiziqishi va mayillari qandayligini irodasining o'ziga xosligi hamda harakteri xususiyatlarini o'rganish deganimiz, uning qalbiga mumkin qadar ishonchli yo'l topish, unga tarbiyaviy ta'sir etishning hamda maqbul metodlaridan foydalanish demakdir.

Tarbiyachi o'quvchining individual xususiyatlarini yaxshi o'rgangach va tushungan taqdirdagina, bu o'quvchi shaxsini muvaffaqiyatli tarbiyalab etishtira oladi. O'quvchilarni o'rganish o'qituvchining, ayniqsa guruh rahbarining vazifasidir. U o'quvchilarni faqat darsdagima emas, balki guruhdan tashqi vaqtdan ularga tarbiya berish vaqtida ham, o'quvchilar uylariga borganda ham, har xil ekskursiyalar vaqtida ham o'rganadi.

Guruh rahbari guruhni qabul qilib olgandan keyin, uning birinchi ishi, odatda, o'quvchilarni o'rganishi bilan bog'liq bo'ladi.

Bu ish uning o'zi berkitilgan guruhdagi butun ish faoliyati mobaynida davom etadi va uning tarbiyaviy ishi sistemasida muhim bir tomonni tashkil etadi.

O'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning hulqlari va mayllarini, ular olgan tarbiya darajasini bilgan holda, ma'lum maqsadga qaratilgan va ta'sirchan reja tuzish oson bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchi shaxsning tarkib topishi va rivojlanishi bir tekis bormaydi. Guruh rahbarining mazkur o'quvchi to'g'risida kelgan belgilari bugunga kelib etarli bo'lmay qolishi mumkin.

To'g'ri, o'quvchilarni o'rganish ko'p vaqt va kuch talab etadi. Ammo keyinchalik bular hammasi katta natijalar beradi. Guruh rahbari o'quvchilarni, ularning xususiyatlarini bilgan holda, ular kamoloti jarayonini muvaffaqiyatli tarzda yo'lga solib etishish mumkin bo'ladi. O'quvchilarni o'rganishga boshqa o'quvchilar, etakchilar va ota-onalar jalb etiladi.

Bunda o'qituvchilar hamda guruh rahbarlari ishidagi munosiblikka rioya qilish juda muhimdir. O'quvchilarni o'rganishni natijalari bilan barcha o'qituvchilarni tanishtirib borish zarur. SHu bilan birga ularning har qaysi o'quvchi to'g'risida bilganlarini ham hisobga olish lozim. Bular o'quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga bir xilda talablar qo'yish va ularga bir xil muomola qilishga erishishga yordam beradi. O'quvchilarni o'rganish ularga individual yondashishining zarur shartidir. O'quvchilarni ularga ta'lim va tarbiya borish jarayonida har qaysi o'quvchiga individual yondashishga erishish maqsadida o'rganmoq lozim. O'quvchilar o'z harakteriga qiziqishi va mayliga ko'ra bir xil emas. Ulardan bir xillari bir muncha chaqqon, boshqa bir xillari esa sustkash, uquvsiz, ba'zi o'quvchilar jasur va shijoatkor, boshqa birlari esa uyatchan va tortinchoq bo'lishadi. Ba'zi bir o'quvchilar o'z tashkilotchiligi va qa'tiyiligi bilan ajralib tursa, boshqa birlarida esa bu xususiyatlar mavjud emas. Xullas, guruh bir biriga o'xshamagan, turli xususiyatdagi o'quvchilardan tashkil topgan bir gruppadir. Guruhda tashqi ko'rinish jihatidan bir-biriga o'xshash o'quvchilar bo'lmagani singari, o'z ichki xususiyatlari jihatidan bir biriga o'xshaydigan o'quvchilar ham bo'lmaydi. Ularning harakteri, qiziqishlari kayfiyatlari va xohishlari, ularning xulq-atvorlari sabablari, ko'nikma va malakalari, odatda, turlicha bo'ladi. Har qaysi o'quvchi o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan xususiyatga ega bo'ladi. U alohida shaxs sifatida kamol topib boradi.

Odatda guruh rahbari guruhdagi barcha o'quvchilarga nisbatan yagona tarbiyaviy vazifalar qo'yadi va hal etadi. Masalan, u o'zining barcha o'quvchilarini mehnatsevarlikka, bir jon bir tan bo'lishiga, haqqoniylikka o'rgatishga harakat qiladi. Ammo bu vazifalarning hal etish yo'llari, vosita va metodlari o'quvchilarning

individual xususiyatlariga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Ularning ba'zilarini o'z vaqtida rag'batlantirish, ba'zilariga buyurish hulq-atvor qoidalarini buzgan o'quvchilarni jazolash darkor. Binobarin, o'quvchilarga to'g'ri tarbiya bermoq uchun tarbiya jarayonida ularga individual yondashishni amalga oshirmoq kerak. Buniig uchun esa ularni chuqur va har tomonlama o'rganmoq zarur. Guruh rahbari o'z o'quvchilarini bilmasa, u o'quvchilarga yondashishda, pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini tanlashda katta xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

O'quvchilarga individual yondashishning amalga oshirishi tarbiya va ta'lim berish printsiplaridan biridir. Bu tamoyil o'quvchilar va guruh rahbarliklarining o'quv-tarbiyaviy ish tajribalaridan o'quvchilarni sevish va hurmat qilinishing nomoyon bo'lishi, ularning kamoloti to'g'risida kundalik g'amxo'rlik qilish asosida keng qo'llanadi.

5.3.O'quvchilarni o'rganish va ularga individual yondashishning zarur shartlari.

Tarbiyachi o'quvchilar jamoasini tarbiyalar ekan, hech qaysi o'quvchini nazardan soqit qoldirmasligi darkor. O'quvchilarning xulq-atvori tartib intizomi, o'zlashtirish ko'p jihatdan ularning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Ba'zi bir o'quvchi o'zining o'qishga bardoshsizligi tufayli darslarga ulgurmaydi, ikkinchi birining darsda yaxshi javob berishga o'z jur'atsizligi, tortinchoqligi halaqit beradi, yana birining yaxshi o'qishiga o'zlashtirilmaganligining sabablarini bilgan taqdirdagina, uning oldini olish borasida, real va ta'sirchan tadbirlar qo'llash mumkin bo'ladi.

1. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hamisha va hamma holda hisobga olmoq zarur.

O'quvchilarga individual yondashish bu har qaysi o'quvchining xususiyatlariga faol tarzda moslashish emas. Bu eng avvalo har qaysi o'quvchining individual xislatlarini, uning psixologik taraqqiyoti xususiyatlarini, uning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning yanada samarali yo'llarini faol ravishda qidirib topishdir. Bunday yondashishga faqat tarbiyalash va o'qitish qiyin bo'lgan o'quvchilargina emas, balki istisnosiz hamma o'quvchilar muhtojdir, tarbiyachining o'qituvchining vazifasi faqat qoloqlarni va intizomsizlarni ilg'orlar va intizomlilar qatoriga etkazib olishdagina iborat emas, balki shu bilan barcha o'quvchilarning, jumladan, eng yaxshi intizomli, bilimli, san'atga havasmand o'quvchilarning ham aqliy, ham quvvatlarini va tashkilotchilik qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir.

O'quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga individual tarzda yondashish har qaysi o'quvchini o'z nazar-e'tiborida tutishdan, uning xususiyatlarini bilishdan, uniig ijobiy xislatlariga tayanishdan, unga og'ir paytlarda muntazam yordam ko'rsatib borishdan va uni yaxshi xatti-harakati uchun rag'batlantirib turishdan iboratdir.

Hatto o'quvchilarni guruhda joylashtirish kabi ishlarda ham ularga individual yondashishga rioya qilmoq darkor. O'quvchilarni o'rganish qator talablarga javob bergan taqdirdagina, u o'z oldiga qo'yilgan natijalarni beradi. ta'lim tizimlar o'z

tarbiyaviy ishini ko'p darajada engillashtirish, bu tarbiyaviy ishni yanada aniq va maqsadga yo'naltirilgan tarzda olib borish ekanligini guruh rahbari uchun qoida tusiga kirmog'i zarur.

2. O'quvchilarni o'rganib, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.

O'quvchi shaxsini o'rganish ham piravord maqsad, emas balki ularga ta'lim-tarbiya berish uchun zaruriy shart-sharoitdir. Odatda tajribali guruh rahbarlari o'rganayotib tarbiya berish, tarbiyalayotib o'rganib borish qoidasiga amal qiladilar. O'quvchilarni o'rganishi bu tarbiyachilar uchun muvaffaqiyatli tarbiyalashning zaruriy shart-sharoiti bo'lib xizmat kiladi, tarbiyalash esa o'z navbatida o'quvchilarii kamol toptirish jarayonida ularni o'rganishning asosiy yo'llaridan biri guruhdatida foydalaniladi. O'quvchilarni o'rganish borasidagi ishlar shaxsini kamol topshirishning tabiiy tarzda faol ishtirok etish bilan, o'quvchilarda zaruriy ma'naviy xislatlari va harakter xususiyatlarini tarkib topish bilan organik ravishda qo'shilib ketadi.

5.4. O'quvchilarni o'rganishga qo'yiladigan asosiy talablar.

Guruh rahbari o'quvchilar xulq-atvoridagi ijobiy xislatlarshsh rivojlantirtsh, salbiy xususiyatlarga barham berishni «loyihalashtiradi».

3. O'quvchilarni o'rganishni rejali tarzda va muntazam olib borish darkor.

O'quvchilarni o'rganish ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirishga bo'ysindirmog'i lozim. O'quvchilarni muntazam tarzda o'rganish asosida boshlang'ich jamoaga hamda alohida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishining yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo'ladi. O'quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib berish bilangina cheklanib qolish noto'g'ri bo'lur edi. Bu o'rganish asosida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, bular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishini tashkil etish muhimdir. O'z o'quvchilarini yaxshi o'rganish demak, tashqi tomoniga emas, balki ular hulq-atvor sabablarini o'rganishga e'tibor bermoq darkor.

4. O'quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o'rganish.

O'quvchi ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali maslahatga va jamoat ishiga jalb qilish lozim. O'qituvchilarning o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va tevarak-atrofidagi kishilar bilan kirishadigan munosabatlarini o'rgatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jarayonida shaxsning yanada to'la ochiladi. O'quvchilarni tibbiy ish va kundalik hatti-harakat jarayonida o'rganish o'quvchiga haqiqiy baho berishga yordam beradi.

O'quvchilarni xilma xil metodlar va usullar bilan o'rgatish.

O'rganish metodlari qanchalik turli tuman bo'lsa, o'quvchilarni shunchalik to'la va asosli o'rganishi mumkin bo'ladi. O'quvchi shaxsini o'rganishining asosiy metodlaridan biri uning ish faoliyati va hatti-harakatlarini o'rganishdan iboratdir. Ayni bir vaqtda qo'shimcha metodlar sifatida o'quvchilar bilan, mazmun sifatida ish olib boradigan o'qituvchilar bilan o'quvchilarningota-onalari bilan suhbatlardan foydalaniladi.

O'quvchilar insonlarni tahlil qilish va ular ish faoliyatlari natijalari tahlil qilish singari metodlar ham qo'llanadi. O'quvchilarni o'rganish metodikasi ta'sirchan bo'lmog'i kerak. O'quvchini o'rganish asosida uning harakteri va hulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarining oldini **olish** ham ijobiy hislatlarni mustahkamlash yo'llarini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etdi.

5. O'quvchilarni o'rganib, ular hayoti va turmush sharoitlari bilan tanishish.

O'quvchilarning axloqiy hislatlari, uning yutiqlar va kamchiliklari, eng avvalo uning ta'lim va tarbiya olish jarayonida ijtimoiy uy sharoiti, tevarak-atrofi ham ahamiyat kasb etmaydi. O'quvchilarni o'rgatish dasturi ularni faqat ta'lim tizimidagina emas, balki shu bilan birga uy sharoitida, oilada ham o'rganishni nazarda tutmog'i darkor.

6. SHaxsning alohida xususiyatlarini emas, balki butun shaxsni o'rganmoq darkor.

5.5.O'quvchilarni o'rganishni rejali va muntazam tarzda olib borish.

Guruh rahbari tarbiyaviy ishning turli bosqichlarida o'quvchi hulq-atvorining ayrim tomonlarini o'rgatishga e'tiborini qaratishi mumkin. O'quvchini har tomonlama o'rgatishga erishmoq uchun dasturni oldindan yaxshi o'ylab tuzish, o'quvchilarni o'rgatish rejasini, suhbat savollarini, insholar mavzularni tayyorlab olish zarur.

Ana shu holatning vujudga kelmasligi uchun ota-onaga yordam berish, o'qituvchi bilan ota-ona o'rtasidagi hamkorlikning to'g'ri bo'lishida oila tarbiyasiga rahbarlik qilish zarur. Buning uchun u har bir oilani guruh va har tomonlama o'rganish kerak. Guruh rahbarining oilaviy sharoitni individual munosabat uchun u quyidagilarni o'z ichiga olgan dasturga ega bo'lishi kerak:

1. Oila haqida umumiy ma'lumot: oila tarkibi: kattalarning ish joyi, kasbi, oilaning moddiy jihatdan foydalanganlik darajasi; uy joy sharoiti:

2. Oilaning madaniy darajasi: oila a'zolarining ma'lumoti, oilaviy kutubxona bor yo'qligi, qanday matbuotga yozilishi, an'analari va oilaviy bayramlar.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari, ota-onaning o'quvchiga va o'quvchining ota-onaga munosabati, ularning insoniy etukligi va qiyofasi o'quvchilarning o'z ota-onalarining kasbi haqidagi tushunchalari, oilada salbiy ta'sirning bor yo'qligi.

4. O'quvchiga oiladan tashqarida ko'rsatilayotgan ta'sirlar va ota-onalarning ularda munosabati, o'rtoqlari, hovli, ko'cha, qo'shnilar, ota-onaning tanishlari, qarindoshlar va boshqalar.

O'quvchilarni kuzatish nafaqat ta'lim tizimida, balki ko'cha-ko'yda, oilada, teatrda, sayru-tomoshada, sport o'yinlarida, oddiy gurunlarda ham olib boriladi.

O'quvchilarni kuzatish qanchalik puxta, aniq, izchil reja asosida olib borilsa, ish shunchalik oson kechadi.

Tajribali guruh rahbarlari o'quvchilarning turli axloqiy va jismoniy xislatlarini bir qancha sinovlar orqali oppa-oson aniqlashadi qo'yadi. Jismoniy tarbiya darslarida turnikka tortinish, qiyin va nozik mashqlarni bajarishda, vrach xonasidagi emlash jarayonida, bir oz qiyinroq mehnat topshiriqlarida, ulardan uzoqdagi biror kishini chaqirib kelish, yoqtirmagan ishni buyurish orqali ulardagi

iroda va qo'rqoqlik, kuch va nimjonlik, qat'iylik va jur'atsizlik, mehnatsevarlik va yalqovlik kabi xislatlar namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni kuzatish va undan to'plangan ma'lumotlar umumiylik va nisbiylik kasb etishini unutmazlik lozim. SHuning uchun ham tasodifiy va shoshilinch xulosalar chiqarmaslik kerak. O'quvchilar xulq-atvoridagi tashqi jihatdan bir xildagi voqea-hodisalar turli sabablarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Insonni shakllanishida fanning maqsad va vazifalari.
2. Yoshlarni tarbiyalashda milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizning ahamiyati.
3. Xalq og'zaki ijodining yoshlar ongida milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirishdagi o'rni.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari.
5. SHarq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari.
6. Tarbiya jarayoni to'g'risida tushuncha.
7. Ta'lim jarayoni to'g'risida tushuncha.
8. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidati o'rni.

6- Mavzu: Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalash.

6.1. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasini ishlab chiqish.

6.2. Talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish.

6.3. Sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

6.4. Tarbiya metodlarini tanlashda ularning jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi.

6.5. Pedagogning esa yangi guruh bilan ko'p marta ish boshlashi

6.6. Guruh rahbari metodlar jamoaning rivojlanishi davomida vaqti vaqti bilan jamoaning rivojlanish darajasini anglab turadi.

Tayanch tushunchalar : SHaxs, jamoa, guruh rahbari, guruh faollari, ta'lim, hulq-atvor, tarbiya, faoliyat, oila, jamoatchilik, tarbiya vositalari, tushuntirish va hokazo.

6.1. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasini ishlab chiqish.

Guruh rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi printsiptir.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to'liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etaman, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish; faollarni aniqlash, o'quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoa (ta'lim tizimi, guruh jamoasi, ta'lim tizimidan tashqari o'quvchilar birlashmasi va hokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarning jamoa turmush, normalari va qoidalarining intizomini bo'zilishiga munosabatlarini kuzatib jamoaning tashkiliy tuzulishi ta'sirchanligi ishonch hosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida o'quvchilar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va guruh rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. SHuning uchun jamoada salbiy hodisalar ochiq muxokama qilinmaydi va mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamoa rivojlanishning 2-chi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas balki harakatlarini qo'llab quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo'yishini kuzatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri – o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi chiqindi qog'oz yoki metallolom to'plash, kechaga tayyorgarlik ko'rish kabi ta'lim tizimi tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat guruhdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi.

Guruh rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy o'quvchini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. SHuning uchun guruh rahbari dastavval o'quvchilarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarni, o'zlarini darsda qanday tutishlarni, o'zlarini darsda qanday tutishlarni, uy vazifalarni sidqidildan bajarishlarni yoki bajarmasliklarni aniqlaydi. Va nihoyat eng muhimi – ularning o'qishdagi muljallari ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi.

Biror guruhda shpargalkalar, aytib turishlar ko'chirib yozishlar avj olgan edi. O'quvchilar buni tan olishdan ham uyalishmas, bunday holni o'ziga xos do'stlik jamoatchilik deb hisoblashishar edi. Aksincha savollarga javob olishda «Sen shpargalkaga qanday munosabatdasan?» degan savolga faqat bir o'quvchi – Nargiza bunday deb yozdi: «Aytib turishni va aytib turishdn foydalanishni o'ziga ep ko'rmayman». Anketa savollariga javob qaytarish natijalarini muhokama qilish chog'ida ko'pchilik Nargizaning tutgan yo'lidan g'azablanishdi: Qaranglar qanday mag'rurlanib ketibdi! Qadr- qimmat bizda ham bor, lekin u algebra bo'yicha kontrol ishga nisbatan ancha muximroq yuyu ishlarda namoyon bo'ladi. Guruh rahbariga bu guruhda ishlash juda qiyin edi. Bu erda ko'pgina qobilyatli va yaxshi o'zlashtiradigan

ayni paytda qoloq o'quvchilar ham bor edi. Darsdan tashqari payitlarda turli tadbirlar-kechalar, uchrashuvlar, ekskursiyalar o'tkaziladi. Lekin, bularning hammasi eng muhim narsaga – o'quvchilarning Ta'lim jarayoniga, munosabatiga va bu jarayondagi o'zaro munosabatiga ta'sir ko'rsatmasdi. Ko'pchilik 8–guruh o'qituvilari: o'qish har bir kishining shaxsiy ishi, degan printsipga amal qiladilar. YUqorida bayon etilgan guruh jamoasi rivojlanish darajasining pastligidan dalolat beradi. Mana shunday holatlar ro'y bermasligi uchun jamoaning rivojlanish usulini aniqlab olishimiz kerak buning eng ishonchli usuli – o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish jarayonida ko'zatishtan iboratdir. Maxsus diagnostik usullar. Masalan: anketa, tarqatish, pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish, boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Lekin, bu usullar guruhni juda ehtiyotkorlik bilan katta pedagogik odobi bilan qo'llash lozim. O'quvchilarni o'rganishning har bir usuli ayni vaqtda tarbiya usuli ham ekanligi o'qituvchilar uchun qonun bo'lishi kerak.

6.2. Talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish.

Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalashdan maqsad ta'lim tizimi o'qituvchisini o'z-o'zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga bo'yini yor bermaydigan tarbiyasi qiyin o'quvchilar – bu albatta, yomon o'zlashtiruvchilar emas, holbuki ular orasida odatda ular ko'pchiligi ana shunday o'quvchilardir. Zamonaviy guruh rahbar o'quvchidar yomon xulq atvorining, past o'zlashtirishning sabablarini puxta o'rganadi. Bunda o'quvchining guruhdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma'naviy asoslari eng muhim masalalardan biridir. Jamoa munosabatlari – dastavval muayyan printsiplarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlar yo'naltirib turadigan o'zaro ma'suliyatli munosabatlardir.

Guruh o'qituvchilari ko'p bo'lgan sharoitda har bir o'quvchi yakka tartibda yondashish, har bir o'quvchi qalbiga to'g'ri yo'l topish juda qiyin. Agar o'quvchilar jamoasi qo'llab quvvatlasa, har xolda bunday yo'lni topish mumkin.

Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning mohiyati alohida o'quvchini jamoa faoliyatiga jalb etishdan jamoani esa mazkur o'quvchi bilan qiziqtirib qo'yishdan ham iboratdir. Har qanday jamoada tarbiyasi qiyin o'quvchilar bo'ladi, lekin «ajratib qo'yilgan» o'quvchilar bo'lmaydi.

O'quvchilarning xulq atvori, o'quvchining muntazam o'rganishni o'z oldiga maxsus maqsad qilib qo'ymasa uning uchun sezilmagan tarzda o'zgarishi mumkin. Bunday o'rganish yakka tartibda ishni tashkil etishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Jamoani tashlantirish, yuzasidan olib boriladigan ish albatta ayrim o'quvchilarning rivojlanishga ta'sir etadi va shuning uchun ham bu jarayon stixiyali emas, balki maqsadga qaratilgan va boshqariladigan bo'lishi kerak.

Guruh rahbari o'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda bo'ladi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni uyushtirishda guruh rahbariga muayyan tarzda yordam beradigan asosiy manba «Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi»dir. Mazkur dastur

o'quvchilarning ota-onalari bilan xilma-xil mashg'ulotlarni birga qo'shib olib borishni ko'zga tutadi.

Dasturda o'quv yili mobaynida ikkita umumTa'lim mashg'ulotni va har bir guruh ota-onalari uchun 6 tadan 9 tagacha mashg'ulot o'tkazish ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar shunday tarzda quriladiki, ota-onalar pedagogika, psixologiya va fiziologiya asoslari izchil kursini o'zlashtirib, farzandlari bilan guruhdan-guruhga o'tgandek bo'lishadi. Kurs o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq va Ta'limining har bir yildagi Ta'lim-tarbiya vazifalarini hisobga olib qurilgan.

6.3.Sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy

an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ota-onalarning yuksak ta'limiy va madaniy darajasi pedagogik va psixologik ta'sir etish sifatini oshirish uchun ular bilan bevosita muomalada, o'qituvchilarning bu yo'nalishidagi ijodiy jamoa ishida o'rganish mumkin.

Ota-onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shakl bu ota-onalar yig'ilishlaridir. Ota-onalar majlislari turli xil ko'rinishda bo'ladi:

1) Tashkiliy yig'ilishlar ota-onalar komiteti saylanadi. Bunda asosan jamoatchi o'qimishli kishilar (hisoblanadi) saylanadi.

2) CHorakdagi yakunlovchi guruh majlislari ota-onalarning e'tiborini o'quvchilarning bilishga doir qiziqishlari, axloqiy qobilyatlari, irodali fazilatlarini, rivojlantirishdagi yutuqlari, kamchiliklari, foydalanilmagan imkoniyatlarga qaratish maqsadini ko'zda tutadi. Agar har bir ota-ona majlisdan keyin o'z o'quvchisiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish sistemasiga to'zatishtirish kiritishning asosiy yo'llarini aniq tasavvur etsagina, guruh rahbari o'tkazilgan majlislardan qanoat hosil qilishi mumkin.

3) Biror mavzuga bag'ishlangan yig'ilishlar, tarbiyaning eng dolzarb muammoalari yuzasidan o'tkaziladi.

Agar ta'lim tizimi guruh rahbarlari orqali ota-onalarga ularning pedagogik bilimini oshirishda yordam berar ekan o'z navbatida ota-onalar ham ta'lim tizimiga o'quvchilarni tarbiyalashni tashkil etish ishda har tomonlama yordam berishlari mumkin va lozim.

Guruh rahbarining ota-onalar komiteti bilan mohirona, yaxshi uyushtirilgan va yo'lga qo'yilgan ishi, o'quvchilar bilan olib boriladigan butun tarbiyaviy ishlarning muvafaqqiyatli bo'lishiga garov hisoblanadi. Tashabbuskor, ijodiy ishlaydigan ota-onalar komiteti guruh rahbariga, guruh jamoasini tashkil qilishdagi bebaho yordamchisidir.

YAkka tartibdagi pedagogik suhbat guruh rahbarining o'quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli hisoblanadi.

Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish, o'quvchilar oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, o'quvchining yakka tartibdagi rivojlanish dasturini birgalikdagi pedagogik xarakterli sistemasini

ishlab chiqish, ota-onalarning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishlarini va tarbiyasi qiyin o'quvchi hulqini tuzatish va o'quvchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish, kabi keng ko'lamdagi Ta'lim-tarbiya vazifalari hal qilinadi.

O'qituvchilar u yoqi bu o'qituvchining biror o'quvchi uning darsida intizomni buzganligi xususidagi shikoyatga javoban ota-onani ta'lim tizimiga chaqirtiradilar. Guruh rahbari hamma narsani sinchiklab o'rganib chiqishi kerak. Ba'zan o'quvchilarning darsda yomon ishlashga, gap qaytarishga va hakovzolarga o'qituvchining o'zlari aybdor bo'ladilar. Bunday holda o'qituvchida pedagogik odobning yo'qligi yoki uning darsdan, guruhdan tashqari Ta'lim-tarbiya jarayonini yomon tashkil etganligi uchun ma'suliyatni o'qituvchi va ota-onalarga ag'darish noto'g'ri bo'lur edi. Agar o'quvchi bir muncha tarbiyasiz intizomsiz bo'lsa ham guruh rahbari ota-onalarga faqat uning kamchiliklari haqida gapirmasligi kerak. Bu ularning yoqimsiz bo'lib, ular va pedagog o'rtasida ishonchli munosabatlar o'rnatishiga yordam bermaydi.

6.4. Tarbiya metodlarini tanlashda ularning jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi.

Har bir ota-ona o'z farzandini yaxshi ko'radi, shuning uchun ular, o'z farzandida hosil bo'lgan yangi, ijobiy kurtaklar xususida quvonchni o'rtoqlashadigan va o'quvchilarning xulqidagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan, birgalikdagi harakatlar xususida maslahatlashishni muhim deb hisoblaydigan guruh rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar. Bunday sharoitda ota yoki ona juda hayrixoh bo'ladi va guruh rahbari bilan bajonidil aloqa bog'laydi.

Guruh rahbarining o'quvchilar oilalarida bo'lishi ta'lim tizimi va oila o'zaro hamkorlikning muhim shakli hisoblanadi. Oilada bo'lishning maqsadini aniq vaziyat belgilab beradi. Guruh rahbari nima maqsadda oilaga berishga muvofiq tarzda unga oldindan tayyorgarlik qo'radi (O'qituvchilar bilan maslahatlashadi, o'quvchining o'zlashtirishi xulqini aniqlaydi, avvalgi borishi natijalari to'g'risidagi mavzularni ko'rib chiqadi, suhbat mazmunini va shaklini belgilaydi, muhokama qilish ota-onalar bilan kelishish uchun masalalarni tanlaydi, yaqin kelajak uchun ota-onalarning tarbiyaviy vazifalarni, tavsiyanomalarni va hakazolarni belgilab oladi).

Oilada bo'lganda faqat maslahatchi bo'lib qolmasdan, o'zi ham ota-onalarning fikri va takliflariga quloq solishlari kerak, chunki ular farzandlarining muvofaqqiyatidan bizga nisbatan kam manfaatdor emaslar. YUqori guruh o'qituvchilarining oilalariga borishni zarur deb hisoblaydigan guruh rahbari nohaqdir. YUqori guruh o'qituvchilari oldida kasb tanlash mummosi turadi, ota-onalar esa bunga o'z farzandlarining u yoki bu faoliyatiga qiziqishi va qobilyatini inkor etib, o'z hayotiy tajribalari asosida yondoshadilar. Bu jihatdan guruh rahbari tamonidan odob bilan yordam berishi zarurligi ravshandir.

6.5. Pedagogning esa yangi guruh bilan ko'p marta ish boshlashi.

Nobop oilalar bilan ishlash guruh rahbari uchun alohida qiyinchilik tug'diradi. Odatda o'quvchi oilaviy notinchlikning qurboni bo'ladi, binobarin uni pedagogikaga zid oilaviy munosabatlardan asrash – ta'lim tizimining vazifasidir.

Masalan, guruh o'qituvchisi Javlonning ota-onasi o'zaro qattiq ziddiyatda edilar. Otasi muhandis, spirtli ichimlikka berilib, rafiqasini haqoratlardi. Hattoki munosabatlarini yumshatishni istab uning bu qilmishlariga chidab kelardi. Lekin o'g'li Javlon aralashib otasidan onasini taqqirlashni bas qilishini talab qiladi. Ish mushlashishgacha borib etadi.

SHundan so'ng Javlon darslarga bormay qo'yadi. Guruh rahbari shoshilinch chora ko'radi, ya'ni Javlonning otasi ishlaydigan joyga borib tushuntirish ishlarini olib boradi. SHundan so'ng oilada vaziyat asta sekin yaxshilana boradi. Ona ham, o'g'il ham o'qituvchining ota bilan suhbatlashganini bilishmaydi.

Jamoatchi va bilimli guruh rahbari har qanday vaziyatdan juda ustalik bilan chiqib ketadi va har tomonlama rivojlangan guruh jamoasini tashkil qiladi.

Ta'lim tizimi, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirishda – oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodir va odatda ta'sir ko'rsatadi,

Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqiyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishining chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oila darajasida ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shahsiy tiklantirish jarayoninig zarur bo'g'iniga aylantiradi.

Ta'lim tizimlar tajribasida faoliyat odatda ommaviy jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Tabiiyki individual shakllar muammolash nazarda tutmaydi.

Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya'ni ularda o'quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi), o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadiga (masalan, lektsiya, kontsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilarning o'zaro muammosini nazarda tutmaydi.

Jamoa tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiy ishdir bunda mazkur ish o'quvchilarning tarkib jihatdan (eng ko'pi bilan besh kishi) guruhlarda amalga oshiriladi. SHunday kichik guruhlarda barcha a'zolar bir-birlari bilan bevosita muomilada bo'ladilar va bir-birlariga bevosita ta'sir ko'rsatadilar.

6.6. Guruh rahbari metodlar jamoaning rivojlanishi davomida vaqti vaqti bilan jamoaning rivojlanish darajasini anglab turadi.

O'qituvchilar guruhlarda muammolarning o'ziga xos husuiyatini o'rganish uning guruhlarni o'quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiriladigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Demak, ta'lim tizimlarda guruhiy ishlarni tashkil etishning turli usullari qo'llaniladi: bir xil ishlar: unda jamoani tashkil etgan barcha guruhlar bir xil topshiriqlarni bajaradilar; tabaqalashtirilgan guruhiy ishlar; unda guruhlar individual topshiriq oladilar. Tashkil etishning guruhiy shakllari amalda o'quvchilar faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladi. Masalan: guruhdagi darsdan tashqari

bilish faoliyatida «topilgan va topilmagan sirlar kechasi» o'tkaziladi. Guruh bir necha guruhga bo'linadi, ulardan har biri o'z «siri»ni belgilab va uni guruhga taqdim etadi. Darsda bilish faoliyatini masalan 8-guruhdagi tarix darsida o'quvchilar guruhlarga bo'linadilar, ularning har biri topshiriq oladi. Guruhlarning vakillari topshiriqlarning bajarilish yakunlarini butun guruhga ma'lum qiladilar, guruh ular muhokama qilib, tuzatishlar kiritadi.

Jamoa tashkil etganda o'quvchilar muhitida mavjud bo'lgan haqiqiy guruhlarni tutish, bir-biriga va o'zaro do'stlashadigan o'quvchilarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarni xususiyatlarini ularning yo'nalishi, qiziqishlari, malakasini bilishlari hisobga olish va foydalanish kerak. Jamoa ishni tashkil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xususiyatlarni hisobga olish ishining samaradorligini oshiradi. Ikkinchi tomondan bu hol guruhdagi muammolarni jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomila sohasiga olib kiradi.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o'qituvchilarning shaxslararo real mavjud bo'lgan aloqalarni hisobga olish ikki xil maqsadga erishish: guruh a'zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o'rtasiga muomalaga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi tamoyili
2. Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalash
3. O'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik
4. Ta'lim tizimi, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirish
5. Guruh rahbari o'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashi
- 6.

7- Mavzu: Shaxsga jamoaviy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning

shakl va metodlari.

7.1. Jamoada va jamoa orqali tarbiyalash tarbiyaning eng muhim printsiplaridan biridir.

7.2. Jamoaning tarbiyaviy kuchi har bir kishida bo'lgan xislatlardan, har bir shaxs jamoaga qo'shadigan hissasidan boshlanadi.

7.3. Jamoa – bu odamlarning biror bir muayyan ijtimoiy ahamiyati bo'lgan faoliyat asosida birlashuvlarining tashkiliy formasidir.

7.4. Jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro bog'liqlik, o'zaro nazorat, o'zaro ma'suliyatdan iborat muayyan munosabatlarning tarkib topishi.

Tayanch tushunchalar: Jamoa, jamoa rivojlanishi, komil inson, uzluksiz ta'lim, hulq-atvor, tarbiya, faoliyat, oila, oila muhiti, tarbiya vositalari, jamiyat va hokazo.

7.1. Jamoada va jamoa orqali tarbiyalash tarbiyaning eng muhim printsiplaridan biridir.

Mavzuning maqsadi va vazifasi shaxsning shakllanishida oila muhiti, kollektiv va jamiyatning ta'sirini ifodalash, shaxsning jamoaga, jamiyatga aloqadorligi tushunchalarini shakllantirish.

O'qituvchi uyga berilgan ikki topshiriq haqida gaplashib bo'lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki topshiriq haqida gaplashib bo'lgach, uchinchi savolga javob berishni bo'lgach, uchinchi savolga javob berishni bir-ikki o'quvchidan so'raydi. O'quvchilar avvalo ota-onalaridan yoki opa-akasidan, keyin esa tarbiyachilari, o'qituvchilari, mahalla-kuydan minnatdor ekanligini aytadilar, o'qituvchi xulosa qiladi:

– Javobingizdan ma'lum bo'ldiki, shaxsning kamol topishi avvalo oila muhitiga bog'liqdir. O'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning quyidagi she'riy parchasiga e'tibor bering.

Ulcha erur tiflga shoyista ish,
Bilki kichiklikda erur parvarish.
Qatraga chun tarbiyat etdi sadaf,
El boshiga chiqqunga topdi sharaf.

Tifl, ya'ni o'quvchini kichikligida parvarishlash, ya'ni tarbiyalash kerak, sadaf qatoriga kirgan qatra, ya'ni dur odamlarning boshida turish sharafiga muyassar bo'ldi. Huddi shuningdek, ota-ona go'yo sadaf, o'quvchilar esa ularning bag'ridagi katralar – durlardir.

Oiladagi sharoit, oziq-ovqat va jihozlar ta'minoti, o'zaro munosabatlar: er-xotin, bobo-buvi qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil, tog'a-amaki hamda boshqa qarindoshlarning bir-biriga muomalasi oila a'zolarining birgalikda ishlash, dam olishi, adabiyot, san'at, ilm-fan va sport bilan shug'ullanish, daromad, ruhiy-ma'naviy holatlar, qo'ni-qo'shnichilik aloqalari, mahalladagi to'y-ma'rakalarga qatnashish va hokozolar oila muhitini tashkil etadi.

Oila muhiti ahloq-odob, madaniyat qoidalariga asosida tashkil topsa, o'quvchi shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, bunda oiladagi o'quvchilar to'g'ri kamol topadi.

Hamqishloqlar bir oiladek yashab, bir-biridan xabardor, bir-birlariga mehribon bo'ladilar, qishloqning, kollektivning ishi haqida hisob berib turadilar, bir-birlarini va shu asnoda o'quvchilarini ham kollektiv ruhida tarbiyalaydilar.

Ibn Sino kollektivdan, jamiyatdan ajralib tarbiya topgan o'quvchining bahtsiz bo'lib qolishni ta'kidlaydi.

Inson oilada dunyoga kelgan bilan jamiyatga aloqadordir. Farobiyning fikriga «insonning va jamiyatni qo'lga kiritishi, ahloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi, inson va jamoaning o'z qo'lidadir».

Jamiyatning qanchalik rivojlanganligi oila farovonligida, shaxsning kamolotida ko'rish mumkin. YOki shaxsning barkamolligi, oilaning to'la-to'kisligiga qarab, jamiyatniq iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ahloqiy ahvolini bilish mumkin. CHunki, shaxs-oila jamiyat munosabatlari o'zaro mustahkam bog'langan. SHuning uchun shaxs oila-jamiyat muhitida shakllanadi, kamol topadi.

7.2. Jamoaning tarbiyaviy kuchi har bir kishida bo'lgan xislatlardan, har bir shaxs jamoaga qo'shadigan hissasidan boshlanadi.

O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniyat faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatining muhim sharti hisoblanadi. SHuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni guruhdan jamoa munosabatlarning rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. O'qituvchining esa yangi guruh bilan ko'p marta ish boshlashiga to'g'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, guruhni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa ta'lim tizimida vujudga kelgan vaziyat taqozo bilan guruh rahbari o'zining metodlari jamoaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi uchun shundan keyingi ishlari davomida vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishning uch yoki to'rtta darajasi ajratib ko'rsatiladi.

Boshlang'ich daraja pedagogning kuch-g'ayrati natijasida guruhda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, o'quvchilarning unga katta bo'lmagan qismi guruh rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Tarbiya jarayoniga o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z-o'zini nazorat qiladi. Guruh rahbari va o'quvchilar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo'l uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar yuzasidan juda qiziqarlidir. Bu guruh rahbarining asosiy ishidir. Umuman ta'lim tizimi o'quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq bo'ladi. Agar o'quvchilar jamoasi tashkil etilmagan bo'lsa, o'quvchi ta'lim tizimini hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik ta'lim tizimi yillarini eslamaydi ham. O'quvchilarni inoq jamoaga birlashtirish mohir guruh rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg'ayayotgan kishining hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash guruh rahbarining o'quvchilar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat'iy faoliyatning zarur sharti hisoblanadi.

Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Uning mohiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta'rifini aniq jamoa ta'rifi bilan taqqoslashdan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadning, pedagoglar bilan o'quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o'zaro

ma'suliyatli munosabatlarning mavjudligi: o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati va h.k.

O'quvchilarning jamoa turkum normalari va qoidalarining, intizomning buzilishga munosabatlarini kuzatib, jamoasining tashkiliy tuzilishi ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichida o'quvchilar tarqoq bo'lib, ularda yakdil va guruh rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. SHuning uchun bunday jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi, mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi va hakoza.

Agar jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas, balki pedagogning harakatlarini qo'llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo'yishni kuzatish mumkin.

Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o'quvchilarning birgalidagi faoliyatiga ishtiyoqi chiqindi qog'oz yoki metallom to'plash, kechaga tayyorgarlik ko'rish kabi TA'LIM tizimi tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Guruh rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun o'quvchilarda ularning hozirgi va bo'lajak hayotlarida ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlari mavjudligini bilish muhim, ya'ni jamoaning hayotiy faoliyati istiqbollari barcha yoki yarim o'quvchilar qabul qilishni va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olish zarur. Agar bo'lajak shanbalik yoki bayram kechasi o'quvchilar uchun faoliyatga undovchi bo'lsa va bo'ya kun istiqbol faqat ayrim o'quvchilar uchun ahamiyatli bo'lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi haqida gapirish mumkin.

7.3. Jamoa – bu odamlarning biror bir muayyan ijtimoiy ahamiyati bo'lgan faoliyat asosida birlashuvlarining tashkiliy formasidir.

Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat guruhdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi. Guruh rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy o'quvchini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. SHuning uchun guruh rahbari dastavval o'quvchilarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarini o'zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazfalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi – ularning o'qishdagi mo'ljallari nimalardan iborat, bu mo'ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki emasligi hisoblanadi.

Pedagog guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Guruhda haqiqiy jamoa munosabatlari bo'lmasligi mumkin, bunda o'qituvchi ishni boshidan boshlashga to'g'ri keladi. Ko'pincha bunday holat yangi shakllangan, «yig'ma» guruhlarda, yangi qurilgan TA'LIM tizimlarda bo'lishi mumkin. To'g'ri boshqa hollarda ham shunday bo'lishi, avvalgi guruh rahbarining kuch-g'ayrati muvaffaqiyat keltirmagan bo'lishi, tarkibi o'zgarmagan jamoa VII-VIII cinflarda ham shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan guruh rahbari guruh bilan ishlar ekan, har doim jamoa rivojlanishning boshlang'ich davri bilan ish ko'radi, deb mo'ljallab bo'lmaydi. Boshlang'ich ta'lim tizimidayok (I-IV guruhlarda) ko'pincha yaxshi guruh jamoalari shakllanadi. O'qituvchi bunday holda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini tahlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo'llaydi.

Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati.

Odam o'quvchisining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Bizga ma'lumki, hyoti davomida inson jismoniy va psixik tomonidan o'zgarib boradi, lekin o'quvchilik va o'smirlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. O'quvchi manba shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o'sishi o'zgarishi shaxs sifatida kamolga etadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida o'quvchi jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o'ziga munosib o'rin egallaydi. SHaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va behato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasiga, turli munosabatlar doirasiga, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga, ta'sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

7.4. Jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro bog'liqlik, o'zaro nazorat, o'zaro ma'suliyatdan iborat muayyan munosabatlarning tarkib topishi.

O'quvchining kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi: biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar Farobiy inson kamolotida ta'lim tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: «munosib inson» bo'lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda ahloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yo'ldir deydi. Abu Ali Ibn Sino etika va ahloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishda yordam berdi. U ayniqsa oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: O'quvchi tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo'ladi degan fikrni ilgari suradi.

O'quvchi shaxsining rivojlanishga, kamol topishga irsiyat, muhit va tarbiya kabi (ta'sirlar) omillar ta'sir etadi. O'quvchi shaxsining rivojlanishga naslning ta'siri rivojlanishga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak, har bir o'quvchiga ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochning, ko'zning, terisining rangi, buy-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bularning barchasi jismoniy xususiyatlarga kiradi. Bulardan tashqari oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu esa fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir.

Muhit deganda kishiga stixiyali ta'sir etadigan tashqi voqealar komplekti tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. SHular bilan birga muhit-oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. CHunki o'quvchi ko'z ochib ota-onasini, qarindosh urug'ini ko'radi. O'quvchi kamolotida ijtimoiy muhit bo'lib hisoblanadi. CHunki bu erda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar alohida ta'sir qiladi. Bu xil munosabat natijasida odam o'quvchisi hyotga va tajriba va bilimlarini egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta'sir etadi.

Demak, komil inson shaxsni tarbiyalashda yuqoridagi omillardan tashqari yana bir omil ya'ni jamoaning roli ham katta hisoblanadi. Chunki jamoa har qanday o'quvchi tarbiyasini to'g'ri yo'lga soladi. Masalan: guruh jamoasini oladigan bo'lsak, agar ushbu guruhda biror salbiy xulqli, tarbiyasi jihatdan to'g'ri shakllanmagan bo'lsa, shu guruh jamoasi orasida ikkilamchilik yuzaga keladi. Agar uni asta-sekinlik bilan ijobiy tomonga yo'naltirilib alohida yakkama yakka tushuntirib har bir tarbiyaviy so'zni ma'nosini, uning zamirida qanday maqsad, yaxshi inson bo'lishga qaratilgan samimiy suhbat bo'lsa o'z ta'sirini albatta o'tkazadi. Ya'ni qanday yo'llar bilan degan savol tug'ilish mumkin.

Masalan, tadbirlar yoki sayohatlar orqali. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati juda katta. Azal-azaldan bizgacha ota-boo'quvchirimizdan qolgan o'lmas maqollarimizdan birini shu o'rinda keltirib o'tmoqchiman; "Aqlni beaqldan o'rgan", ushbu maqol zamirida bir qancha ma'nolar bor. Ya'ni jamoada har xil o'quvchilar bo'lib, ular bir-biriga qarab ham o'zlaridagi yomon xulqlarni yuqotadilar. Bu xislatlar esa ularning komil inson bo'lib tayyorlanayotganidan darak beradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamoa haqida tushuncha
2. Jamoa rivojlanishining darajalari
3. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati
4. Oila muhiti ahloq-odob, madaniyat qoidalariga asosida tashkil topishi
5. Jamiyatning qanchalik rivojlanganligi oila farovonligining o'rni
6. O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanishi
7. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi
8. Jamoa rivojlanishining dastlabki boskichi
9. Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir
10. Muhit deganda kishiga stixiyali ta'sir etadigan tashqi voqealar komplekti tushunilishi

8- Mavzu: O' quvchilarning ma'naviy aqloqiy tarbiyasi.

8.1.O'quvchilar bilim sifatini oshirish va fikrlash qobiliyatini o'stirish va ma'naviy – axloqiy tarbiyalash guruh raxbarining muhim vazifasi sifatida.

8.2. Ma'naviy – axloqiy tarbiyaning tamoyillar, ma'naviy – axloqiy suhbatlar, ma'naviy – axloqiy mavzudagi suhbatlar.

8.3.O'quvchilarda bilim faolligini taraqqiy ettirish va ularning bilim sifatini oshirishda guruh rahbarining vazifalari.

8.4.O'quv mehnati madaniyatini oshirish.

Tayanch tushunchalar: o'quvchilar jamoasi, bilim sifati, fikrlash qobiliyati, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarbiya metodlari, bilim faolligi, o'quv mehnati.

8.1.O'quvchilar bilim sifatini oshirish va fikrlash qobiliyatini o'stirish va ma'naviy – axloqiy tarbiyalash guruh raxbarining muhim vazifasi sifatida.

O'quvchilar jamoasi – guruh rahbarining tayanchi. O'quvchilarni tarbiyalashda guruh jamoasidagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega. Ularni bir-biriga ko'rsatadigan o'rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini hosil qiladi.

Guruh rahbari bolalarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul hrakat qilishni o'rgatishi lozim.

Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, ahloq-odob talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon kollej larining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, kollej dorlar va ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jaaryonini sevishi kerak deydi. O'ziga xos o'quvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. SHogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta bola-guruh jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda guruh rahbari ko'p mashaqqatlarga duch keladi. SHuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. SHogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Xak yulida senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Guruh rahbari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalar ekan, u o'z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- guruh rahbari o'quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.

- gurux rahbari bolalarga ahloqiy normalarni o'rgatishi kerak.
- gerdayishi, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi ahloqiga yod sifatlardir.
- xalq nazarida olim hisoblanadigan o'qituvchilar yomon ishlardan, fisku-fasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.

Gurux rahbarining ota-onalar bilan to'g'ri muomila qila olishi murakkab, nozik ish. CHunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televidinie, radio orqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. SHunday vaziyatlar ham bo'ladiki, o'g'il yoki qiz bola kollej da o'zboshimchalik qiladi, lekin oilada xushyor va gapga quloq soladi, yoki aksincha. Oilada muomalasi qo'pol, o'zboshimcha, kollej da esa o'zini xushmuamola, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to'g'ri javobni topish amri mahol. CHunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Demak, gurux rahbari va ota-onalarning maqsadlari bir hil bo'lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo'lmaydi.

8.2. Ma'naviy – axloqiy tarbiyaning tamoyillar, ma'naviy – axloqiy suhbatlar, ma'naviy – axloqiy mavzudagi suhbatlar.

Gurux rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtni to'ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to'la qimmatli tarbiya yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy ahloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang'ich kollej muhim o'rin egallaydi.

Ma'naviy ahloqiy tarbiya-ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, ahloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Gurux rahbari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning quyidagi vazifalarini hal etishi kerak.

1) Tug'ilib o'sgan joyiga, O'zbekiston Respublikasiga yuksak muhabbat tuyg'ularini, uning tabiati va kishilar haqida, Vatanning himoyachilari va mehnat qahramonlari to'g'risida, ota-bobolarimiz, ularni dunyo tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini to'g'risida ko'proq bilishga intilishni tarbiyalash.

2) O'quvchilarda Vatanimizning boy tarixi, shuningdek boshqa mamlakatlar to'g'risida, tinchlik uchun kurash haqida chet ellardagi bolalar tashkilotlari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish.

3) Bolalarda o'rtoqlik tuyg'usini, boshqalarga yordam ko'rsatish ishtiyoqini, umumiy foyda yo'lida birgalikda faoliyat ko'rsatishga intilishni tarkib toptirish. Bolalar o'rtasida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rag'batlantirish, sohta o'rtoqlik ko'rinishlariga qarshi kurash olib borish lozim.

4) O'z so'zi va va'dasi uchun, o'qituvchi va kollektiv topshiriqlarining bajarilishi uchun ma'suliyat tuyg'usini tarbiyalash.

5) Bolalarda kishilarga to'g'ri munosabatni, keksalar, bemorlar, invalidlarga nisbatan e'tibor va g'amhurlikni, xushfe'l va betartib, kamtar va haqgo'y bulishini tarbiyalash.

O'quvchilarni barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatiga adolatli baho berishga o'rgatishi hamda o'z kuch g'ayratini o'quvchilarda nopoklik, adolatsizlik, kishilarga raxm-shafqatsiz bo'lishga nisbatan salbiy munosabatni tarkib topshtirishga qaratishi kerak.

O'quvchilarni tarbiyalash o'qitishga qaraganda ancha qiyin degan fikrni o'qituvchilar orasida tez-tez eshitish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda, o'zining xususiyatlariga ega. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashni barcha protsesslarini bilim berish va o'rgatish bilan birga qamrab oladi. Bunday ikkita o'zaro bog'langan tomon: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish protsesslari ajralib turadi. Hayotni bilish ma'lumot olishning asosiy funksiyasi, unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish tarbiyaning asosi, vazifasini tashkil etadi.

Gurux rahbari faqat ta'lim-tarbiyaning birligini emas, balki ularning xususiyatlarini ham ko'ra bilishi muhimdir. Kollej dagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan olib boriladigan ulkan ishining bir qismi xolos, u bolaning ilgari tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, undagi barcha yaxshi sifatlarni o'stirib, noto'g'ri tasavvurlar, odatlarni tuzatib borishi va bo'lajak sifatga zamin tayyorlashi kerak. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya o'quvchi kollejni tamomlagandan keyin ham tugallanmaydi, u butun umr bo'yi davom etadi.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiya-ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning forma va metodlariga ega bo'lib, maxsus ravishda o'rganilishi lozim.

O'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim sharti sifatida ularning o'quv va o'qishdan tashqi xilma-xil faoliyatlarining birligi to'g'risidagi tushunchalar bilan bog'liqdir.

O'quv va ma'naviy-ahloqiy tarbiya faoliyati bir-birlarini to'ldirish lozim: Gurux rahbari tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir sistemaning bo'lishi mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish protsessiga rahbarlik qilishni takozo etadi.

Biror maqsadga qaratilgan tarbiya protsessida tarbiyalanuvchilarning jismoniy hamda ma'naviy-ahloqiy yetukligi o'sib borishiga qarab ularning mustaqilligi va ijodiy aktivligi ortib boradi. O'quvchilar kollektivining ongliligi ortib borishi bilan tarbiyachining vazifalari o'zgaradi. Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topadi.

8.3.O'quvchilarda bilim faolligini taraqqiy ettirish va ularning bilim sifatini oshirishda guruh rahbarining vazifalari.

O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda gurux rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg'otish. Bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

2. O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish.

O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lishlik ta'limning ijtimoiy, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Gurux rahbarlari o'quvchilarga ularning bosh vazifasi – o'qish ekanligini tushuntirishi kerak. O'qishga mas'uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o'qituvchilar, ota-onalar va o'z oldidagi mas'uliyat, ularning fikrlari, ma'qullashlarini eshitishga intilish, gurux , o'quv jamoasida munosib o'rinni egallashga ham tegishlidir.

3. O'quv madaniyatini oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat hollarda, o'quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Gurux rahbarining va fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o'quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog'liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik, saranjomlikka o'rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni yengish.
6. O'quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish.

Bu degani o'quv mehnatini o'quvchining dam olishi bilan to'g'ri almashtirib borilishidir.

7. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish.

O'rtoqlarcha o'zaro yordam gurux da ulgurmovchilikning oldini oladi, gurux jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

8. Gurux o'qituvchilari bilan hamkorlik.

Gurux rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu gurux da dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

Endi bevosita ana shu ishlar mazmuni bilan tanyshib chiqamiz.

Gurux rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish nafaqat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ish ekanligini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz, butun xalqimiz kollej dargohidan chuqur bilimli, hayotga har tomonlama tayyorlangan kishilarning yetishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida gurux majlislarida, har bir o'quvchi bilan alohida yoki bir guruh o'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda gurux rahbari batafsil gapirib beradi. O'qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil yondashish, katta mas'uliyat bilan qarash kerakligi bolalarga tushuntirib boriladi.

«Bilim – takrorlash mevasidir», – degan edi Abu Rayhon Beruniy. Gurux da va uyda ko'p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o'qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi. Bolalarni o'qishga mas'uliyat bilan qarash ruhida, ko'chirib olishga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kerak.

Gurux majlislarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmun-mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o'quv mashg'ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o'quvchilarga sezilarli ta'sir o'tkazish kerak.

Gurux ning o'zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi, bu borada gurux devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo'llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko'p kollej larda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. O'quvchilarga biror bir fan bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda «Agar tirishsang, bu sening qo'lingdan keladi» degan gapni uning qulog'iga quyish kerak. Buni o'quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o'qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To'g'risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o'quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo'lishi kerak. O'quvchi topshiriqni puxta qilib

bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o'rganishga, o'z bilimni chuqurlashtirishga harakat qiladi, o'zi yasayotgan o'quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. SHu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, gurux va kollej jihozlarini avaylashga o'rganadi.

8.4.O'quv mehnati madaniyatini oshirish.

Kollej o'quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir. Kollej hovlisidagi bog', tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jarayon – daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o'tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar yetishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu hol ularni botanika, geometriya, jo'g'rofiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o'rganishga rag'bat uyg'otadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarning mohir ustalari bo'lib yetishish mumkinmi? Bolalarga ijtimoiy fanlarga qiziqishni orttirish uchun ularni turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Huddi shuningdek, fizika, ximiya, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o'quvchilarda havas o'yg'otadigan juda katta hayotiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda gurux larni, o'quv xonalarini va kollej binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg'otadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyg'otadi.

Bugungi kunda turli fanlar bo'yicha qiziqarli adabiyotlar nashr qilinmoqda: «Mashhur kishilar hayotidan», «Qiziqarli matematika», «Qiziqarli botanika», «Qiziqarli jo'g'rofiya», «O'simliklar hayoti», «Bizni o'rab turgan olam», «Tariximizga bir nazar» va hokazo ilmiy-ommabop turkumdagi bu kitoblar o'quvchilar qo'liga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap. Kitobdan ham yaqinroq do'st, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi bormi o'zi?

O'quv jarayonida fanlar bo'yicha o'zaro bog'lanishga katta e'tibor berish kerak. Bundan o'qituvchiyu o'quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar yechish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o'lchov birliklari qo'llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o'rganadigan mavzular bo'ladiki, ularda ikkala fan o'qituvchisi ham bir darsda o'z sohalari bo'yicha tushuncha bersalar nur ustiga nur bo'ladi. Adabiyot-tarix, mehnat-botanika, tarix-jo'g'rofiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. Bolaning muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda yondashish va fan asoslarini o'rganishga havas uyg'otish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarni bilish faolligini takomillashtirish uchun to'garak, fakul'tativ mashg'ulotlari jarayonida kengroq foydalanish lozim. Gurux rahbari o'z o'quvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida ma'lumotlar bilan fan o'qituvchilarini tanishtiradi, bolaga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham bo'ladiki, biror fandan o'zlashtirmayotgan

o'quvchi bilan gurux rahbarining o'zi bevosita ish olib boradi. «Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qo'ymaymiz», deb dalda beradi shogirdiga. Kerak bo'lganda, a'lochi o'quvchilarni yoki ushbu fan o'qituvchisini ham ko'makka chaqiradi. Bundan o'quvchini ko'ngli tog'dek ko'tariladi, yolg'iz emas ekanligini tushunadi, topshiriqni o'zlashtirishga harakat, havas uyg'onadi.

Bolalarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas'ullikni sezmagani o'quvchi pala-partish o'qiydi. Mas'ullik kishini sergak torttiradi, o'quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi

Ma'lumki, ongli intizom va mas'uliyat hissini sezish kollej da olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

Bolalarning intizomli bo'lishida gurux rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, gurux da aniq rejim va ichki tartib o'rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

Bu ishlarni gurux rahbari bir o'zi emas, balki o'qituvchilar, gurux jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Gurux da intizomni saqlash va joriy qilish faqat gurux rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto'g'ri fikr. Intizom uchun butun gurux, pedagogik jamoa mas'uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. SHunisi ham borki, ko'p vaqt qilingan mehnatni bir paytni o'zidayoq yo'qqa chiqarish mumkin. Masalan, gurux rahbari va ayrim fan o'qituvchilari darslarida bolalar jim, intizomli o'tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o'quv yumushlari bilan band bo'lishadi; ba'zi o'qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog'oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o'qituvchi tajanglashadi, o'quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir kollej hayotida uchrab turishi tabiiy.

Nega shunday bo'ladi? Bu holatda o'sha fan o'qituvchisining o'zi aybdordir. Negaki u dastlabki mashg'ulotlaridayoq o'z «siri»ni bolalarga oldirib qo'ygan. Uta ko'ngilchan, so'zlari, harakatlari ta'sirsiz, bo'shang, muloyim, bolalarni o'ziga jalb qilolmaydi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega emas.

Xo'sh natija nima bo'ladi? O'qituvchi o'z kayfiyatini buzadi, jismonan charchaydi, o'quvchilarni uradi, dars maqsadiga erishish u yoqda tursin, darsni to'liq o'tolmaydi, bundan ham yomoni o'quvchilar intizomini buzadi, gurux da tarqoqlikni, boshboshdoqlikni vujudga keltiradi. Mana, sizga birgina bo'shang o'qituvchining keltirgan ziyoni.

O'quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni kollej ga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, uy vazifalarini bajarishga, saranjomlikka o'rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash – kollej ning' asosiy vazifasi hisoblanadi.

Gurux rahbarlari huddi shunday holatlarga o'z e'tiborlarini qaratishyaari lozim. Butun gurux o'qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo'llikni, gurux da intizomni saqlash, o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo'yish lozim.

SHarqning faylasuf shoiri SHayx Sa'diy:

Agarda muallim bo'lsa beozor,

Bolalar gurux ni qilishar bozor,

deb bejiz aytmagan.

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda bolalarning partada qimirlamay o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'zicha intizom o'rnatmoqchi bo'ladilar. Gurux ga qosh-qovog'idan qor yog'dirib kiradilar, dag'-dag'a qilib bolalarni siquvga oladilar, gah desa qo'lga qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Zo'rvonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu murg'aqk qalblarga adovat urug'ini sochadi, ularni sovuqqon, qo'rqqoq, jur'atsiz, yolg'onchi, ozurda qilib qo'yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o'quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg'in, ijodiy, ko'rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg'otish, lol qoldirish, dars o'tilgach birorta ham o'quvchini «beish» qoldirmaslik – har biriga o'ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Intizomli bo'lish nafaqat kollej da, balki o'quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. CHunki, inson hayotining chigal va murakkab so'qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

9- Mavzu: O'quvchilarda intizomlilikning tarbiyalashning

usul va metodlari.

9.1. Intizomni mustahkamlash va o'quvchilar mas'uliyatini oshirish.

9.2.O'quvchilarga nisbatan talabchanlikni oshirish.

9.3. O'quvchilarda hulq madaniyatini tarbiyalash.

9.4.O'quvchilarda xulq madaniyatini, odatini va ko'nikmasini hosil qilish.

Tayanch tushunchalar:

O'quvchi, guruh rahbari, dars, guruh xonasi, intizomlilikni tarbiyalash, jamoa topshiriqlari, tarbiyaviy ishlar, ijodkarlik, iqtidor, hulq-atvor, tarbiya, faoliyat va hokazo.

9.1. Intizomni mustahkamlash va o'quvchilar mas'uliyatini oshirish.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari. Guruh rahbari o'z o'quvchisini doimo o'rganib borishi uchun faqat o'quvchilar bilangina emas, balki o'qituvchilar bilan, o'quvchilarning ota-onalari bilan ham ish olib borishi kerak. Guruh xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Guruh rahbarining ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridan foydalanish va o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishini, to'garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

O'quvchilarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Guruhdan va kollejdin tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor o'quvchi shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

9.2. O'quvchilarga nisbatan talabchanlikni oshirish.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbari o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy tarxiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishidir;

shaxsning aqliy, ahloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishi;

yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi 'issini uyg'otish;

o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

har bir o'quvchini bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarda joriy qilib ko'rish. O'quvchilar

ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlar uchun shart-sharoitlar yaratish;

insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, birg'birini tushunadigan, mehribonlik, shaftaqlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilik, tuxmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanilishi lozim;

vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat – muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, bayrog'iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

qonuniy jamoa ahloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;

mustaqil respublikamiz O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va holisona baho berishga o'rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ochiq-oshkora tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatni to'g'ri tushuntirmog'i kerak.

turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish;

barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o'rgatish;

o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish;

insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odeb-ahloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;

marakaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlaridagi xikmat, o'git va nasihatlarni o'rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

tabiatga to'g'ri munosabatning mohiyatini, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo'yicha bilimlar berish;

ota-ona va vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

o'z-o'zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va xurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilishini saqlash, ma'naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, yaxshini-yomondan ajrata olish bilimiga ega bo'lishini tushuntirish;

ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

o'quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish;

darslarda ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;

odob-ahloqqa xos sifatlarni o'quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;

ahloqiylikning oddiy hayotiy qoidalari bo'lishi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini e'zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi. O'quvchilarni tarbiyalashda (o'quvchi) o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

tarbiyaning o'quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini hisobga olish;

o'quvchilarning aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'sirini o'rganish;

o'qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san'at va mahorati;

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o'yin, tabiatda, baxs-munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

9.3. O'quvchilarda hulq madaniyatini tarbiyalash.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik – ta'lim-tarbiya amaliyotga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish.

2. Tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish.

3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o'rganib borish.

4. Tarbiya jarayonida o'quvchi bilan o'quvchi faoliyatini optimal-lashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.

5. Ilmiylik – yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish.

6. Buning uchun o'quvchilarni rejadagi mavzular asosida amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir.

7. Ilg'or tajribalarga suyanish.

8. Tarbiyaning maqsadini aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o'quvchining ijodiy mustaqil faoliyati, tarbiya jarayonida maqol, matal, ertaklardan o'rinli foydalanish, o'yin teks savollari, ko'rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.

9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o'qituvchi nazariy chuqur bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Guruhlarda darslarni turli shakllarda tashkil etish lozim:

1. O'yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joylarda, mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyli va zamonaviyligi bilan odob-ahloq tushunchalarini tarbiyalashga qaratilishi.

2. O'quv mashg'ulotini rang-barang usullar: audio, video, ko'rgazmalilik, jonli so'z ta'sirida tashkil etilishi.

3. O'qituvchini yangi texnologik mahoratga ega bo'lishi va ijodkorligi.
Tarbiyaviy soatlarni maqsadiga ko'ra xilma-xil shakllarida tashkil etish:

1. Ijodiy dars.
2. Ertalik darsi.
3. Baxs.
4. Suhbat.
5. Sayohat darslari.
6. Uchrashuvli dars.

9.4.O'quvchilarda xulq madaniyatini, odatini va ko'nikmasini hosil qilish.

YAngi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televidenie, ma'naviy o'yinlar, mushoiralar qo'llanilishi mumkin. Kishilik jamiyatining har bir sohasi u yoki ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishini xalq og'zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarida, afsona, doston, ertak, hissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikrli, dono, ma'rifatparvar, mutafakkirlarimizning asarlarida atroflicha talqin etilgan. SHu asarlardan o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asarlardan keng foydalanish mumkin. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyasi odobligi, uning muomalasida namoyon bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari
2. Guruhlarda darslarni turli shakllarda tashkil etish yo'llari
3. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda pedagogik texnologiyalarning o'rni
4. Guruh xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'siri
5. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishi
6. Guruhdan va kollejdanda tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning asosi ekanligi
7. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holda keltirish
8. O'quvchilar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlar uchun shart-sharoitlar yaratish

10- Mavzu: Guruh raxbarining oila va jamoatchilik

bilan olib boradigan ishlar.

10

.1. OILA TARBIYASINING MILLIY HUSUSIYATLARI

10.2.GURUH RAHBARINING O'QUVCHILARNING OTA – ONALARI BILAN OLIB BORADIGAN ISHLARI.

10.3. OTA – ONALARNING FAOLLARI BILAN ISHLASH.

10.4. JAMOATCHILIKNI BOLALAR TARBIYASIGA JALB ETISH.

Tayanch tushunchalar:

Komil inson, uzluksiz ta'lim, pokiza, hulq-atvor, tarbiya faoliyat o'z-o'zini tarbiyalash qadriyatlar g'oya tarbiya vositalari tushuntirish va hokazo.

10.1. OILA TARBIYASINING MILLIY HUSUSIYATLARI.

Oila – tarbiya o'chog'i. Oila – jamiyat negizi. Har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan, mafkuraviy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga ezgu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqloq g'oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi.

Mamlakatimiz tarixda ilk bor tashkil etilgan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatiga hamohang bo'lib, oilaga taalluqli boy va sarmazmun milliy an'analarni avylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining xuquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o'rganish, oilaviy hayotga bog'liq muammolarni tadqiq etish shva fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishdan iboratdir.

Markazning muhim maqsad va vazifalaridan biri oila kontsepsiyasini yaratish va uni hayotga joriy etishning uslub va vositalarini joriy etish orqali hukumatimizning ijtimoiy sohadagi insonparvar siyosatini amalda har bir fuqaro ongiga oila instituti orqali singdirishdan iboratdir.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov har chiqishlarida oila masalalariga katta e'tibor berar ekanlar, uning tarbiya beradigan maskanlar orasida eng muhimi qadriyat ekanligiga oid fikrlari alohida ahamiyatga ega. «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor oila hayotning abadiylikni, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor». Mustaqillik yillarida respublika hukumati va Prezidenti I.A.Karimov tomonidan oilaga ko'rsatilayotgan e'tibor, yillarga maqom berilayotganda oilani mustahkamlash, nikohni qadriyat sifatida e'zozlashga qaratilgan chora tadbirlar tom ma'noda yurtimizda oila va farzandlar hukumatning doimiy g'amxo'rliq ekanligidan dalolatdir.

Taqdim etilayotgan kontsepsiya oila institutini yurtimizda yanada mustahkamlash, u orqali milliy istiqloq g'oyasini fuqarolar ongiga singdirish ishlari uchun dasturulamol bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, yangilanish jarayonlari va islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ozod va obod Vatan, rivojlangan fuqarolik jamiyati barpo etish, shu tarzda xalq farovonligini ta'minlash, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash, oilaning barqarorligiga erishish ekan, oila bag'ishlangan kontsepsiyaning vujudga kelishi o'ta dolzarbdir. Zero,

Respublikamiz o'z iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, jamiyatni erkinlashtirish va demokratiyalash siyosatini izchil olib borar ekan, bizga jamiyatning negizi bo'lgan oilalar muammolari va istiqboliga qaratilgan kontseptsiya zarur. Darhaqiqat, kontseptsiya O'zbekistondagi oilalarning rivojlanishi istiqbolini tasavvur qilish, oila borasidagi ijobiy va muammoli masalalarni oldindan bashorat qilish uchun, mavjud muammolarning sabab va omillarini belgilab olish uchun ham xizmat qiladi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki «Oila» kontseptsiyasini yaratish va bu bilan bog'liq ishlarning dolzarbligi hamda bajarilishining maqsadga muvofiqligi mustaqillik yillarida Respublika rahbari I. A. Karimov tashabbusi bilan yillarga berilgan maqomlar doirasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining oilani, ona va o'quvchini ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilganligi, xukumat tomonidan oila manfaatlariga ajratilayotgan sarmoyalarning amalda oqlanishi zarurati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 5 fevral' 6-sonli «Ona va o'quvchi» Davlat dasturi to'g'risidagi qarorida belgilangan vazifalarning muhimligi va dolzarbligidan ham kelib chiqadi.

Oila va jamiyat - mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oilada jamiyatning tub mohiyati va muammolari o'z aksini topadi. SHuning uchun ham oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bagrida voyaga etadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. SHu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Guruhdan va maktvbdan tashqari tarbiyaviy ishlarni ko'ngildagiday olib borishda o'sib kelayotgan yosh avlodni etuk va barkamol inson qilib tarbiyalashda oila va mahalla hamkorlikda ish olib orishi lozim deb o'ylayman. CHunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, axil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarosi bo'lishlari lozim.

10.2.GURUH RAHBARINING O'QUVCHILARNING OTA – ONALARI BILAN OLIB BORADIGAN ISHLARI.

Kollej va kollejdand tashqari muassasalarning tashkiliy shakllarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishini talab etmoqda.

Guruh va kollejdand tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun guruhdan va kollejdand tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

Ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir o'quvchi, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy xuquqini e'tiborda tutish zarur.

Milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish.

- Pedagoglar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarni shakllantirish. Guruhdan va kollejdand tashqari ishlar o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlardagi o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytradi, o'quvchilarni mustaqil bilim olishlari, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Guruhdan tashqari

tashkil etiladigan tadbirlarda fan o'qituvchilari o'z faniga qiziqqan o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tqazib, o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi. Guruhdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- A) fan to'garaklari
- B) mohir qo'llar to'garaklari
- V) sport to'garaklari
- G) badiiy havaskorlik to'garagi

O'rta umum ta'lim kollejlarda bu ishlarni guruh rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Guruh rahbari guruhdan tashqari ishlarni uyushtirishda to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Ularni qaysi to'garakda mashg'ul bo'lishlari hisboga olinadi.

Kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarni ijodkorlikka da'vat etuvchi tarbiyaviy maskandir. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi sharoitda kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi o'quvchilar uylari, yoshlar saroylari, yosh texniklar saroylari, yosh texniklar uylari kollej tarbiyasining uzviy davomchisi bo'lib qolishi kerak. O'zbekiston Respublikasining «Guruhdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasi», bu ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishda asos bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, nafosat va jismoniy jihatdan to'liq shakllangan kishilar qilib tarbiyalash dars jarayonidan boshlanadi. Biroq o'quvchilarning kundalik o'sib borayotgan ehtiyojlari, talablari va barcha qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilangina cheklab bo'lmaydi.

Bunday ko'p qirrali qiziqishlarni guruhdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlarni uzviy bog'lanish asosidagina qondirish mumkin. SHu sababli keyinga davrda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko'ngilli uyushtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Guruhdan va kollejdan tashqari tashkil qilingan ishlar – o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Guruhdan va kollejdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir. Guruhdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;

- o'quvchilarning guruhdan va kollejdan tashqari ko'p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari, guruh faollari yordamida yo'lga ko'yish;

- guruhdan va kollejdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, ota-onalar, guruh faollari, uslubiy yordam ko'rsatish;

- umumkollej va kollejlarda o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomonini ko'rish mumkin: 1- tashkilotchilik, 2- usuliy, 3-ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish

tarbiyaviy ishlarni maqsad va vazifalarini aniqlash

tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;

guruhdan va kollejdani tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Kollejda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan, uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishi qiyin.

10.3. OTA – ONALARNING FAOLLARI BILAN ISHLASH.

Guruh rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari

O'qituvchi-guruh rahbari, mehribon tarbiyachidir. Kollejning boshlang'ich guruhlaridagi muhim xususiyatlardan biri-biriga qadrdon o'qituvchi rahbarligida 4 yil hamkor, hamdard bo'ladilar.

SHu sababdan boshlang'ich guruh o'quvchilarning ota-onalar jamoasi bilan ham ishlash o'ziga xos xususiyatga ega:

Birinchi farzandlarini kollejga kuzatadigan ota-onalarning ish shakl va uslublari ko'p tajribali ota-onalardan farq qiladi.

Bular uchun «1-guruh o'quvchisi», «YOsh ota-onalarga esdalik» larni tavsiya etish talabga muvofiqdir.

Bu ish shaklidan maqsad:

Ota-onaning – o'quvchi ota-onasi nomiga sazovor bo'lish hissini uyg'otib, kollej oldidagi burchini anglatish.

Ota-onaning pedagogik, tarbiyachilik faoliyatini faollashtirish.

YOsh ota-onalar uchun esdalik.

Har bir inson farzand ko'rish va uni voyaga etib borishini to'rt ko'zlab, kuzatayotganidan Allohga hamdu sanolar aytib, u buyuk ne'matni qadriga eta bilishi lozim. Bu ne'mat o'quvchining kollejga birinchi qadamidir.

G'ulomiddin Akbarzoda «Ilm demak jon. Ilm demak madaniyat «dini odobiga sabib» demak, deb yozgan edi. Bas, shunday ekan ota-ona 1-guruh o'quvchisining ilm dargohidan ko'p bilim va tarbiyaga ega bo'lishi uchun nimalar qilishi kerak:

1. O'qituvchi muqaddas siymo u sizning maslahatchingiz, uni ardoqlab obro'-e'tiboriga sadoqatli bo'lish.

2. Guruh va kollej jamoasining ta'lim-tarbiya tadbirlariga faol qatnashib taklif va mulohazalaringizni aytish.

3. O'quvchingizda nima yaxshi, nima yomon ekanligini uqtirib sharqona rasm-rusm, udum an'analarimizdan xabardor qilish o'qituvchiga ko'makdosh bo'lish.

4. O'quvchingizning o'quv ishlariga yordam berib borish. Unga beriladigan topshiriqlarni bajarishda ularga yordamingizni berish.

5. O'quvchingizda kollej, guruh, o'qituvchi va o'rtoqlarga nisbatan yaxshi fikr uyg'otish, chunki 1-guruh o'quvchisining kollej sharoitiga moslashtirish ancha murakkab ruhiy holatdir.

6. Farzandingizdan kundalik ish faoliyatidagi munosabatini kuzatib, so'rab borish. Bunday suhbatda yaxshi, juda yaxshi, marhamat, rahmat, baraka top kabi sehrli so'zlarni, nojo'ya harakat sodir bo'lgan bo'lsa, «chakki ish bo'libdi», «men kutmagan edim» kabilarni ishlatish.

7. Ota-ona kollejning yaqin yordamchisi bo'lishi, ko'makdoshi o'z farzandining kamoli bilan yashashi kabilar.

10.4. JAMOATCHILIKNI BOLALAR TARBIYASIGA JALB ETISH.

Birinchi ota-onalar guruh majlisini tashkil qilish metodikasi

Har bir o'quv yilining boshida o'tkaziladigan ota-onalarning guruh majlisini ilmiy, nazariy, ma'naviy va metodik jihatdan mazmunan tashkil qila bilish ota-onaning bunday majlislarni orziqib kutib doimiy qatnashuvchi bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bundan majlis o'qituvchidan ko'p bilim va mahorat talab etadi.

Daslab undagi masalalar yuzasidan tayyorgarlikni bir oy oldin boshlash kerak. Bular: har bir oila a'zosi va shart-sharoiti haqidagi ma'lumotga ega bulish:

oila va atrofdagi ijtimoiy munosabat muhitini soz yoki nosozligini aniqlash;

har bir o'quvchi shaxsi hahida to'liq ma'lumotga ega bulish;

oilada o'quvchini kollejga tayyorlash tartibi kabilar.

Birinchi majlisni o'tkazishdan oldin o'qituvchining tayyorgarligi:

Majlis mavzusi va maqsadini aniqlash.

Majlis o'tadigan joyni jihozlash.

Majlis o'tkazish metodini tanlash; suhbat, tushuntirish.

Kollej tarixi va kelajakdagi rejalari haqida qisqa ma'lumot tayyorlash.

Ota-onalar jamoasi nizomini ko'rgazma tariqasida tayyorlash (kollej rahbariyatining nizom haqidagi chiqishini hozirlash).

6. Guruh ota-onalar qo'mitasini saylash.

Birinchi ota-onalar majlisi samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiga bog'liqdir. Uning o'zini tutishi, muomalasi, ishbilarmonligi, har bir o'quvchi va oilasi haqida ma'lumotga ega bo'lishi, ota-onalarga ijobiy taassurot qoldiradi.

Kuzatishlarimiz shuni kursatadiki, kollejdagi ota-onalar majlisini yuqori saviyada bo'lmasligi ota-onalarni kollejdand sovitadi.

Tayyorgarliksiz, bu sizni o'quvchingiz yaxshi, sizniki yomon deyish yoki tabellarni berib qo'l qo'ydirishdir.

Ayniqsa «yomon» o'qiydigan o'quvchilarning ota-onalarini jamoa orasida obro'sizlantirishga intilish holatlari, ota-onalarni kollejdand uzoqlashib ketishiga sabab bo'ladi.

Bunday majlislardan voz kechish kerak. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining milliy istiqlol mafkurasini mustahkamlovchi yangicha munosabat kollej – ota-onalar yosh avlodning tarbiyasiga zarurdir.

Har bir ota-onalar majlisi ulkan maqsadga qaratilgan, turli shakllarda tashkil qilish, talabga muvofiqdir. YA'ni:

– «Pedagog maslahatiga amal qilamiz» mavzusidagi majlislar;

– «Uchrashuvchi majlis», (olim, tibbiy xodim, san'at madaniyat arboblari);

– bahs majlislari: ta'lim-tarbiyaga doir mummolar yuzasidan yoki pedagogik adabitlar yuzasidan; «Merosga ixlos» majlislari;

– o'quvchi tarbiyasiga doir Qur'oni Karim, Hadis va mutafakkirlarning dono fikrlaridan foydalanish;

– guruh ota-onalar majlisini o'tkazish tartibi;

– guruh o'qituvchisi va ota-onalar qo'mitasi a'zolarining oldingi majlislarida qabul qilingan qarorlarining bajarilishi haqida axborotlari eshutiladi.

Majlis maqsadiga ko'ra mavzuning e'lon qilinishi (yuqorida ko'rsatilgan majlis turiga ko'ra uning mazmuni asoslab beriladi).

Ota-onalar fikr va mulohazalari eshutiladi. O'quv-tarbiya ishlaridan savol va talablarni muhokama etiladi.

Turli masalalar hal qilinadi. Guruh majlisi qarori chiqarilib, tasdiqlanadi. O'qituvchi kelgusi majlis rejasi bilan tanishtiradi. Majlis o'tkazish tartibi mavzuning o'ziga xos xususiyatiga kura o'zgarib boradi.

Ota-onalarga pedagogik bilim berish shakl va rejalari

Inson kamoloti shunchalik murakkabki unga hayotiy tajriba etarli emas uning uchun o'rganish, bilim, o'qish nihoyatda zarurdir. K.D.Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «Pedagogik adabiyot orasida»gi risolalarida Ota-ona uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o'rganishdan boshlanadi. O'quvchi tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug'orilgan-xalqchilik g'oyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon tarbiyachilik san'atiga ega bo'la oladilar», – deyilgan.

Pedagogik bilim ota-onalar uchun nihoyatda zarur. Bu bilim kollejda, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Lekin hayotimizdagi yangi-yangi muammolar pedagogik bilimni yanada kuchaytirishni, chuqurlashtirishni talab etadi.

Kollejdagi pedagogik bilim turli shakllarda amalga oshiriladi:

Pedagogik ma'ruza, ilmiy, metodik kengash.

«Savollaringizga javob beramiz» (ota-onalar kuni).

Ota-onalar uchun ma'ruza

Ma'ruza ota-onalarga pedagogik bilim beradigan turlardan biridir. Ota-onalar uchun mo'ljallangan ma'ruza ta'limi-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Ota-onalar uchun pedagogik bilim beradigan ma'ruzalar mavzulari:

– millin istiqloq mafkurasini shakllantirish va barkamol inson tarbiyasida ota-onalar o'rni.

– oilada iqtisodiy tarbiya.

– ma'naviy meros va oila.

– siz o'tmish avlodlaringizni bilasizmi? Oilanoma yaratish masalalari.

– mutafakkirlar ijodiyotida oila tarbiyasi.

– farzand tarbiyasida xalqimiz qo'llagan usullar.

– oiladagi adolat –to'g'ri tarbiya asosidir.

– farzandingiz sahiy, muruvvatli bo'lsin desangiz?

– oilada iymon-e'tiqod tarbiyasi.

Ota-onalar uchun tanlangan mavzular quyidagicha rejalashtiriladi.

Mavzu: «Ma'naviy meros va oila».

Maqsad: Ota-onalarga o'tmish merosimizdan o'quvchini oilada tarbiyalash haqidagi mutafakkir va ma'rifaparvarlar asarlaridagi ta'limotlar haqida bilim berish.

Ma'ruzani ta'minlovchi manbalar:

a) utmish ma'rifatparvar va mutafakkirlarning asarlari (Abu Ali Ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», Alisher Navoiyning «Maqbul qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqiy Muxsiniy» asarlaridagi oila tarbiyasidagi g'oyalar.

b) ko'rgazmalar-allomalarning rasmlari va kitob namunalari. v) didaktik materiallar, dono so'zlar yozilgan kartochkalar, faktlar.

Ma'ruzaning kirish qismi

Mustaqillik va milliy istiqloq mafkurasi hamda milliy meros haqida tushuncha. Bu boradagi O'zbekiston rahbariyatining olib borayotgan siyosati.

Ma'ruzaning asosiy qismi

Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va Voiz Koshifiylarning asarlaridagi davomiylik g'oyalarining bir-biri bilan bog'langanligi, asarlarning yaratilishi haqida ma'lumot boriladi. So'ngra asardagi oila, ota-onaning hurmat, vazifa, burchlari haqidagi ma'lumotlar. Oilada ayol va erkak fazilatlarini qanday qilib farzand burchini anglatishi muammolari. Axloq-odob tarbiyasidagi dono fikrlar, rivoyat, hikoyat, tanbehlar orqali asoslab, tushuntirib kollej hayoti bilan bog'lanadi.

Ma'ruzaning yakuniy qismi

Milliy merosimizdan qanday foydalanishga doir metodik ko'rsatma va tavsiyalar beriladi.

Kollejda «Ota-onalar kunini» tashkil qilish pedagogik bilim berish turlaridan biridir. Ota-onalarni kollejga ma'lum kunda taklif etib turli o'quv-tarbiya ishlaridan xabardor qilish an'anaviy ahamiyatga ega bo'lib, u «Kollejda ota-onalar kuni» yoki «Ochiq eshik»lar kuni deyiladi.

Bu kundagi ish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Pedagogik maslahat burchagini tashkil etish.

O'quvchilar ijodiyotidan kurgazmalar uyushtirish.

Ochiq darslarga ota-onalarni taklif qilish.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Ota-onalar uchun kontsert dasturini namoyish etish.

YUqoridagi ota-ona va kollej hamkorligidagi ishlar metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa ijobiy natija beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Guruh rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari
2. Birinchi ota-onalar guruh majlisini tashkil qilish metodikasi
3. Kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarni ijodkorlikka da'vat etuvchi tarbiyaviy maskan ekanligi
4. Oila – tarbiya o'chog'i. Oila – jamiyat negizi ekanligi
5. Guruhdan va kollejdan tashqari tashkil qilingan ishlar – o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni mustahkamlaydi
6. Guruhdan va kollejdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalari
7. Guruh rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari
8. Birinchi ota-onalar guruh majlisini tashkil qilish metodikasi

11- Mavzu: Ta'lim muassasalarida o'quvchilari shaxsini har tomonlama kamol toptirish.

11.1. SHahsni har tomonlama kamol toptirish – ta'lim muassasasining asosiy vazifasi.

11.2. Aqliy tarbiya – shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda alohida muhim o'rin egallaydi.

11.3. O'quvchilar ahloqiy tarbiyasining vazifasi va mazmuni.

11.4. Ahloq – insonning, oilaning, davlatning, jamiyatning gultojidir.

11.5. O'quvchilar mehnat tarbiyasi bo'yicha sinf rahbari amalga oshiradigan ishlarning mazmuni va vazifasi.

11.6. O'quvchilar nafosat tarbiyasining asosiy mazmuni va vazifalari.

Tayanch tushunchalar: barkamol shaxs, aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi.

11.1. SHahsni har tomonlama kamol toptirish – ta'lim muassasasining asosiy vazifasi.

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, inson tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim tamoyillari, qonun-qoidalari mavjud, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi:

Tarbiya jarayonining tamoyillari quyidagilar:

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog'lanishi;
- shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada shaxsni hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada shaxsning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kabilardir.

Yuqoridagi tamoyillar va qonun va qoidalarga amal qilib, yangi ijodiy uslublarni qo'llab, rivojlantirib tarbiyaviy jarayonni tashkil etish maqsadga erishishning eng samarali yo'lidir.

Har qanday faoliyatda sifat va samaradorlikka yerishish hozirgi kunimizning muxim talabi xisoblanadi. O'quv yurtidagi asosiy faoliyat o'qishdir. SHuning uchun tarbiya o'qish faoliyati bilan qancha ko'p bog'lansa, uning mazmunida tarbiyaviy

tomon qancha kuchli bo'lsa, tarbiya bilan ta'lim birligi barcha choralar bilan xal qilinsa, u xolda muvoffaqiyatga erishish shuncha osonlashadi.

Ammo tarbiyaviy ta'sir ta'lim bilan cheklanmaydi. Uning mazmuni darsdan tashqarida talabalar faoliyatini uyushtirish, turli tuman tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali to'latiladi va xal qilinadi. Mana shu tarbiya jarayonining samarasini oshirish nimalarga bog'liq?

Tarbiyaning samaradorligini oshirish dolzarb va murakkab muammodir. Samaradorlik deganda esa xar qanday faoliyatda eng kam kuch sarflash va moddiy jixatidan kam xarajat qilgan xolda, qisqa vaqt ichida ko'zlangan maqsadga to'la erishish tushiniladi. Garchi buni tarbiyaga tadbiriq etadigan bo'lsak, unda qulaylik tomoni xam xisobga olinadi. Lekin uning amalda xal qilinishi ma'lum shart-sharoitga bog'liq bo'ladi. Bular, avvalo tajribada qat'iy tizimning bo'lishini taqazo etadi. Tajribadagi tizimchilik istagan pedagogik tadbirning muntazam uyushtirilishi deb tushiniladi. Ba'zi o'quv yurtlarida qobilyatli, ijodiy izlanuvchan gurux raxbarlari tomonidan tarbiyaviy ishlarning maxsuldor natija beradigan tizimi vujudga keldi. Ammo ayrim gurux raxbarlarining tajribasida umumiy tizimning faqat ba'zi tarkibiy qismlarigina bor, xolos. Boshqalarida esa tizim o'rniga turli tadbirlarning tartibsiz to'plamiga duch kelamiz. Ana shunday xolda tarbiyaviy imkoniyat bilan natija o'rtasida uzviylik yo'qoladi. Bu xolning vujudga kelmasligi uchun gurux raxbari faoliyatida tarbiyaviy ishlarning tizimi bo'lishi shart.

Tarbiyaviy ishlar tizimi o'z belgilariga ega bo'lib, gurux rahbari shularni esda tutishi va quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Tarbiyaviy ish tarbiyaning umumiy maqsadiga bo'ysunishi va ayni paytda aniq vazifaga bog'lanish kerak;

2. Tarbiyaning mazmuni, metodi, usuli, tashkiliy shakl va boshqarish jarayonining yaxlit xamda bir butunligini ta'min etishi kerak. Bular o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib ulardan birining o'zgarishi butun tizimning o'zgarishiga olib keladi;

3. Tarbiyadagi dinamiklik istagan tizim o'z o'tmishiga, xozirgi darajasiga va kelajak istiqbollariga ega bo'lishi kerak;

4. Tarbiyaning boshqarilishi—tarbiyaviy ish tizimi tarbiyachidan qilingan ishning natijasini o'rganib borishni, o'z ishini taxlil qilish uslubini egallab borishni taqozo qiladi;

5. Tarbiya ishlari atrof—muxit bilan davr ruxi bilan bog'lanib borishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar tizimi o'z mazmuniga ega. Buni tarbiyani umumiy mazmuni va guruxning imkoniyatiga mos keladigan xajmi belgilaydi. Lekin tarbiyaviy ishlar tizimi qotib qolmagan mazmunan va shaklan muntazam yangilanib turishi va bu tarbiya jamoaning extiyoji sifatida vujudga kelishi lozim.

11.2. Aqliy tarbiya – shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda

alohida muhim o'rin egallaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kelib chiqayotgan yangidan-yangi muammolarni ilmiy asosda hal qila oladigan shaxsni tarbiyalash bosh masala hisoblanadi. Buning uchun esa aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatiga o'rgatish zarur. Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va faktlardan foydalanishning o'zi yetarli emas, buning uchun fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, sistemalashtirish, taqqoslash, asosiy ma'lumotni ajratib olish kabi jarayonlarni ham faol qo'llash lozim bo'ladi. Bularning hammasi dars vaqtida amalga oshirib borishi aqliy mehnatni to'g'ri tashkil qilish malakasini shakllantirish kerak. Aqliy mehnatni to'g'ri tashkil qilish, talabalarga mustaqil bilim olishda eng muhim element bo'lib hisoblanadi. Aqliy tarbiya o'quvchilarda aqliy mehnatni to'g'ri tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish, malakasini hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Aqliy tarbiya talabalarda didaktikani jamlab olish xususiyati, xotirasini mustahkamlash, fikrlash operasiyalarini rasional o'tkazish kabi malakalarni o'stiradi.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehqli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik - bu donolik. Donolik - bu insonning eng buyuk va oliyjanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», - deyiladi.

11.3. O'quvchilar ahloqiy tarbiyasining vazifasi va mazmuni.

G'oyaviy axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi g'oyaviy axloqiy jixatidan yetuk va faol yoshlarni tayyorlashdir. Eng muhim vazifalardan esa, bu talabalarni axloq talablariga muvofiq takomillashtirishga tomon yo'naltirishdir. Xar bir talaba o'zini-o'zi tarbiyalashning maqsadini aniqlab olishga yordamlashmoq kerak. Buning uchun xar bir o'quvchining extiyoj va qiziqish darajasini o'rganish ularga o'z extiyojlarini jamiyat manfaatlariga, xalq etilayotgan ijtimoiy vazifalarga bo'ysintirishga, o'z jamoasi sharoitida vujudga kelayotgan extiyojlarni ko'ra olishga va nixoyat ularning xalq qilishning aniq shart-sharoiti va xaqiqiy imkoniyatlarni topa olishga o'rgatish gurux raxbarining burchidir. G'oyaviy axloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish, o'quvchilarni g'oyaviylik, baynalmilallik, vatanparvarlik ruxida tarbiyalash; shaxsning faol pazittsiyasini tarkib toptirish; axborotlar oqimida o'ziga to'g'ri yo'nalish oola bilishga o'rgatish; milliy g'oya uchun kurash jarayonida o'zining faol faoliyati bilan ishtirok etishga tayyorgarlik; mehnat faoliyatida g'oyaviy-axloqiy jixatdan tarbiyalashning axamiyati tobora ortib bormoqda. Talabalarni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy jixatdan tarbiyalash, ularda dunyoqarashni shakllantirish asosan darsda xalq qilinadi, lekin bu ish gurux raxbari faoliyatida aloxida o'rin tutish kerak. Lekin bu muxim masalani xalq etishda gurux raxbari quyidagi vazifalarni majmuali xalq qilish kerak:

1. Talabalarni ma'lum bir darajadagi siyosiy bilimlar, dunyoqarashga doir g'oya va tushunchalar bilan qurollantirish;

2. Talabalarda fuqarolik xislarini xosil qilish, ya'ni o'zining mamlakatdagi, xalqi xayotidagi voqealarga aloqador ekanligini anglashiga erishish, vatanparvarlik, baynalmilallik sifatlarini tarbiyalash;

3. Talabalarni ijtimoiy-siyosiy amaliyotga, ijtimoiy foydali ishlarga mexnat faoliyatigafaol jalb qilish yo'li bilan ularda ijtimoiy-siyosiy tajribani barpo etish.

Gurux raxbari talabalarning darsda egallagan g'oyaviy-siyosiy bilimlarni darsdan tashqaridagi turli tarbiyaviy ishlar vositasida kengaytirildi. Bu ishlar vaqt o'lchovining chegaralanmaganligi, emotsional ta'sir imkoniyatining kengligi shaxsiy extiyojga muvofiqligi tufayli talabalar tomonidan darsdagidan ko'ra boshqacharoq qabul qilinadi. Bu narsa ya'ni milliy g'oyalar xar bir kishining xulq-atvorida, xar bir jamoa va xar bir tashkilotning faoliyatidagi ishlar bilan uzviy bog'lab olib borilishi lozim. Ana shunga amal qilgan gurux raxbari xar bir talabani va butun gurux jamoasini faol ijtimoiy ishlarga jalb qiladi, ularda ijtimoiy axamiyatga ega bo'lgan faoliyatda qatnashish extiyojini uyg'otadi, bu esa g'oyaviy-siyosiy tarbiyaning natijasidir.

Talabalarning o'zlari gazeta va jurnallardan maqolalar to'plami gurux burchagida ko'rgamalar tayyorlashi, maxsus gazetalar chiqarishi, axborotlarni o'zlari mustaqil o'tkazishlari foydaldir. Yuqori kurslarda bu ishlarning mazmuni, shakli va metodlari yanada murakkablashadi, manbalar xajmi ko'payadi va ular xalqaro voqealarga doir ma'ruzalar talabalar anjumanlari, jamoatchilik muxokamalari, munozaralar shaklida o'tadi.

Siyosiy axborotlar talabalarda siyosiy bilimlarga chuqur qiziqish uyg'otish, gazeta o'qish, ichki va tashqi voqealarga doir radio eshittirishlarni va teleko'rsatuvlarni tinglash va kurish extiyojini tarbiyalash kerak. Gurux rahbari bolalarning turli xil voqealar haqidagi o'zaro muloxazalardagi noto'g'ri fikrlarni tuzatishi, ijtimoiy hayotning muhim voqealarini ilmiy asosda sharxlab berishi g'oyat muximdir.

Ayni vaqtda guruh raxbari talabalarning axloqiy shakllanishi, ma'naviy dunyosining tarkib topishi uchun xam g'amxo'rlik qiladi. Xalqimiz moddiy farovonligining, madaniy darajasining, ma'naviy dunyosining o'sib borishi, mamlakatimiz ma'naviy xayotida eng ilg'or va eng insonparvar ijtimoiy munosabatlar tizimining qaror topganligi gurux raxbari amalga oshiradigan axloq tarbiyasining muvoffaqiyatini ta'minlash uchun garovdir.

Talabalarning axloqiy shakllanishi faoliyat jarayonida ro'y beradi. Faoliyatni tashkil etish bilan guruh rahbari har bir talaba shaxsini g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarkib topishni ta'minlaydi. Talabalarni faoliyatning ma'lum bir turiga jalb qilish aniq maqsadga qaratilishi kerak.

Talabalarni axloq nazariyasiga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularni ijtimoiy xayot voqealaridan axloqiy tomonlarni ajrata olishga, axloq me'yorlariga muvofiq baxolashga o'rgatish bilan guruh rahbari yigit-qizlarning o'z xulqini axloq me'yor va qoidalari nuqtai nazaridan idora qila olishlariga erishadi.

Yoshlar bilan o'tkaziladigan odob va axloqqa oid suxbatlar ulaar ishtirok etadigan ijtimoiy foydali va unumli mexnat, turli xil ijod ishlari «Kamolot» tashkiloti faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda borsagina, ijobiy natija beradi.

Axloqqa oid suxbatlar samaradorligini ta'minlovchi muxim shartlardan biri talabalarning ongi bilan xulqi o'rtasidagi birlikni ta'minlash xisoblanadi. Axloqiy bilim berishdan maqad, tashqi ta'sirni ongli xarakat bilan bog'lovchi ichki istakka aylantirishni ta'minlashdir. Bunda u o'ziga ma'lum bo'lgan axloq me'yoriga rioya qilgan xolda to'g'ri xarakat qilish yo'lini tanlab olishga o'rganadi. Masalan, guruh rahbari o'z suxbatini shunday boshlaydi. «Avtobusda ketayotgan bir necha yoshlar qo'llaridagi radiopleyrni baland qo'yib, allaqaysi guruh ijrosidagi sershovqin kuy tinglab borardilar. Keksa ayol ulardan ovozni pasaytirishni iltimos qilib qoldi. Bunga javoban «Eshitgingiz kelmasa qulog'ingizni berkitib oling» dedi yoshlardan biri. Ikkinchisi esa vaziyatni yumshatish uchunmi, yoki noqulay axvoldan chiqish uchunmi xar xolda «Xolajon, siz zamonaviy kuylarni yomon ko'rarkansizda» dedi, uchinchisi esa, «Siz birginasiz, biz esa ko'pchilikmiz. Ko'pchilikni istagini xurmat qilish kerak buvijon!» deb qo'shib qo'ydi. Guruh rahbari talabalar bilan vujudga kelgan ushbu vaziyatni muxokama qilib, o'z fikrlarini bildirishni taklif qiladi.

Axloqiy bilim berishda guruh rahbari bilan oilaviy xamjixatlik g'oyat muxim omildir. SHuning uchun yoshlar bilan bir qatorda ota-onalar o'rtasida xam axloqiy tarbiyaga doir bilimlar tarqatish kerak. Axloqqa oid suxbatlarni bir oyda bir marta o'tkazgan ma'qul. Xar bir suxbatga 7-10 kun tayyorlaniladi. Suxbat vaqti 40-45 minutdan oshmasligi kerak. Navbatdagi suxbatga tayyorlik davrida guruh rahbari xamda yoshlar turli xil faoliyatda ishtirok etadilar. Mavzu tanlashda guruh rahbari mamlakatning ijtimoiy xayotida ro'y berayotgan voqealarga, o'quv materialining mazmuniga, talabalarning axloq me'yoriga doir bilimlari darajasiga asoslanadi.

Axloqiy ongni shakllantirishda guruh rahbari suxbatlar bilan bir qatorda tushuntirish, ma'ruza, namuna-ibrat kabilardan xam keng foydalaniladi. Ana shu jarayonda u talabaning axloqiy muloxazasini o'stirishga o'zining va boshqalarning xulqini axloq me'yorlari asosida baxolay olishga qaratilgan ishlarga, ularni jalb qilishga aloxida e'tibor berish lozim. Odatda talabalar o'rtoqlarining, atrofdagi kishilarning xulqidagi ijobiy, salbiy tomonlarni baxolay olganlari xolda o'z xulqidagi tomonlarga u qadar e'tibor berishmaydi va ularda o'z xulqini baxolash ancha kech ko'rina boshlaydi. Mana shuning uchun guruh rahbari talabalarni o'z xulqini baxolash ancha kech ko'rina boshlaydi. Mana shuning uchun guruh rahbari talabalarni o'z xulqini axloq me'yor va talablari asosida quyi kurslardan boshlaboq baxolashga o'rgata boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Guruh rahbari axloq tarbiyasini amalga oshirishda xar bir talabanning xulqiga, xarakter xislatlariga aloxida e'tibor berib borishi kerak. Guruhda pedagogik qarovsiz qolgan, tarbiyasi qiyin bolalarga ham uchraydi. Agar bu xil bolalarning xulqi o'z vaqtida tuzatilmasa, u jamiyatdagi axloq me'yorlariga xilof yo'nalish kasb etishi ham mumkin. SHuning uchun ham guruh rahbari bu xil yoshning xulqidagi salbiy yo'nalishni qancha tez aniqlasa, uni tuzatishga qanchalik tez va faol aralashsa, shuncha yaxshi ish qilgan bo'ladi.

Guruh rahbarining axloqiy tarbiyani amalga oshirishi metodik asosga ega bo'lsagina samara beradi. Buning moxiyati guruh rahbarining talabalarni axloqiy rivojlantirishga qay darajada ta'sir qila olishidadir, ya'ni talabanning yoshi, guruhi, shaxsiy xususiyati xisobga olinishi kerak.

Axloqiy mavzular yuzasidan munozaralar o'tkazish talabalarda axloqiy e'tiqod, qarash va nuqtai nazarni shakllantirishning muxim vazifasi xisoblanadi.

Munozara vaqtida guruh rahbari betaraf turishi foydalidir. Munozara oxirida guruh rahbari yakun chiqaradi. Munozara uchun yoshlarni to'liqlantirayotgan masalalar mavzu bo'ladi, masalan: «Xayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?», «Yashashning ma'nosi va xayotdan maqsad», «Inson qachon baxtli bo'la oladi?», «Zamonaviy bo'lishning ma'nosi nimada?».

Guruh rahbari xar bir mavzuning mazmuniga kiradigan masalalarni aniqlashda talabalarga yordam beradi.

Masalan: «Xayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?» mavzusi uchun asos qilib quyidagi masalalarni olish mumkin:

«Hayotda o'z o'rnini topish» iborasini qanday tushinasiz?

Qanday orzuni eskirgan deyish mumkin?

Baxt va xayotdan lazzatlanish, ular o'rtasida farq bormi?

SHaxsiy erkinlikni qanday tushunasiz?

Sizning g'oyangiz kabi masalalarni tavsiya qilish mumkin. «Yashashning ma'nosi va xayotdagi maqsad» mavzusiga.

1. Xayotning «ma'nosi» va «maqsadi» bir xil tushunchami?

2. Xayotimiz qo'ygan qadamimizga qanchalik va qay jixatdan bog'liq bo'lish mumkin?

3. «Qanday yashash kerak», «Nima uchun yashash kerak», bu masalalarning xar birini qanday anglash kerak?

4. «Yashashning ma'nosi» va «Baxt» tushunchalari o'rtasida o'zaro o'xshashlik bormi? Bo'lsa nimada, kabi masalalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir.

Munozara uchun tavsiya etilayotgan bu mavzular yoshlarning fikrini band qiladigan asosiy mavzular bo'lib, ulardan qaysi birini tanlash, qanday uyushtirish guruh o'quvchilarning ehtiyojiga, jamoadagi kayfiyat va qiziqishga bog'liq. Bu mavzular mazmuniga kiradigan masalalar xammasi axloq, ma'naviy xayot bilan bog'liq bo'lgan bo'lib, ular yuzasidan yuritiladigan baxslar yordamida talabalar axloqiy bilimga jamiyatdagi odamlar munosabati bilan bog'liq me'yor va qoidalarga oid tushunchalarga ega bo'ladilar, asta-sekin ularda ishonch va qarashlar tarkib topa boradi.

Guruh rahbari faoliyatining mazmuniga kiradigan axloq tarbiyasi faqat yuqoridagilar bilangina xal bo'la qolmaydi. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish murakkab jarayon bo'lib, asosiy e'tibor talablarda axloqiy ong, axloqiy xis, tushuncha, muloxaza kabilarga muvofiq axloqiy malaka va odatlarni shakllantirishga qaratilishi kerak.


11.4. Ahloq – insonning, oilaning, davlatning, jamiyatning gultojidir.

«Ahloq», «hulq» va «atvor» so'zlari arabcha so'z bo'lib ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi. Ayrim odatlarda «ahloq-kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmui» desa, boshqalar esa «ahloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma sohalarida kishilarning hatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi» deyishadi.

Ahloq me'yorlari hulq atvorning regulyatori sifatida odat me'yorlariga zid hatti-harakat ahloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo'lsa ahloq ixtiyoriydir.

Axloqiylikning biologik asoslarini o'rganish talabalarga axloqiylik har bir shaxsning biologik, fiziologik ehtiyoji ekanligini tushunishga yordam beradi. Biz quyidagi 3-rasm orqali axloqiy tarbiya mazmuni ko'rsatib o'tamiz.

Axloqiy tarbiya jarayonining dastlabki bosqichida shaxs axloq me'yorlariga ma'lum darajada to'g'ridan-to'g'ri bo'ysungan holda ko'r-ko'rona amal qilsa, axloqiylikning yuqori darajasiga etganda, to'g'ridan-to'g'ri ko'r-ko'rona bo'ysunnish ongli idrok etishga yakka shaxsning axloq me'yorlari va jamiyat axloq me'yorlari o'rtasida uyg'unlikning hosil bo'lishiga erishish lozimdir. Axloqiy madaniyatning muhim belgilaridan biri ham xuddi ana shu shaxs va jamiyat orasidagi uyg'un munosabatning, axloqiy birlikning hosil bo'lishidir. Axloqiylikning yuqori pog'onasida shaxs jamiyatning axloqiy me'yorlarini ongli ravishda qabul qiladi hamda o'z xulq-odob yo'nalishini mustaqil ravishda tanlaydi. Ushbu me'yorlarni burch va vijdon mezoni sifatida qabul qiladi.



3- rasm. Axloqiy tarbiya mazmuni.²

Ahloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi. Ahloqiy

²□Manba: Rasm mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

tarbiyada yaxshi hulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq ta'limi tizimida o'qitish tarbiyalanuvchilarning ahloqiy mukammallashish bilan bog'liq bo'ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o'z hulqiga munosabatlarni quyidagilarda o'z aksini topgan:

a) jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;

b) mehnatga ahloqiy munosabatni tarbiyalash;

v) atrofdagi kishilarga ahloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish;

g) shaxsning o'ziga, o'z hulqiga, ahloqiy munosabatni tarbiyalash.

Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonini Alpomish, To'maris, Shiroq kabi xalq qahramonlari; A.Temur, Ulug'bek, Bobur singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy kabi olimu fuzalolarimiz qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishning asosini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda tarbiya borasidagi jahon standartlariga ham e'tiborni qaratmoq lozim. Estetik tarbiya ancha keng ma'noga ega bo'lib shaxsni tabiat va jamiyatdan go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o'rgatadi.³

Tarbiya turlarining hammasi bir-birlari bilan o'zaro uzviy bog'liq, lekin shunga qaramasdan o'z mazmunidan kelib chiqqan holda, ular o'z spesifikasiga ham egadir. Endi biz quyidagi: aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, xuquqiy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi tarbiya turlarining har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag'batlantiradi.

Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash - tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina o'quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir. Jumladan:

³ www.ZiyoNet.uz

1. Axloqiy onglilik.
2. Axloqiy qadriyatlar.
3. Axloqiy his-tuyg'ular.

Pedagogikada axloqiy tarbiyani rivojlantirishni bir necha uslublari mavjud bo'lib, bu uslublarni biz 2-rasm orqali ifoda etib o'tamiz.


Ekologik tarbiya

Ekologiya so'zi «tom» yoki «uy» degan ma'noni anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan birinchi bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani hozirgi bozor munosabatlari davrida ko'pgina tarmoqlarga ega: o'simliklar ekologiyasi, zooekologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekologiya fani tanlab olingan bir yoki bir necha obyektning yashash sharoitini yoki normalarini o'rganadi va yashashning optimal darajasini aniqlashga yordam beradi.

Bu yo'nalishdagi ishlar bizga ekologik bilimlarni yetkazadi, ammo bu bilan insoniyat cheklanib qolmaydi. Davr talabiga ko'ra, yana boshqa yo'nalishda ham ish olib borishni talab etmoqda. U ham bo'lsa **ekologik tarbiya masalasidir**.

Ekologik tarbiya albatta ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to'g'ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o'z oldiga talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg'ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi. Shunday qilib, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Ekologik tarbiya berishni tayyorlashning o'ziga xos mazmuni mavjud bo'lib, biz buni 4-rasm orqali ifoda etamiz.



4-rasm. Ekologik tarbiya berishning mazmuni.⁴

⁴ Manba: R.Mavlonova. Pedagogika.Toshkent. «Sharq». 2006 yil.

Yuqoridagi 4 – rasm orqali biz ekologik tarbiya berishning mazmuni, ya'ni, atrof muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri, tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarning namunalari kabi sifatlarni ochib berishga xarakter qildik.

Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur bo'ladi. Ekologik munosabatlarga:

1. Hayotga munosabat.
2. Yaxlitlik hissini tarbiyalash.
3. Javobgarlik hissini tarbiyalash.
4. Tabiat go'zalliklarini his etish kabi komponentlarni kiritish mumkin.

Huquqiy tarbiya

Huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongini, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko'zlagan holda ifodalanishidir. Huquqiy tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo'naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida huquqiy qarashlariga asoslanishi zarurdir.

O'sib kelayotgan yosh avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning hammasi prinsipial jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal etish zarurligini ifoda etadi. Avvalo, huquqiy tarbiya yangi yosh avlodni kamol toptirishning samarali vositasi sanaladi.

Yuqorida qayd qilingan mulohazalar **huquqiy tarbiyaning** yaxlit tizimi quyidagilardan iboratligini ifodalaydi:

Birinchidan, huquqiy tarbiya subyektlariga: davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxslar va boshqalar kiradi.

Ikkinchidan, huquqiy tarbiya obyektlariga: mansabdor shaxslar, fuqarolar, ichki ishlar idoralari xodimlari kiradi.

Uchinchidan, huquqiy tarbiya mazmuniga: huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va tashviqotlar kiradi.

To'rtinchidan, huquqiy tarbiya shakllariga: ma'ruzalar, seminarlar,

suhbatlar, viktorinalar kiradi.

Beshinchidan, huquqiy tarbiya metodlariga: ishontirish, rag'batlantirish, majburlash kiradi.

Oltinchidan, huquqiy tarbiya vositalariga: matbuot, radio, televideniye, adabiyot va san'at asarlari, ko'rgazmali tashviqot hamda targ'ibot vositalari kiradi.

Mustaqillik sharoitida huquqiy madaniyat bilan huquqiy tarbiyaning bog'liqligi yanada ortadi.

Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish tizimidagi o'z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustahkamlash, inson oranizmini chiniqtirish va talabalarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; o'g'il bolalarni armiya safariga tayyorlash; fizkultura va sportning mohiyati hamda ijtimoiy roli haqidagi ma'lumotlardan xabardor qilish. Talabalarning sog'ligini himoya etish va boshqarish jismoniy tarbiyaga ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo'lga kiritgandan buyon davlat darajasida ahamiyat bermoqda. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga hukumatimiz tomonidan katta g'amxo'rlik qilmoqda. Buning dalili sifatida Toshkent shahri va barcha viloyatlar, +oraqalpog'iston Respublikasi va tumanlarda bunyod etilayotgan sport inshootlari, sport komplekslarini keltirish mumkin.

11.5. O'quvchilar mehnat tarbiyasi bo'yicha sinf rahbari amalga oshiradigan ishlarning mazmuni va vazifasi.

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni tarbiyalashda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Rivojlanishning asosiy vazifalaridan biri mehnat tarbiyasi va ta'lim samaradorligini umumiy ta'lim ukuv muassasasi talabalarini kasb tanlash, mustaqil hayotga amaliy va texnika inqilobi va hozirgi zamon ishlab chiqarish sharoiti talabalarning mehnat tarbiyasi va ta'limi ana shu talablar darajasiga ko'proq muvofiq bo'lishini talab qilayotir. Nega deganda tarbiyalanuvchilar ukuv yurtini tamomlagandan keyin ishlab chiqarishning butun tizimini bemalol bilishlari va unda ro'y berayotgan o'zgarishlarni tezda payqab olishlari kerak.

«Umumiy va kasb-hunar ta'limini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari»da ta'kidlanadiki, mehnat tarbiyasini shaxsni shakllantirishning eng muhim omili va xalq xo'jaligining mehnat resurslariga talabini qondirish vositasi deb bilish kerak.

Mehnat faoliyati jarayonida inson tabiatini o'zgartiribgina qolmay u bilan birga o'zi ham o'zgaradi. Mehnat faoliyati shaxsning ahloqiy fazilatlarini shakllantirishga uning tabiat va jamiyatga qarashli tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnat inson aqliy qobiliyati jarayonini o'z ijodiy faolligini namoyon qilib ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi. Mehnat tufayli insonning ma'naviy

munosabatlari shakllanadi. Jismoniy jihatdan kamol topib o'z mehnat ko'nikmalari va malakalarini rivojlantira boradi.

Mexnat faoliyatini tashkil etishga kuyiladigan umumiy talablarni kuyidagi 1-jadvalda keltirib utildi.

1- jadval.

<i>Mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan talablar.</i>				
Mehnat faoliyatining axloqiy asosda, ijtimoiy-g'oyaviy mazmunga egaligi.	Mehnat faoliyatini jamoa xarakteriga egaligi.	Mehnat topshiriqlarini berishda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olish.	Mehnat faoliyatining tizimli va rejali bo'lishiga erishish.	Mehnat faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishi.

Ammo har qanday mehnat ham shaxsni har tomonlama tarbiyalash va kamol toptirish omili bo'lavermaydi. Ekspulatasiya va zo'ravonlikdan xoli bo'lgan mehnatgina insonga hal qiluvchi va tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatadi. Agar inson majburan mehnat qilsa bu jarayon ma'naviy rivojlanishga xalaqit beradigan va ma'naviy mamnuniyat keltirmaydigan mehnatga aylanadi.

Ukuv yurtlarida mehnat tarbiyasini rivojlantirish yo'llarini ijodiy ishlab chiqishda shaxs mehnatini tashkil etish metodikasiga jiddiy e'tibor berish kerak. Mehnatdan maqsadga muvofiq foydalanilsagina u tarbiyalanuvchilar ma'naviy kamolotini omili bo'lib qolishi mumkin. Buning uchun mehnat shaxsni qiziqtirishi, jismoniy mehnatgagina emas, balki aqliy mehnat bo'lishi lozim. Shaxs mehnat natijasini tushunishi kerak. Shaxs faqat ukuv muassasasidagina emas, undan tashqarida ham mehnat qilishi kerak. Mehnat tarbiyalanuvchilar uchun ularning qurbi yetadigan ijodiy faoliyat bo'lishi lozim. Mehnat tarbiyasini bir qator yetakchi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- umumfoydasi uchun mehnat qilish zarurligi;

- talabalarda jamoa mehnat faoliyatida ishtirok etish uchun zarur bo'lgan barqaror ma'naviy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash;
- talabalarni umumiy bilim va politexnik bilimlar tizimi bilan hozirgi zamon ishlab chiqarishda qatnashish uchun zarur bo'lgan maxsus mehnat ko'nikmalari va malakalari bilan qurollantirish;
- talabalarga bo'lajak kasbni ongli tanlashda yordam berish;
- mehnat madaniyati asoslarini tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarning iqtisodiy tarbiyasi.

Mehnat tarbiyasining vositalari quyidagilar:

1. Ijtimoiy foydali mehnat.
2. Oilaviy mehnat.
3. Mehnat faxriylari va turli mehnat vakillari bilan uchrashuv.

Mehnat ikki xil bo'ladi:

Aqliy mehnat.

Jismoniy mehnat.

Aqliy mehnat - shaxs uchun eng og'ir mehnatdir. Bu mehnat aqliy zo'r berishni talab qiladi, uzoq vaqt davom etadi va qunt bilan shug'ullanishni talab qiladi. Bu mehnatning murakkabligi yana shundaki, bundagi natijalarning namoyon bo'lishi qiyinroq bo'ladi, bu natijalarni shaxs deyarli tushunmaydi.

Aqliy mehnati jarayonida tarbiyalanuvchilar turli darajada murakkablikka ega bo'lgan va mustaqillikni turli darajada talab qiladigan bir qator aqliy, hamda amaliy xarakterlarni egallaydilar. Bu esa ularda bilimga qiziqishini, aqliy faoliyatning samarali turlarini shakllantiradi. Aqliy mehnati tarbiyalanuvchilarning qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarning qurbi yetmaydigan mehnat inson organizmiga ziyon yetkazadi. O'qishdan ko'nglini sovutishi mumkin. Shu sababli pedagog har bir tarbiyalanuvchining yosh xususiyatini va ta'lim olishga individual tayyorligini aniqlash, shaxsning e'tibori va tafakkuridagi xususiyatlarini bilishi, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilishi muhimdir. Uquv mehnatning bosh vazifasi-shaxsni o'qishga o'rgatishdan, uni uquv mehnati metodikasi va texnikasini qurollantirishdan, uzi bilim oladigan bo'lish imkoniyatini berishdan iborat. O'quv mehnati jarayonida ta'sir qiladigan ko'nikma va malakalar tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali unumli mehnatda qatnashishga tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyalanuvchini bular mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun yaxshi poydevor bo'ladi. Pedagogning ukuv muassasasi tarbiyalanuvchilarida darsliklar, kompyuter texnikasi bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda mehnat tarbiyasiga doir ishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. O'quv mehnati jarayonida aqliy mehnat madaniyati hosil qilinadi. O'rtoqlik, xayrixohlik, intizomlilik, uyushqoqlik singari fazilatlar tarbiyalanadi. Binobarin, bularning bari mehnat tarbiyasini eng samarali hal qilish uchun xizmat qiladi.

11.6. O'quvchilar nafosat tarbiyasining asosiy mazmuni va vazifalari.

Hayotda tabiat - go'zallikning manbasidir. U estetik tuyg'ularni, bolalarning kuzatuvchanligini va tasavvurini rivojlantirish uchun juda boy material beradi. Bundan tashqari, san'at ham estetik tarbiya vositasi hisoblanadi. San'at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada badiiy tarbiya deb ataladi. U quyidagi metodlardan foydalangan holda olib boriladi:

1. Badiiy asarlarni namoyish qilish va ijro etish.

2. Badiiy asarlarni tahlil qilish va baholash.

3. San'atshunoslik bilimlaridan xabardor qilish, talabalar san'atning har xil turlarini ifoda vositalari, tarixi va nazariyasini xarakterlovchi muayyan ma'lumotlar jamg'armasiga ega bo'lishi zarur.

4. Talabalar ijodiy va ijrochilik faoliyatini tashkil etish, talabalar badiiy faoliyatining xilma-xil shakllarida mashqlar o'tkazib, ijodiy qobiliyatlarini, voqyelik predmetlarini va hodisalarini san'at vositalari yordamida mustaqil tasvirlash ko'nikmalari va malakalarini rivojlantiradi.

Tarbiya jarayoni to'xtovsiz va sistemali davom etadigan jarayon bo'lib, unga pedagog, tarbiyachi rahnomalik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo'lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga aktiv ishtirok etishini ta'minlab, ular o'rtasida ijtimoiy, jamoa, o'rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi.

Tarbiyani yaxshi yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini, tarbiya jarayoni manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir.

Nazorat uchun savollar

1. Tarbiya jarayoni nima?

2. Tarbiya jarayoninig murakkabligi nimada?

3. Tarbiya tamoyillari.

4. Tarbiya usullari, turlarini sanab bering?

5. Shaxs tushunchasiga ta'rif bering?

6. Muhit nima?

7. Tashqi muhitning shaxsga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?

8. Tarbiya orqali insonni to'liq o'zgartirish mumkinmi?

9. Tafakkur, idrok, ilmiy dunyoqarash deganda nimani tushunasiz?

12- Mavzu: Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Reja

12.1. SHaxs sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish

12.2. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy - estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda davlat va nodavlat tarbiya muassasalarini tashkil etish

12.3. Darsdan tashqari tarbiyani urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz olib borish.

12.4. Darsdan tashqari tarbiya muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy ahloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi.

Tayanch tushunchalar: barkamol shaxs, to'garak, madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport, milliy qadriyatlar, urf odat.

12.1. SHaxs sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish

Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni va unga qo'yiladigan talablar. Shaxs sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish bilan chklanib bulmaydi. Ular ongida kasb - hunar va mehnat kunikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan uz vatani va halqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bulish tuyg`usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy - estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yunalishlarda o'quv bilim yurtidan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yahshilash, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu «Darsdan tashqari ta'limni tashkil qilish davlat talablari» talabalarning bo'sh vaqtini tarbiyaviy ta'lim jihatdan samaradorli tashkil etishga qaratilgan bulib, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va milliy dastur g'oyalari asosida ishlab chiqildi.

Darsdan tashqari ta'limni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, Respublika hududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmog`ini kengaytirib, hozirgi zamon talablari darajasida isloh, qilish kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Hozirgi paytda yangi pedagogik va axborot texnologiyasi qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo'nalishida tegishli tadqiqotlarni olib bormokdalar. Shuning bilan birga bu, bir joyda to'xtab turuvchi jarayon emas. Ushbu «Talablar»

barcha o`quv maskanlaridan tashqari ta'lim muassasalari o`quv - tarbiyaviy ishini rejalashtirishda dastur va uslubiy materiallar, metodik qo`llanmalar, o`qyv adabiyotlarini tayyorlashda muhim hujjat bo`lib xizmat qiladi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarining to`garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bulishi kerak.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalari to`garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning eng so`nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish ular ongini ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o`rin tutadi. To`garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bulishi, ular Davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni bilishi shart. Talabalar qaysi to`garakka qatnashishidan qat'iy nazar shu kasb yoki hunar to`g`risida boshlang`ich ko`nikmalarga zga bulishi lozim.

Darsdan tashqari ta'lim talabalar qiziqshiga, hohishiga asoslangan holda darsdan bo`sh vaqtlarida o`qyv tarbiya jarayonini to`ldiradi va quyidagi yunalishlar buyicha to`garak qatnashchilariga talablar qo`yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi.
2. Estetik ta'lim.
- Z. Sayyohlik yunalishi buyicha to`garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo`nalishi buyicha.
5. Talabalarni ma'naviy, axloqiy yunalish buyicha.
6. Huquqiy ta'lim yo`nalishi bo`yicha.
7. Texnik ijodkorlik yo`nalishi bo`yicha.
8. Iqtidorli va iste'dodli yoshlar.
9. Iqtisodiy ta'lim.

12.2. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy - estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarda davlat va nodavlat tarbiya muassasalarini tashkil etish.

Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarning shakllari. Darsdan tashqari ta'lim muassasalari oldida turgan muhim tarbiyaviy faoliyati bu yoshlarga estetik, ekologik, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy va shunga o`xshash boshqa turdagi tarbiyaviy ishlarni o`rgatishdan iboratdir. Tarbiyaning ushbu turlarini yosh avlodga singdirish uchun avvalo muassasada utkaziladigan talabalar his – tuyg`usini shakllantirishga asoslangan turli tadbirlarda, to`garaklar faoliyatida milliy madaniy-tarixiy an'analarga, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshi-

riladi. Masalan estetik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish maqsadda talabalar uylari, saroylari, shaxslar va usmirlar ijodiyot uylarida doirachilar, paqc, vokal-cholg`u, folklor, maqom, karnay-surnaychilar, ashula va paqc, o`zbek xalq cholg`u dastalari, hor studiyasi, qo`g`irchoq teatri, drama tugaragi, san'at sevarlar klublari tashkil etadi.

To`garak a'zolari ushbu dasta, to`garak va klublarda san'atni sevishga, ardoqlashga, san'at orqali go`zallikni kura bilishga, shu go`zallik orqali o`z ona yurtini ulug`lashga, undagi go`zallikni, chiroyni asrab qolishga intiladi.

Estetik yo`nalish buyicha tahsil olgan to`garak a'zolari quyidagilarni bilishi lozim:

- raqs san'atining mashhur namoyandalari hayoti va ijodini;
- kuy tinglash, uning mohiyatini tushunib, paqc harakatlari orqali ifodalashni;
- turli millat va elatlar raqslari harakatlarini, uni ijro etishni;
- doiraning yaratilish tarixini, uning keksa namoyandalari ijodiy yo`lini, doirani ushlab qoidalarini;

Shuningdek, estetik ta'lim tasviriy va halq amaliy san'ati yo`nalishlaridagi to`garaklar mashg`ulotlari orqali ham talabalar qalbiga singdiriladi. Bu o`rinda talabalar uylari, saroylarida tashkil etilgan «Tasviriy san'at», «Haykaltaroshlik», «Kulolchilik», «Milliy kashtachilik», «Naqqoshlik», «Yog`och o`ymakorligi», «Ganch o`ymakorligi», «Yosh ta'mirlovchilar» to`garaklari ayni maqsadni doimiy va uzluksiz amalga oshiradi.

Sayyohlik to`garaklariga talabalar ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda keng jalb qilinadi.

To`garakka qabul qilinayotgan talaba yoshlar avvalo sayyohlik to`garaklarining biror bir yunalishiga qiziqqan, sayyohlik ekspeditsiyasi to`g`risida tasavvurga ega bulgan, sog`lom bo`lishi kerak.

Sayyohlik yo`nalishi bo`yicha qatnashadigan talabalar birinchi o`quv yilidan keyin quyidagilarni bilishi lozim:

- yurtimiz haqida tasavvurga ega bulishi;
- yurtimizning tari hini, qadimiy obidalarini, ular haqidagi afsona va rivoyatlarni bilishi;
- ma'lum joy, ulkani o`rganish bo`yicha reja va yunalishlarni ishlab chiqish;
- sayohat davomida kuzatuvchanlikni bilish, sayyohlikka oid materiallarni o`rganish;
- turli hildagi sayyohlikka oid adabiyotlar bilan doimiy tanishib borishi va ularni bilish kerak.

Ekologik tabiatshunoslikdan tashkil qilingan to`garaklarning asosiy maqsadi yoshlarda jonli va jonsiz tabiat haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, tarbiyalanuvchilarni usimlik va hayvonot olami bilan tanishtirish. To`garak a'zolarida usimlik va hayvonlarni himoya qilish kerakligi to`g`risida tasavvur hosil qilish, to`garak a'zolari o`quv bilim yurtlarida er maydonlarida va tirik tabiat burchagida o`simlik va hayvonlarni parvarish qilgandagina, yaxshi hosil olish mumkinligiga ishonch hosil qilishdan iboratdir.

To`garak a'zolariga birinchi o`quv yili o`qirida quyidagi talablar qo`yilishi lozim:

- jonli va jonsiz tabiat haqida tasavvurga ega bo`lishi;
- jonli va jonsiz tabiatni bir-biri bilan o`zaro bog`liqligini;
- yoz, kuz, qish va bahorning harakterli belgilarini;
- yilning turli fasllarida odamning yashab turgan joyidagi mehnati va ularning turlarini;
- o`simlik nomlari, ildiz, poya, barg, meva va urug`larini;
- o`t usimliklar, daraxtlar nomini;
- meva va manzarali daraxtlarni aa ularning bir biridan farqlarini;
- uchib ketuvchi va qishlovchi qushlarning hayoti va xususiyatlarini;
- tabiat bilan inson orasidagi qonun-qoidani doimo muvozanatda saqlashni bilgan, kuzatgan ishlari yuzasidan hisobot yoza bilishni, ma'ruza qilishni bilishlari kerak.

Ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limning barcha yo`alishlari va to`garaklaridagi talabalarning ma'naviy fazilatlarini, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqloq g`oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanishi bilan belgilanadi.

O`quv bilim yurtlaridan tashqari ta'lim muassasalarida klub va to`garaklari boradilar. Bilimga tashnalik ham axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismidir tarbiyachi, muassasa xodimlari talaba qalbida kitobni sevish, uni o`qish va ardoqlash kabi fazilatlarini doimiy ravishda shakllantiradilar.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida rejalashtirilayotgan har bir tadbir mazmunida, klub va to`garaklar faoliyatida - Vatanga muhabbat va komilinson tarbiyasi aks etishi lozim. Talabalarda Vatanga muhabbat tuyg`usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tari hi, muayyan davrlardagi mavqei, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o`rni, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to`g`pisida ma'lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayg`urish iymon-e'tiqod ramzi ekanligi o`qtiriladi. Shu nuqtai nazardan asosiy maqsad - komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi.

Talabalarning huquqiy ongini oshirmasdan huquqiy fuqarolik davlatni tasavvur etib bulmaydi. Huquqiy ong poydevoriga o`quv muassasalarida asos solinadi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida talabalarga huquqiy bilimlar, ijtimoiy hayot me'yorlari va qoidalari to`g`risida keng ma'lumotlar berib boriladi. Huquqiy ta'limning mazmuni mustaqil O`zbekiston davlatining iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy-huquqiy manfaatlarini uzida mujassamlashtirishi kerak.

12.3. Darsdan tashqari tarbiyani urf-odatlarimiz, milliy

qadriyatlarimiz olib borish.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida iqtidorli shaxslar va iste'dodli yoshlarni uziga xos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olib turli to`garaklarga jalb etish «Respublika iste'dod markazi» xodimlari bilan hamkorlikda va ularning ilmiy amaliy tajribalaridan foydalangan holda iste'dodlarin aniqlashga muljallangan texnologik diagnostik tadbirlar asosida amalga oshiriladi.

Darsdan tashqari ta'lim muassasalarida quyidagi tadbirlar ishlab chiqiladi:

- iqtidorli shaxslar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o`tkazishga qaratilgan turli tadbirlarni amalga oshirish;

- «Kamolot», «Mahalla», «Ulug`bek», «Oltin meros», «Umid», «Ustoz» kabi jamg`armalar bilan hamkorlikda ish olib borish;

- o`quv bilim yurtlaridan tashqari Ta'lim muassasalarida yoshlar iste'dodi va iqtidorini namoyon qilishga doir shart sharoitlar yaratib berish;

- ularning qiziqishini inobatga olgan holda fanlar buyicha olimpiadalar, tanlovlar, kurgazmalar, turli bayramlar, talabalar ijodkorligi kabi tadbirlarni o`tkazish.

Respublikaning chekka mintaqalaridan iqtidorli shaxslar va iste'dodli yoshlarni izlash, ularga kelgusida uz qobiliyatlarini takomillashtirishlariga shart-sharoitlar yaratib berish kerak.

Talabalarni o`z-o`zini boshqarish. Pedagog mustakil tayyorgarlik davrida talabalar bilan ishlashni tabakalashtirilgan tarzda olib boradi, ularni guruhlariga taksimlaydi, ayrimlari bilan esa yakka tartibda ish olib boradi. Pedagog fan kabinetlaridagi mustakil ishlarni tashkil etib, bilimlar egallashni ta'minlovchi topshiriklar sistemasini ishlab chikadi, muntazam ravishda ukishning borishini nazorat qiladi, talabalarning kitob, asboblar, qullanmalar, o`quv telekursatuvlari, kushimcha adabiyotlar va boshkalar bilan ishlash malaka va kunikmalarini muntazam shakllantirishni ta'minlaydi.

Mustakil tayyorgarlikni tashkil etishda laborant talabalar alohida urin tutadi. Ular murakkab tajribalarni amalga oshirishda yordam beradilar, diapozitivlar, filmlarni namoyish etadilar, xaritalarni tayyorlaydilar, almashtiriladigan stendlarni bezatadilar, kabinetlarda inventarizatsiya utkazadilar, darsliklar va dasturlarga doir adabietlar fondiga mudirlik kiladilar va hokazo.

Mustakil mashg'ulotlarda pedagog bilan talabaning hamkorlik kilishi zarurligi bekor qilinmaydi, lekin u darsdagiga nisbatan boshkacha - asosan bavo-sita, o`quv materiali (sxemalar, jadvallar, yul-yuriklar, maxsus tuzilgan ma'lumotnomalar va hokazolar) ni tegishli tarzda tashkil etish orkali amalga oshiriladi.

Kelgusida urta buginda darsdan tashkari mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning yunaltiruvchi ta'siri ostidagi talabalarning uz-uzini tartibga solish, uz-uzini nazorat kilishi asosiga kurilgan va fan kabinetlarida, kutub honada va uyda yakka tartibdagi reja asosida utkaziladigan mustakil mashg'ulotlar etakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda darsdan tashkari ishda ta'limning moddiy bazasi: kushimcha va ma'lumotnoma adabietlar, laboratoriya uskunalari, kurgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan okilona foydalanish kuzda tutiladi.

O`z ichiga:

- darslik va kushimcha adabietlar bilan ishlashning xilma-hil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni uzlashtirishni ta'minlovchi;

- tajribalar, ijodiy tusdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyi halashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashii olgan mustakil ishlash uchun topshiriklar sistemasi maksadga muvofikdir.

Yuqorida kayd etilgan topshiriklarni bajarish jaraenida talabalar turli kullanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni urganadilar, uz-uzini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarni jalb etish kunikmalarini egallaydilar. Ayni paytda ularda topshiriklarni bajarish uchun zarur materiallarni tanlash, ishning ketma-ketligini belgilash, vaktini hisobga olish kabi tashkiliy kunikmalar shakllanadi. Bunga u hshash mashg'ulotlar talabalarga ular uchun yangi bulgan sharoitlarda me hnat kilish ko`nikmasini egallashga yordam beradi, o`qituvchiga esa talabalarda ta'lim-tarbiya jarayoniga faol qo`shilish uchun zarur bulgan fazilatlarini anik, maqsadni ko`zlab, izchil shakllantirish imkonini beradi.

Natijada talabalar uchun o`quv mashg'ulotlarini tashkil etishning yangi shakllni kiroat hona va bush auditoriyalarda pedagogsiz mustakil mashg'ulotlarni asta-sekin joriy etish mumkin buladi. Shuni aytish kerakki, bunday ish shaklining dastavval ayrim kism-lari uzlashtirila-di. Talabalar guruhlariga tarbiyachisiz, uz-lari shugullanishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Bunday mashg'ulotlar kattik, tartibga solinadi: ish joyi, tarbiyachiga takdim etilishi kerak bulgan hisobot material-lari va bu ishlarni amalga oshirish vakti anik belgilab kuyiladi. talabalarni guruhlariga taksimlash oldidan katta tayyorgarlik ishlari olib boriladi: tarbiyachilar bilan ular mehnatini tashkil etish usullari hakida suhbatlar, kiroat honada va bush

auditoriyalarda mustakil mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan dastlabki sinovlar, bu tajribani mu hokama kilish va unga zarur tuzatish kiritish kabi ishlar bajariladi.

Kuzatishlarning kursatishicha, ishning yangi shakllariga utish butun pedagoglar jamoasining kuch-gayratlarini birlashtirishni, bush honalarni taksimlashda, tartib va intizomga rioya etilishini nazorat kilishda alo hida aniklikni talab etadi.

Talabalarning uz-uzini tartibga solish va uz-uzini nazorat kilish asosiga kurilgan guruh. va yakka tartibdagi ish shakllari asta-sekin asosiy ish shakllari bulib koladi. Ular talabalarda intizom va mas'uliyatni shakllantirishga kumaklashadi.

Bir kancha hollarda mustakil tayyorgarlik yuzasidan ayrim mashg'ulotlarni tarbiyachi ishtirokida uyushtirish zarurati vujudga keladi. Bu unchalik musta hkam bulmagan va yanada kuchaytirilishi zarur bulgan malaka va kunikmalarni tiklash yoki shakllantirishni davom ettirish maksadida utkaziladi. Binobarin, tarbiyachi ishtirokidagi mustakil mashg'ulotlarni talabalar mustakilligi shakllanishining muayyan boskichida tula bardam topadigan shakl sifatida karamaslik kerak. U o`quv mashg`ulotlaridan keyingi darslarni tashkil etish shakllari sistemasida zarur jihat sifatida saklanib koladi, lekin undan foydalanish me'yori uzgaradi.

Mustakil tayyorgarlikni tashkil etish jarayonida shaxslarning zurikishiga yul kuymaslik muhimdir. Shu maksadda shaxslarda o`quv ishining okilona usullarini, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy a hborot okimida yul topa olish, mustakil tajribalar kilish va kuzatish olib borish kunikmalarini shakllantirish zarur.

Fanlararo alokalar goyalarini ruyobga chikarish uchun: dars va darsdan tashkari o`quv ishlari - mustakil tayyorgarlikni uygun birlash-tirish; mustakil tayyorgarlik davrida turli fan o`qituvchilarining uzaro alokasi; fan o`qituvchisi bilan tarbiyachining hamji hatligi; turli rejim paytlarida yagona talablarni amalga oshirish kabi yangi imkoniyatlar vujudga keladi va hokazo.

Talabalarning barcha fanlar yuzasidan mustakil ishlashi fakat darsdan tashkari faoliyatdagina emas, shu bilan birga darsda ham boshkacha sifat kasb etadi. Dars va mustakil tayyorgarlikning bir-biriga singib ketishi, o`quv va kushimcha adabiyotlardan, komuslardan, ma'lumotnomalardan va boshkalardan keng foydalanish imkoniyati ob'ektiv tarzda o`quv materialini eng kup darajada uzlashtirishga, mustakil ishni jadallashtirish hisobiga (uni birmuncha kiskartirgan holda) o`quv vaktidan samarali foydalanishga, eng muhimi, talabalar-da mehnatsevarlik, mustakillik, mas'uliyatni tarbiyalashga kumaklashadi.

Talabalarning mustakilligi turli darajada bulganida mustakil tayyorgarlik amalga oshirilishi mumkinligini hisobga olish mu himdir, albatta, bu esa ular sha hsining shakllanishiga shub hasiz ta'sir kursatadi. Ayrim talabalarning ishdagi faol va mustakil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki talabalar-ning uzlari oldilarida turgan vazifalarni va ularni hal etish yullarini ancha yaxshi tushunadilar. Tarbiyalanuvchilar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu erda tar-

biyachining aralashuvi makbul emas, chunki bunday holat tarbiyalanuvchilarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

Talaba mustakil harakat kilib, lekin uz ishini tarbiyalashning fikri va ba hosiga boglik kilib kuygan paytda tobe mustakil holat vujudga keladi. Ish kizikish va ishtiyok bilan bajarilsa ham, mustakil ishni bajarayotgan shaxsning harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud buladi.

Tarbiyachining tula rahbarligi va nazorati ostida harakat kiladigan talabalar toifasida majburiy-ijro etish holati paydo buladi. Bunda talabalar ishga unchalik kizikish bildirmaydilar. Ular kupincha tar-biyachining yordamini surab murojaat kiladilar, kuchli talabalarning kullab-kuvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday kullab-kuvvatlash bulmasa, ishni davom ettirishda irodalarini ishga solmaydilar. Bunday shaxslarda tashkaridan majbur kilish vaktida harakat kilish odati musta hkamlanadi. Agar bunday holat barkaror bulib kolsa, u talabaning fakat akliy emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham, tuskinlik kilishi mumkin.

Mustakil tayyorgarlikning nazoratsiz - ijro etish holati rasmiy ijrochilik bilan, ishtiyok va havas bilan mehnat kilishni istamasligini yashirishga intilayotgan talabalarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vakt mavjud bulishiga yul kuyib bulmaydi, aks holda talabalarda ishga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo buladi, bu esa ularning mehnatdagi tashki faolliklarini yuqqa chikaradi.

Va, nihoyat, beixtiyor hosil buladigan holat ham ruy berishi, bunday holat «hohlasam-o`ynayman, hohlamasam-o`ynamayman», «yoqsa-ishlayman, yoqmasa-ishlamayman», «oson bulsa-bajaraman, qiyin bulsa-bajarmayman» degan so`zlarga rioya etadigan talabalar faoliyatida namoyon buladi. Bu talabalar guruhi tarbiyachiga yuqorida kayd etilgan talabalar guruhiga nisbatan kam kiyinchilik va tashvish keltirmaydi. Shaxslarning mustakil tayyorgarligidagi beixtiyor holatni boshka holatga aylantirish ancha kiyin ishdir. Bu shaxslarning fakat uz shaxsiy istaklari buyicha ish bajarishga doir noxush mayllarini bartaraf etish uchun uzoq vakt ter to`kib mehnat kilishga tugri keladi.

Kursatib utilgan hollarning har birida shaxslarni bilish jarayoniga jalb etish, ularning kizikishlariga tayanish, talabalarga o`quv faoliyatida muvaffakiyatga erishishni his etish imkonini berish, ularni ragbat-lantirish va albatta ukishga urgatish kerak.

12.4. Darsdan tashqari tarbiya muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy ahloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi.

Kuzatishlarning kursatishicha, tarbiyachilarning uzlari kupincha shaxslarning mustakil tayyorgarligi, ularning ishga munosabatidagi holatning xilma-hilligini bilmaydilar. Pedagog esa ana shunday holatlar-ning namoyon bulishiga tayanib, yakka tartibda yahshirok, yondashishni amalga oshirish mumkin, mustakil tayyorgarlik davrida tarbiyalanuvchilarga uz ta'snrini muvofiklashtirishi va

takkoslashi, uni shahsi shakllantirishning samarali vositasiga aylantirishi mumkin. Bunda unga talabalarning fe'l-atvoridagi uzgarishlar jarayonini va uz tarbiyaviy faoliyatining pirovard natijalarini oldindan kura bilish, har bir talabaning xususiyatlarini, uning shaxs sifatida mehnatga munosabatini yaxshi bilish yordam beradi.

Talabalarning mustakil tayyorgarligini tashkil etganda, shaxslar mustakilligini pasaytiruvchi ortikcha vasiylik kilishga yul kuyib bulmaydi. Kuzatishlarning kursatishicha, tarbiyachilar mustakil tayyorgarlikning turli boskichlari (bulajak ishning borishi tushuntiriladi, uy ishi, uning mazmunini, talaba faoliyatining tartibini tula tushuntirib berish hollari uchraydi va hokazo)da talabalarning ishiga aralashib, kupincha ular mustakilligini rivojlanishiga halakit beradilar, mustakil faolnyat kunikmalari shakllanishiga tuskinlik kiladilar. Mustakil tayyorgarlik jaraenida talabalar mustakilligi muntazam oshib borishi va yordam berish muntazam kamayib borishiga erishish mu himdir, albatta.

Uz guruhining imkoniyatlarini, shaxslarning uziga hos xususiyatlarini, ular mustakil ishining uslubini hisobga oluvchi tarbiyachi mustakil tayyorgarlik davrida goyat talabchan buladi, shaxslarni mustakil faoliyatga yunaltiradi, mustakil tayyorgarlikii talabalar bilimlarini musta hkamlashning va ularda tashkiliy-amaliy malaka va kunikmalarii rivojlantirishning vositasi sifatida karab, uz yordami darajasini asta-sekin pasaytiradi.

Ta'lim muassasalari talabalarining mustakilligi hakida gapirar ekanmiz, biz bu jarayoning ikki tomonini ifodalaydigan tushunchalardan: talabalar faoliyatida-mustakillik darajasidan, tarbiyachi faoliyatida-yordam berish darajasidan foydalanamiz. Mustakillik darajasi deganda biz talabalarning pedagog yordamiga bulgan ehtiyojini nazarda tutamiz. Yordamga bulgan ehtiyoj kanchalik yuqori bulsa, talabalarning mustakilligi shunchalik past buladi. Shaxslarga yordam kursatish darajasining mezoni sifatida biz o`quv muassasasi chilarining topshiriklarni bajarish jaraeniga tarbiyachining aralashuvini kabul kilamiz.

Ayni vaktida shuni hisobga olish mu himki, mustakil tayyorgarlik mustakil faoliyat shakli bulib, u shaxsni ukishga urgatar ekan, tuliq ravishda tarbiyachining rahbarligisiz, muayyan darajadagi tarbiyaviy kuch-g`ayrat sarflashisiz utishi mumkin emas.

Pedagoglarning mustakillikni tarbiyalash vazifalarini hal kilishga sarflagan kuch g`ayrati talabalarning ruhiy-fiziologik kayfiyatiga mutanosibdir. Agar shaxslar mustakil tayyorgarlikni o`z faoliyati zanjiridagi tabiiy bugin sifatida kabul kilsalar, pedagoglar tomonidan ham, shaxslar tomonidan ham katta kuch-gayrat sarflash talab etilmaydi. Aksincha, mashgulotga yomon tayyorgarlik kurish hamma uchun kushimcha kiyinchiliklar tugdiradi. Tarbiyachining o`quv muassasasi talabalariga irodaviy ta'sir kursatishi talab etiladi, ularning esa uz organizmlari va ruhiyatlarining ahvolini muayyan faoliyatga yunaltirish uchun irodaviy zurikishlariga tugri keladi. Har kanday holatda tarbiyachi tomonidan ham, talabalar tomonidan ham kup yoki oz midorda kuch-gayrat sarf etishni talab etadigan vaziyatlar vujudga keladi.

Mustakil tayyorgarlik davomida ta'lim muassasalarining talabalari mustakil faoliyatining u yoki bu kunikmasi shakllanayotganda ham huddi shunday vaziyatlar vujudga keladi. Bu vaziyatni zarur tarbiyaviy maksadni amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik jihatdan maksadga muvofik holatga aylantirish tarbiyachining ma'horatini bildiradi.

O'z-o'zini tarbiyalash o'z ustida ongli va rejali ish olib borish, jamiyat va rivojlanish shaxsiy dasturi talablarga javob beruvchi xususiyat va sifatlarni shakllantirishga yo'natirilgandir. O'z-o'zini tarbiyalash tarbiya jarayonida shakllanadi.

Bu usullarni shartli ravishda 2 guruhga bo'lish mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash shaxsining o'z-o'zini anglashdan boshlanadi. Buning uchun quyidagi usullar qo'llaniladi. Ular 1-guruhga tegishli:

O'z-o'zini kuzatish ;

Taqqoslash;

O'z-o'zini tahlil qilish;

Empatiya;

O'z-o'zini baholash.

Bu usullarning barchasi o'z-o'zini anglash saviyasini o'stirishni maromlashtiradi. Bu besh usul yordamida shaxsni o'z-o'zini baholashi amalga oshiriladi. Qolgan usullar o'z-o'zini tarbiyalash uchun qo'llaniladi:

O'z-o'zini tanqid qilish;

O'z-o'ziga majburiyat yuklash;

O'z-o'zini boshqarish;

O'z-o'ziga buyruq berish;

O'z-o'zini jazolash;

O'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish;

O'ziga ishonch.

«Darsdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari» yoshlar ta'lim-tarbiyasini yanada takomillashtirishga, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda aniq yo'nalishlarni belgilab beradi. U zamon talablari asosida tashkil etiladi. Bu borada pedagogik hodimlarning javobgarligi ham oshiriladi. Ushbu talablar asosida guruhdan va ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limning istiqbol, rejalarini, tadbirlarini ishlab chiqish mumkin.

13- Mavzu: Tarbiyaviy ishlar metodikasida yangi pedagogik

texnologiyalardan foydalanish usullari.

13.1. Zamonaviy pedagogik texnologiya.

13.2. Tarbiya jarayonining natijalari, fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod, uzluksiz tarbiya tizimi, tarbiya natijalarining jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'siri.

13.3. Pedagogik texnologiyalar, tarbiya jarayonini tashxis qilish mexanizmi.

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnologiyalar, fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod, uzluksiz tarbiya tizimi, tarbiya natijalari.

13.1. Zamonaviy pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqda.

SHu o'rinda savol tug'iladi. Pedagogik texnologiya atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «techne»-mahorat, san'at, «logos»-tushuncha, o'rganish demakdir.

Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan biri ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta'lim oluvchilarni o'qitishni jadallashtirish sanaladi.

Respublikamizda ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga doir keng ko'lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to'plandi. Ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko'rsatmoqda.

«Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani

o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofiq'i YuNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

SHuningdek, texnologiya deganda, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, pedagogning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki, boshqacha aytganda pedagog tomonidan o'qitish vositalari yordamida talabalarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin.

«Pedagogik texnologiya»ning ta'limdagi amaliylik jihati va tashkiliy-uslubiy imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirilganligi, uning aniq vositalar yordamida hayotga tatbiq etilishi jahon pedagoglarining unga bo'lgan e'tiborini kuchaytirmoqda. Texnologik yo'nalishga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Ba'zi pedagoglar «pedagogik texnologiya» tushunchasi mazmunida ta'limni differentsiallash vositasini ko'rayotgan bo'lsalar, boshqalar undagi kam mehnat sarflab yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari hamda barcha ta'lim oluvchilarni oldindan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga yetkazish mumkinligi bilan qiziqmoqdalar. Ayrim pedagoglar ta'limni «texnologiya»lashtirish yordamida ommaviy ta'lim amaliyotida tub burilish yasalishiga umid bog'lamoqdalar.

Ta'limni «texnologik» yo'nalishda qurishning umumiy mezonini uning aniq va batafsil belgilangan maqsadga yo'naltirilganligidadir. Bu holatda xususiy maqsadlarni amalga oshirish uchun alohida qonuniyat, jarayon, ketma-ketlik va ularga mos amallar majmuining mavjud bo'lishi asos sifatida olinadi. «Pedagogik texnologiya»ning vositaviy yo'naltirilganligi uning turli uslublar asosida ta'lim tizimlarini shakllantirish borasidagi imkoniyatlarini belgilab beradi. Bunda ta'limning tashkiliy jihatlari, oldindan, go'yoki tashqaridan belgilangan maqsadlarga erishish usuli sifatida qaraladi. Mos ravishda amalga oshirilishi talab etiladigan jarayonlar tahlili va ularni saralash o'quv faoliyati mazmunini hisobga olmagan holda olib boriladi. Pedagogik texnologiya doirasidagina aniqlab olinadigan maqsadlarning empirik tahlili beriladi. Ta'lim maqsadlarining ajratilgan tahlili texnologik

ishlanmalarning didaktik jihatdan to'laqonliligi bo'lmagan vaziyatda empirik tavsif asosida ochib beriladi. Umumiy didaktik maqsadlarning texnik reduksiyasi tahlili pedagogik texnologiya didaktik imkoniyatlari tahlilining muhim jihati hisoblanadi. Ta'lim maqsadlarining tahliliy bayonidan tashqari har bir o'quv jarayoni uchun ta'lim uslublarini tanlashning sharti sifatida bilim darajasini oldindan tashhishlash, uni muayyan ko'nikma va malakalari mavjud bo'lgan tinglovchilar bilim darajasi bilan taqqoslash qabul qilingan. Ta'lim jarayonining borishi o'quvchilarning belgilangan maqsad sari harakatlanishini uzluksiz nazorat qilishni ko'zda tutadi. Uzluksiz nazoratni tashkil qilish ta'lim texnologik tizimi yuqori vositali imkoniyatlarining asosi hisoblanadi.

13.2. Tarbiya jarayonining natijalari, fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod, uzluksiz tarbiya tizimi, tarbiya natijalarining jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'siri.

Mustaqil shaxsni shakllantirish jarayoni uzoq va murakkab bo'lib, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlarning va ayniqsa, ta'lim tizimi mazmunining takomillashtirilishini, ikkinchi tomondan esa, bevosita ushbu masalani amalga oshirishni ta'minlovchi yagona tarbiya tizimini barpo etish lozimligini taqozo etadi. Bu jarayonda kadrlar tayyorlashning yaqin kunlardagi va istiqboldagi vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchi, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalariga sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatanining jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

Ikkinchi, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma'nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmog'i kerak;

Uchinchi, yosh avlod milliy istiqloq g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zarurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim.

Treninglarni o'tkazishda guruhlar bilan ishlash va ularga rahbarlik qilish. Bugungi kunda pedagogikada talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi turli rolli o'yinlar, treninglar, bahs munozaralarni tashkil qilish va hokazolardir. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida ayniqsa treninglarning o'rni beqiyosdir. Sababi trening o'tkazish jarayonida talabaning nutqi

o'sadi, tafakkuri rivojlanadi, muloqatga tez kirisha oladigan bo'ladi. SHu sababli trening verbal va noverbal ko'rinishda tashkil etish mumkin.

Treningni noverbal (so'zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hakoza) ko'rinishda tashkil qilgan tarbiyachi gapirayotganida har bir qatnashuvchini ko'z ostida tutishi, hammaga bir xil e'tibor berishi va guruhdagi ba'zi odamlarga xayrixoh bo'lib qolmasligi lozim. Xonada guruhning diqqatini buzmasdan harakat qilishi (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qochishi, shuningdek, guruhga o'zi ko'rinmaydigan joydan turib gapirishi) kerak bo'ladi. Qatnashuvchilarning bosh qimirlatishi, tabassumi va xatti-harakatlari nimanidir aytmoqchi ekanligiga, xohishi borligiga e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Treningni verbal ko'rinishda tashkil etilsa, pedagog savollarni shunday tuzishi kerakki, asosan qatnashuvchilar gapirsin. Bunda tarbiyachiga ochiq savollar yordam beradi: "Siz bu haqda nima deysiz?", "Nimaga?", "Qanday?", "Agar" va hokozolar. Agar qatnashuvchi "Ha", "Yo'q" deb javob bersa, "Nimaga shunday gapiryapsiz?" deb so'rash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari boshqa qatnashuvchilardan ham so'rash kerak tasdiqlangan fikrlarga qo'shiladimi?

Pedagog trening o'tkazish jarayonida o'z ovozinig ohangiga e'tibor ham e'tibor berishi, sekin va aniq gapirishi kerak bo'ladi. qatnashuvchilarni ko'proq gapirishga undash kerak. Tarbiyachi o'zining va qatnashuvchilarning so'zga chiqishi vaqtini hisoblashi lozim bo'ladi. Hamma savollarga faqat o'zi javob bermasligi, qatnashuvchilar bir-birlarining savollariga javob berishi mumkinligini unutmash lozim. Baxs natijalarini xulosa qilishda har bir mashg'ulot qatnashchisining muhokama qilinayotgan muammoni mohiyatini to'g'ri tushunayotganini aniqlab, keyin umumiy xulosa chiqarish kerak. Agar tarbiyachining shaxsiy tajribasi mazkur baxsga mos kelsa, qatnashuvchilar fikrlarini mustahkamla "Bu menga o'tgan yilgi voqeani eslatadi" – deyishi mumkin.

Yaxshi trening o'tkazishning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud.

Izyuminka. (Bolalar bilan ishlashning o'ziga xos ajoyib tomo-ni.) Qatnashuvchilarning treninga qiziqishini uyg'otish uchun qisqa baxs boshlang, savollar bering, provokatsion ta'kidlashlarini ilgari suring yeki qandaydir faoliyat turini faraz qiling. O'qish qatnashchilarining avvalgi bilimlari va ularning haetiy tajribalarini bog'lashga harakat qiling. Trening nima uchun ahamiyatli ekanligi sabablarini tushuntiring.

Qatnashuvchilar uchun natijalarini ta'kidlash. Qatnashuvchilarga ulardan nima kutilaetganligi tushuntiring. Qatnashuvchilar uchun natijalar quyidagi savolga javob berishi kerak: "Bu treningdan keyin qatnashuvchilar nimalarni bilishini va qilishini xohlamayman?".

Treningning hissasi. Trening uchun kerakli boshlang'ich ma'lumot va yetarli bilimlar (matn, ma'ruza, xujjatlar, o'qish) va biror faoliyat turini o'tkazish uchun Fan mazmunini namoyish qiling.

Interfaol.Bu – trening yuragi. Interfaol uslubietda foydalanadigan ish tartibini qisqacha baen qiling. Interfaol uslub – bu jamoaviy muxokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va faoliyatni baholashdir. Umuman treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib chiqing. Ayniqsa, guruhda ishlash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib boring. Tushuntirishini tekshiring va tushuntirishlar bering.

Treningni to'liq yakunlashga vaqt yetishi uchun uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qiling. Treningni o'tkazish savollari bu yerda muhim ahamiyatga ega (guruhni o'lchovi, guruhga shaxsiy yerdam, tushunishini tekshirish). Aynan shu narsalar treningni o'tishiga yerdam beradi. Trener mashqlarni bajarish jaraenida qatnashuvchilarni topshiriqlarni to'g'ri bajarishini kuzatib boradi.

Debrifing (xulosa) baholash. Qatnashuvchilar o'zlari yodlagan, o'rgangan yo'nalishlari bo'yicha xulosa qiladilar, olingan ma'lumotlar va malakalarni boshqa holatlarda, bolalar bilan ishlashda qo'llashni muhokama qiladilar.

Bu – treningni baholash qismidir. «Qatnashuvchilar nimani o'rgandilar?». Trening davomida o'rganganlari yeki ko'rsatganlari natijalar Bilan mos kelishini tekshiring.

“Muammoli bola” treningni o'tkazish texnologiyasi.

treningni maqsadi:

- Qatnashuvchilarga muammoli bolalar bilan o'zaro til topishishning hamda ular bilan bo'ladigan turli vaziyatlarda to'g'ri yechimni topishlarga yerdamlashish.
- Muammoning mohiyatini aniqlashda malakani shakllantirish.
- Tirbiyaning ba'zi usullari bilan tanishtirish, bolalar va o'smirlar bilan ishlashda ushbu uslublarni to'g'ri tanlashni o'rgatish.
- Muammoli bolalarning paydo bo'lish sabablari va yetakchi tarbiyachilarning ushbu muammoni yechishdagi xatti-harakatlarini to'g'ri anivlashni o'rgatish.

13.3. Pedagogik texnologiyalar, tarbiya jarayonini

tashxis qilish mexanizmi.

Eng avvalo, ta'limning guruhli shakli “ta'lim beruvchi – ta'lim oluvchi” dialogidan voz kechishni va “ta'lim beruvchi – guruh – ta'lim oluvchi” ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlarga bo'linadi va ularning har – biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam kontakt o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakti tashkillashadi, bu esa, o'quv – bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

- vazifani hamkorlikda o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;

- ta'lim oluvchilar bir- biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni aniq shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni-argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir birlarini diqqat bilan eshitishlari kerak;

- guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Har bir ta'lim oluvchining potentsial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlaydi:

- qobiliyatli va iqtidorli bolalar, ularni «maqtanganlik» larida ayblashlaridan cho'chimasdan o'z qobiliyatlarini ko'rsatishlari mumkin. Ular, guruhda nafaqat ta'lim beruvchi rovida bo'lishlari, balki ta'lim oluvchirovida ham bo'lishlari mumkin va ta'lim beruvchi rolidagi o'z o'rtoqlari tomonidan baholanishi, raqib bo'lmasdan ulardan o'rganishi mumkin;

- o'rtacha qobiliyatga ega yoki harakteri bo'yicha qo'rqqoq bolalar o'z bilimlari va mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatini oladilar.

Kichik guruhlarda ishlash, ularni stress holatlardan xalos etadi, ya'ni noto'g'ri javob berganda butun jamoa oldida izza bo'lishdan qo'rqishdan holi bo'ladi. Guruh a'zolari, javobni do'stona baholab, ularda o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otish imkonini beradilar. 4 -5 kishidan iborat guruhda, qo'rqqoq kishi, 25 kishilik guruh oldida o'zini tutishga nisbatan, o'zini ancha erkin his etadi;

Ta'limning ushbu shakli, ta'lim oluvchilar bilimini o'zaro hamkorlikdagi boyishini ta'minlaydi: faqatgina kooperatsiya va harakatlar (bilish) usullari bilan o'zaro almashish umumiy mahsulot olish – muammoni yechish imkonini beradi. SHuning uchun, guruhda ta'lim berishda, biz, jamoaviy muhokama qilishdan, o'zaro konsultatsiyalar berishda maksimal foydalanamiz.

Guruhlarda ishlash, atrofdagilarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, «men va ular»dan «biz»ga o'tishni ta'minlaydi va o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.

4. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari. Avvalombor, «tamoyil» tushunchasi nimani anglatishini aniqlab olaylik.

Guruhlarni shakllantirish tamoyillari:

- bu, guruhlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishga bo'lgan asosiy talablar ifoda qilingan, umumiy, birlamchi qoidalardir.

SHu bilan birga, guruhlarni shakllantirish tamoyillari:

- bu tayyor retsept va universal qoida emaski, unga rioya qilgan holda yuqori natijalarga erishishga umid qilsak. Ularni amalda bajarish quyidagi xususiy omillar bilan belgilanadi:

- bizning va ta'lim oluvchilarning motivatsiyasi bilan: nafaqat bizning o'zimiz, balki har bir ta'lim oluvchi ham, ushbu talim shaklini mohiyatini tushunib yetishi juda muhimdir;

- bilimlar va tajribalar bilan;

- bizning pedagogik mahoratimiz bilan.

SHunday qilib, ta'lim oluvchilar guruhlarini shakllantirishda, qanday tamoyillardan foydalanamiz?

Ta'lim oluvchilarni guruhlariga ajratish paytida o'qitish maqsadlarini, natijalarini va usullarini hisobga olish.

Ta'lim shaklini tanlashni belgilovchi asosiy omil, ta'lim maqsadlari hisoblanishini biz aniqlab bo'ldik.

Ushbu ta'riflanishdan ko'rinib turibdiki, ta'lim maqsadlari deganda, nafaqat maqsadlarning o'zi, balki natijalar ham tushiniladi. SHuning uchun, biz, guruhli bilish faoliyatini amalga oshirish uchun guruhlarini shakllantiramiz, ya'ni:

- biz qo'ygan ta'lim maqsadlaridan (o'qituvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, motivatsion) kelib chiqqan holda (2 – jadvalga qarang);

- ta'lim texnologiyalari loyihasiga kiritilgan ta'lim usulini e'tiborga olgan holda (3 – jadvalga qarang);

Bunda, ta'lim oluvchilarni guruhlariga birlashtirishni, biz quyidagi belgilarga qarab amalga oshirdik:

*birinchidan, tasodifiy belgi bo'yicha:

- buning uchun, ta'lim oluvchilarga 1 dan 5 gacha ketma – ket sanashlarini iltimos qilamiz, keyin esa, «birinchilarni»

«ikkinchilarni», «uchinchilarni», va h. k. kichik guruhlariga birlashtiramiz;

- yoki ta'lim oluvchilarni, auditoriyada joylashganliklariga qarab, ixtiyoriy guruhlariga birlashtirishimiz mumkin.

- ikkinchidan, ularni o'qishda erishgan yutuqlari darajasini belgilash asosida:

- baravarlashtirish guruhi;

- qo'llab – quvatlash guruhi;

- rivojlantirish guruhi (Guzeev V. V., 1996).

Guruhning son tarkibini aniqlash paytida paytida vazifaning harakterini hisobga olish.

- kichik vazifalarni bajarish uchun guruhning maqbo'l tarkibi 3-5 kishi (mashqlar, o'quv turniri, kitob bilan ishlash va boshqalar).

- ko'p mehnat talab qiladigan (chet tillar bo'yicha mashg'ulotlarda) murakkab vazifalar uchun ko'p sonli guruh tuzish zarur;
- bir – birini tushunishni talab qiladigan (chet tillar bo'yicha darslarda)mashqlar uchun juftliklarda ishlash yaxshi.

Guruhlarni faoliyat ko'rsatishda vaqt omilini hisobga olish. Har bir guruh, unga yuklatilgan vazifani bajarish uchun ajratilgan vaqt qancha bo'lsa, shuncha vaqt faoliyat ko'rsatadi. Albatta, bir nechta o'quv mashg'uloti paytida ishlashni talab qiladigan muammoli tadqiqotni bajarish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, unda ushbu guruh bir nechta darsda faoliyat ko'rsatadi.

Vaqt tugashi bilan, guruh hisobot beradi va o'z faoliyatini tugalaydi.

Nazorat uchun savollar.

- 1.Yangi pedagogik texnologiyalarning hozirgi kundagi amaliy ahamiyati qanday?
- 2.“Pedagogik texnologiya” atamasining mohiyati nimada?
- 3.Noan'anaviy ta'lim jarayonining afzalliklari va kamchiliklari nimada?
- 4.Dars jarayonida treninglarni tashkil qilishning qanday afzalliklari mavjud?
- 5.Treninglarni tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?

14- Mavzu: Mehnat tarbiyasi va uning tashkiliy shakllari.

Reja

- 14.1. Mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida.
- 14.2. Jamiyatda tashkil etiladigan mehnat tarbiyasi.
- 14.3. Mehnat topshiriqlarini berishda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olish.
- 14.4. O'quvchilarni ijodiy mehnatga yo'naltirish.

Tayanch tushunchalar: Mehnatga layoqat, insonning shakllanishida mehnatning o'рни, ahamiyati, ishga ijodiy yondoshish, ishbilarmonlik, mehnatsevarlik, jismoniy mehnat, aqliy mehnat, ishni rejalashtirish, mehnatni uyushtirish, tashabbuskorlik, foydali mehnat, faollik, ishlab chiqarish, layoqat.

14.1. Mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida.

Mehnat tarbiyasining mazmuni hilma - hildir. U ta'lim muassasalarining butun o'quv-tarbiyaviy ishlarini o'z ichiga oladi. Umumiy tarzda aytganda, umumiy ta'lim va hunar o'quv muassasasidagi, mehnat tarbiyasi fan asoslari yuzasidan uquv mehnatini va mehnat ta'limini uz ichiga oladiki, ularning vazifasi talabalarda

aqliy va jismoniy mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirishdan va ularni umumiy polite hnik bilimlar, mehnat malakalari va kunikmalari bilan qurollantirishdan iboratdir. Lekin fan asoslari yuzasidan o'quv mehnati va mehnat ta'limi faqat o'quv maqsadlari bilan cheklanmaydi. Ular mehnat tarbiyasi bilan qo'shilib, talabalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy va estetik rivojlantirishning muhim asosi bo'lib maydonga chiqadi. O'qish bilan qo'shilgan ijodiy mehnatda talabalarning barcha qobiliyatlari rivojlanadi va takomillashadi, ular sha hsining g'oyaviy-ma'naviy sifatlari shakllanadi.

Talabalarning ijtimoiy foydali mehnati mehnat tarbiyasi butun sistemasining asosi hisoblanadi. Bunday mehnat deganda talabalarning ta'lim muassasasi, rayon va butun mamlakat turmushida bevosita faol ishtiroki shaklida amalga oshiriladigan, umum foydasi uchun qilinadigan baholi – qudrat maqsadga muvofiq mehnat faoliyati tushuniladi. Bu mehnat kungilli bulib, aksariyat hollarda unga haq to'lanmaydi.

Ijtimoiy foydali mehnatga quyidagilar kiradi:

- jamoat ishi - talabalar jamoasini uyushtirish, uni g'oyaviy-siyosiy tarbiyalash, aholiga ommaviy-madaniy xizmat ko'rsatish maqsadlariga xizmat qiladigan faoliyat;

- o'z-o'ziga xizmat qilish - o'quv muassasasi jamoasi oila foydasiga qilinadigan ijtimoiy foydali mehnat;

- unumli mehnat - talabalarning o'quv bilim yurti sharoitida (o'quv usta honasi, o'quv bilim yurti huzuridagi usta honalarda) bo'lganidek, ishlab chiqarish sohasida (fabrikalar va zavodlarda, kol hozlar va sov hozlarda va hokazo) ham moddiy boyliklarni yaratish bilan bog'liq ijtimoiy foydali mehnat faoliyati.

Biroq ayrim mehnat turlarining tarbiyaviy ahamiyati bir hil emas, ularning har biri uz hususiyatlariga, afzalliklariga va qiyinchiliklariga ega. Ulardan faqat eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

Oulada va ta'lim muassasasida o'z-o'ziga huzmat qiqlish – bu eng qulay va kundalik mehnat turidir. shaxsda mehnatsevarlikni tarbiyalash, uni tobora murshkkablashib oradigan mehnat faoliyati turlari bilan oshno etish shundan boshlanadi. Kup yillik tajribaning ko'rsatishicha, tarbiya umumiy sistemasida bu mehnatni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish o'z-o'ziga xizmat qilishga doir bu mehnat ya hshi odatga aylanadi, faqat majburiyat emas, talabalarning ehtiyoji bulib qolishga yordam beradi.

Tarbiyalanuvchini o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rgatish oiladan bashlanadi. U mehnat tarbiyasi vazifalarini hal etishga eng ko'p darajada samarali ko'maklashishi uchun uni qanday tashkil etish kerak?

Mehnat tarbiyasining birinchi bosqichi shaxslarni kichik va mazkur yosh uchun mos keladigan mehnat topshiriqlariga asta-sekin o'rgatish hisoblanadi. Ota-

onalar shaxslarning uz-uziga hizmat ko'rsatish mehnati majburan ekanligini, mustaqil bajarish mumkin bulgan narsalarni kattalar qilishiga majbur etish ya hshi emasligni tushunishlariga yordam berishlari kerak.

Ikkinchi bosqich mehnat turlarini uz-uziga hizmat kursatishdan umuman oilaga hizmat ko'rsatishgacha kengaytirish hisoblanadi. Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar ukasi yoki singlisining pal'tosidagi uzilib ketgan tugmasini qadab, sochiq va dastrumollarni dazmallab, otasining kastyumini tozalab qo'yishga qodirdir. Dastavval bu ishlar ota-onaning tashabbusi bilan bajarilishi mumkin, lekin keyinchalik oilaning boshqa a'zolariga uz tashabbusi bilan yordam berish ehtiyojini asta-sekin tarbiyalab borish kepak. Buning sabablari har hil bulishi mumkin. Masalan, bugun ota charchagan, shuning uchun uni uy ishlaridan ozod qilishga harakat qilish kerak bugun ona nimadandir ranjigan, uni quvontirish - honani tozalab chiqish, metall idish-tovoqlarni yaraqlatib qo'yish kerak.

Oilaga hizmat ko'rsatishga doir mehnat ko'nikmalari rivojlanishi bilan talabalarning mehnat faoliyati sohasini asta-sekin kengaytirish, muhtoj bo'lgan boshqa kishilarga mehnat yordai kursatishga jalb etish muhimdir. Bu o'ziga hos hudbinlikni, faqat uziga yaqinlari uchun ish bajarishga tayyorlikni bartaraf etishga kumaklashadi.

14.2. Jamiyatda tashkil etiladigan mehnat tarbiyasi.

Mehnat tarbiyasida tarbiyalanuvchilarning o'ziga hos hususiyatlarini hisobga olish ham muhim hisoblanadi. Jumladan, jismoniy zaif shaxslarga ularni mehnatdan ozod qilmagan holda kichik ishni topshirish va uni ochiq havoda bajariladigan qilib tanlashga harakat qilish, shu bilan ular salomatligini mustahkamlashga intilish kerak. Asabiy shaxslar uchun ularni tinchlantiradigan, vazmin holatga tushiradigan mehnatni izlab topish kerak. Qizlarning kashta kashta tikishi, to'qishi, o'g'il shaxslarning ishlab chiqarish- texnika sohasidagi qo'l mehnati bilan sho'g'ullanishlari foydalidir. Kitob o'qish va boshqa o'tirib bajariladigan, mehnat turlariga qiziqadigan shaxslar uchun harakt qilish va muskullarni mashq qildirishni talab etadigan ishlarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Va aksincha, agar shaxs ko'p yugursa, turli haraktli o'yinlarni o'ynasa, unga o'tirib bajaradigan ishni berish kerak.

5

Hayoli parishon tarbiyalanuvchiga diqqat-e'tibarni jamlashni talab etadigan mehnatni: sutni qaynatishni, tu hum pishirishni, yuvib qo'yilgan choyshab va kurpa-yostiqlik jildlari qurib ketmasligini kuzatishni, uz vaqtida tovuqlarni boqishni, sinchikovlik bilan rezavor buta sha hchalarini qirqishni, belgilangan vaqtda magazinga harid qilishga borib kelishni va hokazolarni topshirish mumkin. Irodasi bush shaxslar uchun ular har bir ishni oxirigacha yetkazishlari muhimdir. Ularga uzlari uchun qiziqarli bo'lib ko'rilmagan mehnatni topshirish va asta – sekin ular

⁵ P.Сарсенбаева “Меҳнат таълими негизиди ўқув – тарбиявий тадбирлар ўтказишининг илмий методик асослари” номзодлик диссертацияси, Т., 2004.

irodaviy kuch – g'ayrat ko'ratishlarga erishish foydalidir. Dangasalikka moyil bo'lgan yoki yengil-elpi ishlaydigan shaxslar uchun aksincha, dastlab ularni qiziqтира oladigan, ularning ijodiy fikrlarni uyg'otadigan ishni tanlash kerak.

Turmushning har bir holati uchun tavsiya berish qiyin. Lekin bo'lajak pedagoglar mehnatdan tarbiya vositasi sifatida foydalanganda eng muhim narsa – mehnat topshiriqlariga yondoshish kerakligini o'z hamkasblari, guruh rahbarilari bilan tez – tez maslahatlashishni yoddan chiqarmasliklari kerak.

Talabalarning o'quv mehnatini tashkil etishda mehnat topshiriqlarini bajarish jarayonida ularning bilish faoliyatini faollashtirish muammosi g'oyat muhim hisoblanadi. Bu yerda gap fan asoslari bilimlarini topa olish va mehnat ta'limida qo'llashga ularning o'zlarni qanday o'rgatish, ko'r – ko'rona emas, ongli ishlashlarini qanday o'rgatish haqida bormoqda. Bu muammoni hal etish mehnat topshiriqlari hususiyatlariga bog'liq. Mamlakat ta'lim muassasalari ilg'or tajribasining ko'rsatishicha, agar talabalarga sanoat mehnatining ayrim nisbatan jo'n turlari (masalan, mazkur jarayonga oldindan sozlab qo'yilgan dastgohda ayrim murakkab bo'lmagan jarayonlarni bajarish yoki konveyrda ishlash va hakoza) topshirilsa, bunday mehnat odatda ulardan bilimni qo'llashni talab etmaydi. Talabalar oldiga kompleks vazifalar qo'yilganda ahvol keskin o'zgaradi.

Bunday topshiriqlarni bajarishda talabalar o'zlari harakat qila boshlash oldidan ko'pgina narsalarni o'ylab ko'rishlari kerak bo'lgan real vaziyatlarga duch kelidlar. Bular buyumlarni konstuktsiya qilish, detallarga aniq ishlov berish, ularning te hnik talablariga mos bo'lishi masalalari, materiallarni tanlash, operatsiyalarining te hnologik ketma – ketligini o'rgatish, asboblarni tanlash, qatnashchilar o'rtasida mehnatni taqsimlash, uskunalarni mehnat unumdorligini oshiradigan, brakni kamaytiradigan moslamalar bilan jihozlash masalalari va hakoza. Bu va ko'gina masalalarni hal etish matematika, fizika, chizmachilik va boshqa bilimlarni qo'llashni talab etardi.

Qishloq ho'jalik mehnatida ham shunga o' hshash narsa ko'zga tashlanadi. Agar ta'lim muassasalar talabalardan ayrim, ancha jo'n qishloq ho'jalik ishlarida (masalan ekinlarni chopiq qilishda, ekinlarni sug'orishda, hosilni yig'ishtirib olishda) foydalansalar, bunday ishlar odatda yuzaki, fikrlash faoliyatsiz va fan asoslari bilimlaridan foydalanmasdan bajariladi.

Har qanday qo'l mehnatiga o'rgatishni hunarmandchilik deb atash, tokarlik yoki boshqa dastgohda, tikuv mashinasida har qanday o'rgatishni polite hnik mehnat deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Ishning mohiyati uni qaeday qurollardan foydalanib bajarishda emas, baki mehnatning o'z hususiyati, aqliy mazmuni qandayligidadir.

Jamiyat farovonligi yo'lida qilinadigan ijtimoiy foydali, unumli mehnat – talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi jihatdan eng ahamiyatli mehnatdir. Bundan tashqari, u eng ko'p tarqalgan mehnat bo'lib, shahar ta'lim muassasalarda ham qishloq ta'lim muassasalarda ham qo'llaniladi. Unda talabalarning ishtirok etish shakllari ham hilma – hildir. Biz o'quv bilim yurti talabalari mehnat birlashmalari

deb nom olgan mehnatning faqat ayrim shakllariga to'htalib o'tamiz. Ular faqat mehnat tarbiyasida emas, shu bilan birga hoviy – siyosiy, aqliy, a hloqiy, estetik, jismoniy, iqtisodiy, ekologik tarbiyada ham g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Talabalarni jamoat ishlab chiqarishida ongli va ijodiy ishtirok eitshiga tayyorlashda, shuningdek kasb tanlashda ham ularning ahamiyati kam emas. Mehnat brlashmalaridagi ishni tashkil etishning metodik masalalari ko'pgina o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan. Ularda asosiy e'tibor dastavval shunga qaratiladiki, talabalarning mehnat brlashmalari – bu ular mustaqil mehnat hayotining birinchi o'quv muassasasii, topshirlgan ish uchun yuksak ma'suliyatni tarbiyalash o'quv muassasasidir.⁶

Jismoniy va aqliy mehnatga birday hurmatda bo'lish kabi hislatlarni shakllantirish o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasidagi eng muhim vazifalardan biridir.

14.3. Mehnat topshiriqlarini berishda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olish.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti shakllanayotgan bir kezda talabalarda turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish – mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda albatta, ishlab chiqarishning asosiy shakllarini, ayniqsa iqtisodiy munosabatlarning yangi – yangi omillarini, ularga tanish hizmat turlarini belgilab olish darkor. shaxslarda hunar va kasbga bo'lgan muhabbatni uyg'otish jarayonida ularning ijobiy hislatlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratish lozim. Tarbiyalanuvchilarni quyi guruhdan kasbga yo'naltirib, 9 guruhni tugatganlarida akdemik litsey yoki kasb hunar kollejlariga yo'llanma berish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyalanuvchilarni bozor sharoitiga o'rgatishning o'zi ularning halol va fidokorona mehnati tufayli foyda olish haqidagi amaliy bilimlarini boyitadi.

Tarbiyalanuvchilarni jamoa bo'lib hamkorlikdagi mehnati natijasida mahsulot soni va hizmat turlarini oshirish mumkinligiga o'rgatish lozim. tarbiyalanuvchilarning qurilish maydonchalari, yordamchi yg'im – terim otryadlari va birgadalari saflarida hunarmandchiliklari bilan sho'g'illanishlari, usta shogird o'quv muassasalariga qatnashib halq amaliy san'atida, bemorlarni parvarish qilishda va nafaqa ho'rlarga hizmat ko'rsatish bo'limlaridagi, hovlilarni va ko'cha kuylarni tartibga kltirishdagi, sanoat – kor honalarida, hisoblash markazlari, kasal honalar va o'quv muassasasigacha ta'lim muassaslalaridagi ishlarni alohida qo'llab quvvatlamoq lozim. Ular bu ishlarning barchasidan foyda topish malaksini oshirib borish kerak. bozor munosabatlari bugungi kunda ja honda tan olingan moddiy barqarorlik va odamlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirib turadigan birdan – bir vosita ekanligini anglamoq kerak.

Bu munosabatlarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun qat'iy intizomga,

⁶ М.Мавлянкулов «Баркамол авлодни тарбиялашда меҳнат ва касб тарбиясининг роли» Т., 2005 (Б.М.И.)

tehnika va iqtisodiy bilimga, malakali mutaxassislariga, ishni to'g'ri rivojlantirishga asoslanadi. talaba bozor qarama qarshiliklarini va ularni bartaraf etish yo'llarini ham topa bilish kerak.

Bugungi kunda mukammal iqtisodiy tarbiyani takomillashtirmasdan ish qilib bo'lmaydi. SHu bois pedagoglar, guruh rahbari, o'quv muassasasidan tashqari ta'lim muassasasi hodimlari nafaqat bilim berishlari, balki tarbiyalanuvchilarda iqtisodiy faoliyat malakasini hosil etish, bozor munosabatlari sharoitida mustaqil fikrlashga o'rganish lozim bo'ladi. shaxslarga savdo va hizmat sohasidagi Yangi iqtisodiy termin va tushunchalarni o'rgatish, ularni qanday qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Ishga ijodiy yondoshuvining rivoji, topqirlik, ihtiroychilik, ishbilarmonlik, faollik va tashabbus tufayligina yuqori Samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligi tushuntirilsa, talabalar iqtisodiy faoliyatda muvafqiyat qozonadi.

O'quv muassasasi birlashmalari, shirkatlari faoliyatini nazorat qilish, o'quv muassasasining o'zini- o'zi boshqaruvi orqali olib boriladi. shaxslar tomonidan topilgan daromad ular ihtiroyida qoldiriladi. shaxslarning roziligi Bilan tarbiyalanuvchilar mehnat birlashmalari, shirkat va korxonalaridan daromad faqat ish haqqi sifatida tulanma, balki o'quv muassasasi vujudiga jamoa tuzilmalari jamg'armasiga ham o'tkazilishi ham mumkin.

Ta'lim muassasalarda kichik biznesni tashkil etish, tarbiyalaunvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

So'zsiz ularda bir – birini qo'llab quvvatlash, mehribonlik, homiylik, yordam kabi fuqarolik e'tiqodlari va fazilatlarini shakllantirib boriladi.

Bozorning a hloqiy va huquqiy me'yorlari bu insoniy a hloq me'yorlarining o'zginasidir. Bular: halollik, berilgan so'zning ishonchli va qat'iyatliligi, batartiblik, ijrochilik, majburiy mehnatni tashkil qilish, kredit va qarzlarni qoplash, broker (vositachi)lik ishlarini olib borish, hushmomilalak, sherikka, iste'molchiga bo'lgan hurmat va hako'zolar. ularning bari talabaga singdirilishi lozim.

14.4. O'quvchilarni ijodiy mehnatga yo'naltirish.

Ta'lim muassasalarida rivojlangan nazoratli, bozor munosabatlarini tashkil qilish bo'lg'usi biznesmen va ishbilramon kishilarni shakllantirish, uddaburon ho'jalik yurituvchi, iqtisodiy fikr va musho hadasi rivojlangan odani tayyorlash imkonini beradi. Mehnat tarbiyasida shaxslarni tizimli iqtisodiy bilimlar bilan qo'rollantirish, iqtisodiy qonunlar va qrama – qarshiliklardan oqilona foydalana oladigan qilib tarbiyalash juda muhimdir.

Bu ishlarning hammasi samarali kasbga yo'naltirish ishlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, kasb tanlagan o'smirga yordam berish va uning ma'horatini, iqtidorini namoyish etish lozim.

Tajribalarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki har qanday mehnatni tashkil etishning asosiy bosqichlari: rejalashtirish va tayyorgarlik ishlari, ishning boshlanishini tashkil etish va talabalarni ish joylariga to'g'ri taqsimlash, musobaqa va o'zaro yordam elementlari bo'lgan mehnat jarayoninig o'zini uyushtirish, ishni uyushqoqlik bilan tamomlash va uni baholashdan iborat. Rejalashtirishda: ishni to'g'ri borishini, uyushqoqlmk Bilan tugallanishi, mehnatni hisobga olish va baholash shakllarini kuzda tutish zarur. Ishni to'g'ri boshlash, talabalarni ish joylariga eng maqsadga muvofiq tarzda taqsamlash kelgusi butun ishlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Talabalar da mehnatga doimiy psi hologik va Amaliy tayyorgarlik har doim ham shakllanmasligini nazarda tutish kerak. Ayrimlar darhol ishga kirishishni ba'zilar esa aksincha ishlashni istamaydi. SHuning uchun mehnatni tashkil qilishda avvalombor moyillikni keltirib chiqarib bajariladigan mehnat jarayoniga yo'l yo'riq berish, qiziqtirish lozim. Bu mehnatni psi hologik ehtiyojga aylanishida eng kerakli shart hisoblanadi . Mehnatning maqsadi aniqlangach uni taqsamlash boshlanadi. Yakka holdagi topshiriqlarni berish ko'pincha ya hshi natijalarga olib keladi. Yakka tartibdagi ish har bir talabaning qobiliyati va mehnatini ya hshiroq hisobga oliga yordam beradi . Lekin shu Bilan birga u jamoa ishi va talabaning o'z – o'zini boshqarish ahamiyatini pasaytiradi. Guruhlarga ajralib umumiy guruh Bilan topshiriqni normada bajarish usuli ham mavjud. Lekin bu usul ham o'zini unchalik oqlamaydi chunki unda har bir guruh a'zosini va uning mehnat natijalari tenglashib qoladi. Ko'pchilik tajribalarda kichik guruhlar (5-10 ta) kishidan iborat guruhlarda ish bir oz ya hshiroq borishi kuzatilgan bunda talabalar ni o'z – o'zini boshqarishini keng rivojlantirish ishni oson rejalashtirish nzoatni ya hshiroq o'rnatish, natijalarini hisobga olish imkoniyati tug'iladi.

Pedagog talabalar ning bevosita faoliyati davomida mehnatga muhabbatni tarbiyalashning barcha usullarini mohirona qo'llashi kerak. Bir shaxsning chiroyli va tartibli bajargan ishi Bilan fa hrlanish boshqasiga odob bilan mulohaza qilish, o'z mehnati bilan yordam ko'rsatish, kichikroq bo'lgan intilishni qo'llab quvvtlash, rag'batlantirish bularning hammasi talabalar ning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi.

Mehnat qilinayotgan paytda musobaqa va o'zaro yordamni tashkil etish alohida katta tarbiyaviy qiymatga egadir. Ayni paytda ishning boshqa tomonini ham unitmaslik kerak. Ba'zan ish su'rati ketidan quvish uning sifati pasayishiga jismonan zaif talabalar ning charchab qolishiga olib kelishi mumkin.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti shakllanayotgan bir kezda talabalar da turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish – mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda albatta, ishlab chiqarishning asosiy shakllarini, ayniqsa iqtisodiy munosabatlarning Yangi – yangi omillarini, ularga tanish hizmat turlarini belgilab olish darkor.

Ishga ijodiy yondoshuvining rivoji, topqirlik, i htirochilik, ishbilarmonlik, faollik va tashabbus tufayligina yuqori Samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligi tushuntirilsa, talabalar iqtisodiy faoliyatda muvafqiyat qozonadi

Nazorat uchun savollar.

- 1.Mehnatning mazmuni nimalardan iborat?
- 2.Mehnatni tashkil qilishda nimalarga e'tibor berish kerak?
- 3.Yoshlarning mehnatga layoqatini o'stirish uchun nima qilish kerak?
- 4.Mehnatga oid maqollarni bilasizmi?
- 5.Yoshlarning mehnatni qadrlaydigan bo'lishlarida oilaning roli qanday?
- 6.Ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasi qanday yo'lga qo'yilgan?
- 7.Hozirga kunda shanbaliklar kerak deb o'ylaysizmi?
- 8.Mehnat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun rag'batlantirishning o'rnini qanday deb o'ylaysiz?

15- Mavzu: Munosabat pedagogikasi.

Reja

15.1. Munosabat pedagogikasi.

15.2. Tarbiya jarayonida munosabat pedagogikasining tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi.

15.3. O'quvchilarda munosabat madaniyatini shakllantirish.

15.4. O'quvchilarda hulq - atvor, ahloq odob madaniyatini, odatini va ko'nikmasini hosil qilish.

Tayanch tushunchalar: munosabat, munosabat madaniyati, oliyjanoblik, o'rnatilgan, uyg'unlik

15.1. Munosabat pedagogikasi.

Pedagoglarda biz albatta, oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz shart. Oliyjanoblik qalbning o'ziga hos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Oliyjanoblik hissi har bir insonda yoshligidan tarbiyalanib o'ziga to'g'ri baho berishga yordam beradi. Bu hislat har bir inson uchun lozim, ammo pedagog uchun bu zaruratdir. Chunki faqat oliyjanob odamgina talablarda bu hislatni uyg'otishi va rivojlantirishi mumkin. Qanday qilib o'zini hurmat qilmagan inson boshqalarga o'zini hurmat qilishni o'rgatish mumkin.

Faqat ichki uyg'unlikka ega bo'lgan insongina boshqalar hayotiga ham uyg'unlik kiritishi mumkin. Oliyjanob inson boshqalarning muvafaqiyatidan hursand bo'ladi va mag'lubitidan aziyat chekadi. Pedagog esa talabalarning

yutuqlarida hursand bo`lib qolmasdan balki lazzat ham oladi. Chunki bu yutug`da pedagogning ham kichkina ulushi bor. Mag`lubiyat bu pedagogning ham mag`lubiyatidir.

15.2. Tarbiya jarayonida munosabat pedogogikasining tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi.

Pedagogga qo`yiladigan birinchi ahloqiy talab, bu talabaga hurmat bilan, mehr bilan qarash. Ma'naviy shakllanish talabdan ko`p kuch va ko`p vaqt talab etadi. Ichki qarama – qarshiliklar talabani hulqida salbiy ko`rinishlar vujudga kelishi mumkin. Bunday hollarda murabbiy etiket chegarasi doirasida ish olib borishi mehr va toqat bilan ish yuritishi shart. Murabbiy har bir shaxsni baholashda uning jamoadagi o`rniga, o`qishdagi muvafaqiyatlariga, ota – onasining nasl nasabiga qarab emas, balki shu talabning ichki dunyosini shakllanishi darajasiga, odamiyligiga qarab baho berishi lozim. Bu kamsitmaslik ularning tarbiyasi ustida ish olib borayotgan davrda nuqsonlarni yo`qotishga harakat qilish va hurmat bilan qarashi zarur.

15.3. O`quvchilarda munosabat madaniyatini shakllantirish.


Pedagogning talabalarga bo`lgan nisbatan bo`lgan munosabati mehr, hayri-hohlik va yordamidan iborat bo`lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo`lib, talabalarni o`z holiga qo`yib o`zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi etarli degan hulosaga kelgan pedagoglar katta hatoga yo`l qo`yadilar. Talabni qo`yish qiyin emas, lekin uni bajararilishiga erishish qiyin shuning uchun talablariga to`liq javob olgan pedagoggina o`z kasbining ustasidir deb tan olish kerak. Yaxshi pedagog har bir talabga individual yondashib, uning talablariga javob berishida qanday qiyinchiliklar vujudga kelayotganini, uni nima qiynayotganini sinchiklab o`rganishi lozim. Talabaga bu jarayonda hayri hohlik bilan yordam qo`lini cho`zishi kerak.

1-slayd. Pedagogik ijodkorlikning asosiy boskichlari:


Педагогик ижодкорликнинг асосий босқичлари:


1. педагогнинг гуруҳдаги муомаласини олдиндан пайқаши унинг ижодий кайфиятини сафарбар қилувчи омил эканлиги;
2. гуруҳ билан дастлабки алоқа бевосита муомала пайтида педагог ижодий кайфиятининг рағбатлантирувчи омили сифатида;
3. педагогнинг гуруҳ билан муомаласи тизими: у фаолият жараёнида педагогнинг ижодий кайфиятини ривожлантиришни қўллаб – қувватлайди ва рағбатлантиради;
4. муомаладан қаноат ҳосил қилиш шундан кейинги фаолиятда педагогнинг ижодий кайфиятини рағбатлантирувчи омил сифатида.

2-slayd. Pedagogning talabalarga munosabati



3-slayd. Munosabat uslublari.





16- Mavzu: Tarbiya – tarbiya muassasalarida bayramlarni, ommaviy tadbirlarni namunali o'tkazish.

Reja

16.1. Tarbiya jarayonini tashkil etish.

16.2. Talabalarni turli bayram va ommaviy tadbirlarga munosabatini tiklash.

16.3. Bayram va ommaviy tadbirlarni o'tkazishning tarbiyaviy ahamiyati.

16.4. Tadbirlarda o'quvchilar ishtirokini ta'minlash.

Tayanch tushunchalar: Tashkilotchi, faoliyat, maqsad, vazifa, tarbiyaviy ishlar, o'quvchi, guruh rahbari, ma'naviyat, to'garaklar, rejalashtirish, shakl, usul, guruhlashtirish, tarbiyaviy tadbirlar va hokazo.

16.1. Tarbiya jarayonini tashkil etish.

Tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur bilib, uni tashkil etishda tashabbus ko'rsatish, ishbilarmonlik va epatchilik, barcha yangi va ilg'or narsalarni amalda samarali qo'llay bilish kollej o'quvchisi shaxsini rivojlantirish jarayoniga rahbarlik qilish printsiplaridan biridir.

Samarali rahbarlik uslubini kollej hayoti va faoliyatiga tatbiq, etishishshg namunasi bo'lgan kollegial va yakka rahbarlikning birga qo'shib olib borilishi o'quvchilar takdiri, ularning tarbiyasiga pedagoglar jamoasi javobgarligini va direktorning shaxsiy javobgarligini ta'minlaydi.

Rahbarlikning zarur printsiipi rejalilik bo'lib, uning yordamida pedagogik ta'sirlar tizimi va tarbiyaviy ishda izchillikka erishiladi. Rejalilik direktorga tarbiyaning barcha masalalarini aniq amalga oshirish istiqbollarini namoyon qiladi.

Mazkur ta'limotga asosan kollejdand tashqari ishlarni rejalashtirish va uning amalga oshirilishiga rahbarlik hamda nazoratni uyushtirib borish kollej ichki boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Guruhdan va kollejdin tashqari ishlarning umumkollej rejasini ma'naviy va ma'rifat bo'yicha direktor o'rinbosari rahbarligida, guruh rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o'qituvchilar, kollej kutubxonasi, o'quvchi-yoshlar tashkiloti, o'quvchilar uyushmasi, ota-onalar komiteti hamda to'garak rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni kollejning yig'ilishida muhokamadan o'tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizdagi qator kollejlarda ilg'or direktorlarining ish tajribalarida o'qituvchilar va guruh rahbarlarining tarbiyaviy ishiga pedagogik rahbarlikning yaxshilanishini ta'minlaydigan kompleks tizim tarkib topmoqda.

Direktor o'qituvchilar, guruh rahbarlari, tarbiyachilar va o'quvchilarga nisbatan tutgan printsipliy yo'li va faoliyatida birlik bo'lishiga erishadi, kollejning oila, kattalarning mehnat jamoalari, jamoat, tashkilotchilari bilan uzviy hamkorlik qilishga intiladi.

Kollejning tarbiyaviy jarayoniga rahbarlik qilishda direktor boshlang'ich va o'quv guruhlari tarbiyaviy ishida izchillikka rioya qilishga alohida e'tibor beradi, bu bilan ta'lim jarayonida ham, shuningdek, darsdan tashqari vaqtda ham tarbiyaning uzluksizlik va printsiplini amalga oshiradi.

16.2. Talabalarni turli bayram va ommaviy tadbirlarga munosabatini tiklash.

Guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasini bu majburiy pedagogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko'rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda. Rejalashtirishda quyidagilar nazarda tutilsa, uning samarasi oshadi:

1. Reja mahalliy sharoitga qarab, kollejning joylashgan o'rni, albatta, o'quvchilarning saviyasi, yoshga qarab mumkin qadar mos tuzilishi kerak.
2. Reja muayyan maqsadga qaratilishni va real (aniq) bo'lishi zarur.
3. O'quvchilar va o'smirlar uyushmasi bilan kelishilishi lozim.
4. Rejada o'quvchilarning kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta'tillarida qiladigan ishlari aks etishi kerak.

O'tkaziladigan tadbirlarning bajaruvchi shaxslari, muddati va bajarilishi turi aniq, ko'rsatilishi lozim.

Reja kollej direktori o'rinbosarlari tomonidan ko'rib, direktor tomonidan tasdiqlanishi shart.

Rejalashtirishda guruh rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari juda ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy ish jarayonini endi boshlagan, kam tajribaga ega – guruh rahbari, odatda keng qamrovli ish rejasini tuzsa, pedagog esa, chegaralangan reja bilan ishlashi mumkin. Ammo har ikkala holda ham barcha guruh rahbarlarining tarbiyaviy rejasida tarbiyaviy ish faoliyatining asosiy mazmuni hamda yo'nalishlari to'la aks ettirilmog'i darkor.

Quyida kollejning birinchi o'quv yili yarim yiliga mo'ljallangan namunaviy ish rejasini keltirildi.

Guruhga qisqacha tavsifnoma

Guruhda o'quvchi bo'lib, ...tasi qizlar va ... tasi o'g'il o'quvchilar.

SHulardan ... tasi "O'quvchilar va o'smirlar" uyushmasi a'zosi.

«O'quvchilarning bilim darajalarini nazorat qilishning reyting ko'ra a'lochi va o'zlashtirmovchi o'quvchilar soni.

Guruh o'quvchilari darslarda ongli intizomga erishgan va guruhdan tashqari ishlarning ko'pgina masalalarini mustaqil hal etadi. O'quvchilar faol, mehnatsevar va do'stona jamoadir.

Guruh rahbari o'quvchilar haqidagi quyidagi ma'lumotlarni shu bo'limga keltirishlari mumkin:

O'quvchi qaerda yashaydi?

Uning ota-onasi qaerda va kim bo'lib ishlaydi?

Oila tarkibi, oilaning madaniy darajasi.

Oiladagi o'zaro munosabat.

Oiladagi o'quvchiga tarbiya berishning o'ziga xosligi.

O'quvchining uydagi kun tartibi va maishiy ahvoli.

O'quvchining uy va jamoat ishlariga ishtirok etishi.

Fan tugaraklariga qatnashishi (kollej va kollejdani tashqaridagi).

O'quvchining kollejdani tashqaridagi do'stlari va tanishlari.

O'quvchi yozda qaerda?

O'quvchi hayotidagi eng muhim voqea-hodisalar.

Gazeta va jurnallarga obuna bo'lishi.

O'quvchi salomatligining ahvoli xodimlarining ma'lumotiga ko'ra).

Tarbiyaviy vazifalar

O'quvchilarni mehnatda va o'zbek xalqining mustaqil davlat qurishdagi bunyodkorlik ishlarida ishtirokini ta'minlash.

YOshlarni baynalmilal va boshqa xalqlarning qardoshlarcha do'stligi ruhida tarbiyalash.

O'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini belgilash.

O'quvchilarni umumiy o'rta ta'limdan keyingi bosqichga tayyorlash.

YUksak ma'naviyat, iymon va e'tiqodli bo'lish, istiqloq g'oyalarini singdirish.

Guruhdagi barcha o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga erishish.

O'quvchilarning ongli intizomi uchun o'qishga va mehnatga to'g'ri munosabati uchun kurash olib borish.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etishda ularning mustaqilligi va tashabbuskorligini oshirib borish.

"O'quvchilar va o'smirlar uyushmasi"ga kirish uchun tayyorlash.

Eslatma: Tarbiyaviy vazifalar o'quvchilarning yosh xususiyatiga qarab o'zgartiriladi.

16.3. Bayram va ommaviy tadbirlarni o'tkazishning tarbiyaviy ahamiyati.

Guruh rahbari tomonidan o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlar shu bo'limga kiritilib, guruh tarbiyaviy soatlari deb yuritiladi (yil davomida 30-34 soat dars jadvaliga kiritiladi), u soddalashtirilgan, barcha guruhlar uchun qulay quyidagi andozaga tushirilishi mumkin. Avvalgi adabiyotlarda berilgan rejalashtirish chizmasiga "Bajarilish turi" qo'shimcha sifatida kiritildi. Maqsad, rejalashtirilgan mavzu masalan, "Ota-onam - suyangan tog'im" yuzasidan suhbat, kecha, konferentsiya uchrashuv, ekskursiya va hokazolar o'tkazish mumkin. Albatta, bu tadbirlarning barchasini bir o'quv yilida o'tkazib, guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasida bu mavzu har yili takrorlanib, bajarilish turi o'zgartirib boriladi. Guruh rahbari mehnatining unumli bo'lishida bu usul ancha samara beradi.

Tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish turi	Vaqt	Mas'ul kishi	Ijrosi haqida
Ota-onam suyangan tog'im	Uchrashuv	Mart oyining 1-xaftasi	Guruh ota-onalar qumi tasi raisi	Tadbirda ...ota-ona, ...o'quvchi ishtirok etdi

Guruh tarbiyaviy soatlarning mavzulari tubandagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi va yuqoridaga andozaga tartib bilan jamlanadi.

Ma'naviyat va burch tarbiyasi

Ma'naviyatimizning kadimiyligi, mazmun va mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, asosiy tamoyillari, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi roli va ahamiyati, Prezidentimiz asarlari va nutqlarida insonni jonli mavjudodlardan ajratib turadigan ong va til, aql-idrok va tafakkur, odamgarchilik, muruvvat va sahovat, rahm-shavqat, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, tabiatni e'zozlash, ilm va fanni, adabiyot va san'atni, madaniyatni sevib ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o'zi va o'zga millat kishilarini, ularning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va an'analarni hurmat qilish va qadrlash xislatlarini tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinadi. Tarbiyaviy soat mavzulari:

Ma'naviyat insonga xavodek, suvdek zarur.

Insonni hayotini bezaydigan, go'zallashtiradigan omil ma'naviyatdir.

Davlat va millat ma'naviyati bilan ko'rkamdir.

Ma'naviy barkamol kishilar hayoti biz uchun namuna.

Xalollik va rostguylik - inson fazilati.

Bugun niyat - ertangi haqiqat.

CHin va yolg'on dustlik.

Haqiqiy va qalbaki qaxramonlik.

YOmon odatdan saqlan.

Iymonsizda Vatan tuyg'usi bo'lmaydi.

O'z g'ururingni himoya qila olasanmi?

Qur'oni karim va Hadisi sharifdan parchalarni o'qish va muhokama qilish.

Eslatma. YUqoridagi va endi tavsiya qilinadigan mavzularni guruh o'quvchilarining qabul qilish darajasiga qarab soddalashtirish, murakkablashtirish mumkin.

Vatanni sevmoq iymondandir.

“Uning baxt-saodati, yorug’ istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bulsa, jonini fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir”.

I. A. Karimov Inson uchun ota-ona, aka-uka, do’st-birodar qanchalik zarur bo’lsa, ham Vatan ham shunchalik mu’tabardir. Uni asrab-avaylash bizning burchimizdir. CHunki "SHu aziz Vatan barchamizniki", ekanligi o’quvchilarga tushuntirilib, Alloh taoloh, tilu-zabon, ongu-tafakkur bergan inson uchun Vatandan ortiq mehriyoy va ulug’ ne’mat bergan inson uchun Vatandan ortiq mexriyoy va ulug’ ne’mat yo’qligini isbotlovchi mavzular bu bo’limga kiritilishi mumkin.

Vatan - Sen suygan odamlar manzili.

Vatan - bu tug’ilgan joy.

3. Vatan - bu insonlar yashaydigan muqaddas zamin.

"Davlat", "Hukumat", "Xalq" tushunchalari nima?

Urush va mehnat faxriylarini e’zozlaymiz.

G’alaba va mustaqillik kunini sharaflaymiz.

Harbiy o’yinlarda ishtirok etish.

Vatanimga xizmat qilaman.

CHin Vatanparvarlik o’z ulkasini sevishdan boshlanadi.

Hadisdan mavzuga ovd parchalarni o’qish va muhokama qilish.

Respublikamiz istikdolini mustahkamlashda faolmiz.

O’zingiz yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, viloyat tarixini bilasizmi?

Mening vatandoshim - zamondoshim.

"Bizdan ozod, obod vatan qolsin".

YOv qochsa, botir ko’payar.

Mustaqillik uchun kurashgan ajdodlarimiz - faxrimiz.

O’zbekiston - Vatanim manim.

Baynalmilal tarbiya

Baynalmilal birlik nima?

Sen hamdo’stlik mamlakatlari va ularning o’quvchilari haqida nimalarni bilasan?

Bu mavzuga tayyorgarlik tubandagicha tashkil etilishi mumkin. Hamdustlik mamlakatlaridan biri tanlanib, uning tashkil topgan vaqti geografik jihatdan joylashishi, aholisi, tabiiy boyliklari, iqtisodi, adabiyoti-san’ati, chet mamlakatlar bilan aloqasi kabi savollar o’quvchilarga bo’lib beriladi. Navbatdagi tarbiyaviy soatga geografiya, tarix va adabiyot o’qituvchilari taklif qilinib, o’quvchilar tinglanadi. Fan o’qituvchilarining suhbatini bilan mashg’ulot yakunlanadi.

Bizning mahalla, qishloq. va tumanda necha xil millat vakillari yashaydi va ular qanday aloqadalar?

Tuman va viloyatlardagi qo’shma korxonalar vakillari bilan uchrashuv uyushtirish, ekskursiya tashkil etish.

CHet tillarni o’rganish - iqtisodiy mustaqillik poydevori.

6. CHet tili o’qituvchisi bilan xorijiy tilda ma’lum temaga atalgan kecha o’tkazish.

Hamdo'stlik mamlakatlari hamda chet ellik o'quvchilar bilan aloqa bog'lash.

CHet mamlakatlarda ta'lim olayotgan yurtdoshlarimiz bilan aloqa o'rnatish, ular orqali u mamlakat haqida ma'lumot to'plab, muhokama qilish.

Estetik (nafosat) tarkibi

Musiqani qanday tinglash kerak?

Badiiy asar qanday o'qiladi?

Afsuski, hozirgi kunda o'quvchilarimiz kitob mutolaasiga qiziqmay quydilar. Zeroki, mashhur tatar olimi Rizouddin ibn Fahrudinning "Nasiyhat" kitobidan olingan ushbu parcha o'quvchilar bilan ishlab chiqilsa, o'quvchilarning bu kasalligiga shifo bo'lsa ajab emas.

Kitob va mutolaa

Go'zal kitoblar ajib narsalarni ko'ruvchi ko', avloqda sirdosh, yolgizlikda do'st, ojizlik vaqtlarda yordamchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi, u zamon ahvolidan so'zlovchi, ummatlar voqiotini hikoya etuvchi, aqlli kimsalarning aqllarini ko'rsatuvchi, oz haqli - ko'p foydali narsalardir. SHuning uchun kitob olmaqda baxillik etmangiz, kitoblardan ayrilmangiz.

Lekin kitoblar orasida yo'q, narsalar yozilmish - ma'nosiz narsalar ila to'lganlari-da bordir, bo'larni o'qimoq, qiymatli umrni zoi' etmakdir. SHuning uchun fikrlarni nurlantirajak, hulqi poklarga yordam berajak, aklni ortirajak kitoblarni ixtiyor etib, boshqalardan yiroq bo'lingiz. Foydali kitoblarni o'qimak kungliga shodlik keltirur, fikrga oziq bo'lur, zehnga quvvat berur...

3. Ba'zi kimsalar bo'ladiki, "kitobi ko'b" deb xalq orasida nom chiqarmoq uchungina kitob yig'ib, o'zlari hechda foyda olmaslar. Boshqalarga-da» foyda oldirmaslar, hatto ichlarida nimalar borliginida bilmaslar. Bular yuq tashuvchilar misolidadir. SHuning uchun sizlar o'zingiz foyda olajak bo'lgan kitoblarni o'zingaz foyda olmoq uchun ixtiyor etingiz.

4. Mutolaa insonning yuziga nur, kungliga shoddik keltirur. Ushbu sabab uchun zehn xizmati ila mashg'ul bo'luvchilar harnaqadar oriq bo'lsalar- da, aqllari semiz va yo muhabbatli bulur.

5. Musiqaning ajoyib sahifalari - musiqali soat o'tkazish. O'quvchilarga mumtoz ashulalardan birining nomi aytiladi. Topshiriq: she'r muallifi, bastakori haqida ma'lumot to'plab kelish, gramplastinka yoki magnit tasmaiga yozilgan qo'shiqni topish va birgalikda eshitib, muhokama qilish, O'quvchilar o'zlariga topshirilgan vazifani musiqa o'qituvchisi yordamida guruh tarbiyaviy soatida muhokama qiladi.

6. Sen mehmoni qanday kutasan, mehmonda o'zingni qanday tutasan? (Mehmon bo'lish va kutish adabi haqida).

7. "San'atkor dunyosida", "Ulug' rassom" mavzularida suhbat, uchrashuv, ekskursiya o'tkazish, albom yoki stend tayerlash.

Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash

Bu tarbiyaviy tadbirni yuqoridagi kitobdan olingan quyidagi parchalarni guruh tarbiyaviy soatida ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Ilm ko'ngil ko'zini ochur, nodonlik qorong'ulikni keltirur, ulug' darajalar etkurur, dushmanlarga qurol bo'lur, tiriklikni saqlar, dunyo kutmak sabablarini bildirur, yurt ichida va umumxalqlar ila qanday suvratda bo'lmak kerak ekanini

o'rgatur. Ilm olimlarning xurmati bo', ug'rilardan qurqusiz davlat va hech bitmayturgan boylikdir.

Olimlar payg'ambarlarning vorislari, dunyoning nurlari bo'lib, nodonlarda dunyoda turganlari holda o'liklar xukmidirlar, chunki ular Olloh taoloning ajib narsalariga kerak vaqtidagina ko'z solurlar, lekin ibrat ola bilmaslar. Kerak vaqtida suv ichadilar, ammo suvning nimadan hosil bo'lgani, chashmalarning qaerdan kelib, qaerga ketganlaridan xabar bo'lmas.

Ilmi ko'b kimsalarga qaraganda oz ilmi bo'lmakdan uyalmangiz, balki bilmaq qo'lingizdan kelajak narsalarni bilmay qoluvingizdan uyalingiz, chunki bunisi aybdir.

Ilm axllariga nafs ortidan yo'rmak hech kelishilgan ish emas, shuning uchun shariy'at o'lchovidan tashqari mol sevmangiz shahvatlarga asir bo'lmangiz.

Har vaqt ilmga muhabbat qo'yingiz, o'rgatilmish narsalarni ixlos ilar tinglangiz, kerakliklardan so'ng kerakliklarni o'rganingiz va har bir ilmdan ko'rkam bo' bilingiz, xech vaqt ilmga takabburlik ko'rsatmangiz.

Ilm o'rganmak harnaqadar go'zal ish bo'lsa-da, buzuk, niyat ilar bo'lganida go'zalligi yo'q olur. SHuning uchun "Bizdan Olloh taolo rizo bo'lsin ham yaxshi ishlarga sabab bo'lsin", deb niyat etingiz. Bu esa yaxshi niyatdir. "Imom, muazzin, oxund, qoziy yoki muallim, mudarris va nima bo'lsa-da, bir martabaga erishsak edi", deb niyyat etmangiz, ko'nglingizda bu kabi narsalar bo', chiqaringiz, chunki bo' yaxshi niyyat emasdir. Zero ilmdan maqsad daraja emas, balki foydali odam bo'lmakdir.

Xazingangizda bo'lgan ilmdan ortiqni da'vo etmangiz, o'z-o'zingizga ulug'lik ilar hukm aylamangiz. Bilursizmi, donolari ko' va yirik bo'lgan boshokdar har vaqt boshlarini qo'yi solib tururlar. Donsiz yoki donli boshoklar boshlarini yo'qori ko'tarib tururlar, ozgina havo silkinsa, silkina boshlaydilar, holbuki, o'zlarining o'tga yondirmakdan boshqa foydalari bo'lmas.

1. "So'nggi axborot" minuti o'tkazish. O'quvchilarga navbat bilan hafta mobaynida Vatanimiz va chet el yangiliklaridan to'plab, muhokoma qilinadi. Materiallar gazeta, radio va televideniyadan to'planadi. Buning uchun har tarbiyaviy soatda 3-4 minut vaqt ajratiladi. davomida har bir o'quvchi bu tadbirda bir marta qatnashadi.

16.4. Tadbirlarda o'quvchilar ishtirokini ta'minlash.

O'quvchilarni kollejdagi fan to'garaklarga qatnashishini etish va kuzatish.

"O'ylab ko'r", "Bahs", "Bilib qo'ygan yaxshi", "YAngiliklar", mavzularda guruhning munozara burchagini tashkil etish.

Gazeta va jurnallarga obuna bo'lishini ta'minlash.

5. Radio va televideniyalarda o'tadigan o'quvchilarbop eshittirish ko'rsatuvlarni eshitish va ko'rish, uni muhokoma qilish.

6. Fan xaftaliklarida ishtirok etish.

7. Fanga oid kollejda tashkil etiladigan ko'rgazma, kecha, badiiy olimpiadalarda qatnashish.

Ekologik tarbiya

Inson samarali mehnati, tabiat noz-ne'metlaridan oqilona foydalanishi va uning go'zalliklaridan bahramand bo'lishi tufayli farovon hayot kechiradi. O'quvchilarda bu tushunchani shakllantirishda ekologik tarbiya muhim o'rin tutadi.

Ekologik tarbiya – bu o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan beparvo bo'lmaslik, tabiat, inson, hayvonot va o'simliklar dunyosini e'zozlashni shakllantirish demakdir. Bu jarayon dars va guruhdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

1. YAshab turgan tuman, viloyat tabiatini o'rganish.

3. "Suvsiz hayot bo'lmas", "Er xazina, suv oltin", "Tabiat uchinchi - akamiz mavzularida til adabiyot o'qituvchisi hamkorligida insho o'tkazish, muhokama qilish, namunali insholar ko'rgazmasini tashkil etish.

3. "Tabiat boyliklari deganda nimani tushunasiz?", "Tabiatni uchun asrash uchun nimalar kilish kerak?", "Qanday zavodlar havoni ifloslaydi?", "Orol dengizi haqida nimalarni bilasiz?", "Qanday daraxt va gullarni sevasiz?" mavzularida munozara tashkil etish.

Sog'liqni saqlash va sog'lom avlodni tarbiyalash tadbirlari

1 . Tibbiyot xodimlarining "Tozalik va sog'lik," haqidagi suhbatlarini uyushtirish.

"Sog'lom tanda – sog'lom aql", "Sog'liq - tuman boylik" mavzularida munozara o'tkazish.

Buyuk allomalarning sog'lik-salomatlik haqidagi o'gitlarini muhokama qilish.

4. Gazeta, jurnal va badiiy asarlar qanday o'qiladi? Mavzusida munozara.

5. Jinsiy tarbiya borasida ug'il va qiz o'quvchilarga alohida-ma'lumot berish.

SHuningdek, "Nasiyhat" kitobidan "Ovqatlanmak" va "Ichmak" odoblari haqidagi ibratli parchani ishlab chiqilsa maqsadga muvofik, bo'ladi.

Jismoniy tarbiya

"Badan tarbiya bilan mu'tadil va uzoq vaqt shug'ullanuvchi kishi tabiblarning davosiga muhtoj bo'lmaydi".

Abu Ali ibn Sino

Kelajak avlodni har jixatdan etuk qilib tarbiyalash, o'quvchilarni jismoniy baquvvat, har qanday muxitga, mehnatga qodir va chidamli qilib tarbiyalash maqsadida guruh tarbiyaviy soat darslari va boshqa tarbiyaviy tadbirlarda tubandagi mavzulardan foydalanish

1. Salomatlikni saqlash va tiklash uchun jismoniy mashqlardan foydalanish (Kollejdaga darsdan oldingi badan tarbiya mashqlariga qatnashishlarini ta'minlash).

2. O'quvchilarni kollej va kollejdand tashqaridagi sport musobaqalariga qatnashishlarini ta'minlash.

3. "YOshlik-chakqonlik" mavzusida suhbat.

"Ular bilan faxrlanamiz" mavzusida uchrashuv o'tkazish, albom yoki stend tayyorlash (kollej, tuman yoki viloyatdan chiqqan sport mash'allari haqida).

"Agrar yursang piyoda, umring bo'lar ziyoda" mavzusida ta'til vaqtlarida ekskursiyalarga chiqish.

Sport musobaqalariga jalb qilish.

7. Vatandosh buyuk allomalarimizning jismoniy tarbiya haqidagi fikrlarini muhokama qilish.

Tarbiyaning muhim sohasi sanalmish jismoniy tarbiya haqidagi o'zbek mutafakkir olimi, etuk pedagog Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobidan olingan ushbu parchani o'rganish o'rinlidir.

"Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki, o'qimok, o'qutmok.. o'rganmoq, va o'rgatmoq; uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga bulgan insonlar amallarida, ishlarida, ibodatlarida kamchilik qilurlar.

Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh, ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini quyub, astarini yuvub, ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun malxam va sog'lom bir vujud kerakdur"

Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari

Mustaqillik tufayli hayotimiz kundan-kunga farovonlashib borishi shubxasiz. Albatta buning negizida Prezidentimiz va hukumatimizning yangi-yangi farmon, buyruq va ko'rsatmalari yotadi. Buni biz shartli ravishda rejaga "Eng yangi yangiliklar" deb kiritdik. Bu bo'lim rejaning eng oxirgi tadbirlaridan hisoblanadi va rejaning oxiriga kiritiladi. Tarixiy sanalardan so'ng qayd qilinadi. Tarbiyaviy tadbirlarda ularni o'rganish va hayotga tadbiq etish zarur, ya'ni zamon talablariga ko'ra chiqarilgan yangiliklar reja tuzilgandan so'ng e'lon qilinsa, guruh rahbari belgilagan tarbiyaviy tadbirni o'quv yilining qaysi yarim yilligidan qat'iy nazar, tarixiy sanalardan keyin mavzuni qayd etadi va tegishli tadbir o'tkazadi.

Kollej rahbarlari rejani tasdiqlayotgan vaqtlarida bu bo'limning qay tarzda aks etganligiga ahamiyat berishlari zarur.

Tarbiyaviy papkada nimalar bo'lishi kerak?

Guruh tarbiyaviy papkasi guruh rahbarining tarbiyaviy sohasida olib boriladigan ishlar to'plamidir. Bunda faqat o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab tarbiya borasida kerak bo'ladigan materiallar bo'lishi kerak.

YUqoridagi tajribalardan kelib chiqib, guruh rahbarining tarbiyaviy ish rejasi bir katta daftarda bo'lishi maqsadga muvofiq, deb topgan edik. Guruh rahbari mehnatini ixchamlashtirish, nazoratni va boshqaruvni ilmiy asosda tashkil etish uchun reja mundarijasi tubandagi bo'lishini tavsiya etamiz.

Guruhga qisqacha tavsifnoma.

Tarbiyaviy vazifalar.

O'quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari (Eslatma: mundarija mazmuni 1-3 bulimlarda tavsiya etilganidek yoritiladi va daftar bo'lim hajmiga ko'ra mundarijаланadi).

O'quvchi, o'qituvchi, ota-onalar bilan suhbatlar alohida-alohida betlarda qayd etiladi.

Tarbiyaviy soatlarni hisobga olish (Tarbiyaviy soatga bir soat darsga qanday tayyorlansa, bu tadbir uchun dam shunday hozirlik ko'rish talab etiladi).

Mundarijaning bu qismida xar hafta o'tkazilgan tarbiyaviy soatning mavzusi, bajarilish turi, vaqti, kim tomonidan bajarilganligi (haqidagi qisqacha bayonnoma qayd etiladi. Demak tarbiyaviy papkada:

tarbiyaviy ishlar rejasi;

rejalashtirilgan mavzuga oid risolalar;

- yo'l harakati xavfsizligi va yong'indan saqlanish qoidalari yuzasidan dastur va ko'rsatmalar hamda tarbiya borasida kerak bo'ladigan zarur materiallarga balsa bas.

Xaftalik tarbiyaviy tadbirni rejalashtirishda guruh rahbari mavsumni, tarixiy sanani, eng yangi yangiliklarni hisobga olishi kerak. Rahbarning esa, tarbiyaviy soatni to'laqonlik va qiziqarli o'tishida yuqoridagilar uning nazaridan chetda qolmasligi zarur.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Rahbarlikning zarur printsiplari rejalilikdir
2. Rejalashtirishga qo'yiladigan talablar
3. Kollejning birinchi o'quv yilining yarim yiliga mo'ljallangan namunaviy ish rejasi
4. Guruh rahbari o'quvchilar haqidagi barcha ma'lumotlarni bilishi
5. O'quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari
6. Sog'liqni saqlash. Sog'lom avlodni tarbiyalash tadbirlari
7. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari
8. Tarbiyaviy papkada nimalar bo'lishi kerak?